JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI
PEDAGOGIK MAHORAT
MARKAZI

3

MODUL

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

(Biologiya fani o‘qituvchilari malaka oshirish kursi uchun)

Jizzax-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

JIZZAX VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

“**KELISHILDI**”	“**TASDIQLAYMAN**”
Akademik faoliyat bo‘yicha o‘rinbosar	Hududiy markaz direktori
_____ **A.Raxmatullayev**	_____ **I.Axmedov**
“___”_____ 2026-yil	“___”_____ 2026-yil

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari biologiya fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining

O‘QUV – USLUBIY MAJMUASI

Malaka toifa yo‘nalishi: **Biologiya fani o‘qituvchilari**

Tinglovchilar kontingenti: **Umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchilari**

Jizzax – 2026

Asos: Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 16-dekabrdagi 402-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan tayanch o‘quv reja va namunaviy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

M.M.Xolboyeva - Jizzax VPMM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi, p.f.f.d.(PhD), dotsent.

“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi”
kafedrasi mudiri
_____ J.Mardankulov
«____» - _____2026-yil

Ushbu “**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari biologiya fani o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursi**” uchun tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuasi Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi Ilmiy-metodik kengashining 2026-yil 03-yanvardagi “1”-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va nashrga tavsiya etilgan.

ISHCHI O‘QUV REJA

3.1 MODUL
BIOLOGIYA FANIDAN DTS VA YANGI AVLOD DARSLIKLARI TAHLILI

1-Mavzu: Biologiya fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi

Mashg‘ulot maqsadi: ishtirokchilar davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari, tarkibiy qismlari, biologiya fanidan o‘quv dasturlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati, biologik ta’lim mazmunini bayon etadi, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yo‘llarini, biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni tahlil qiladi.

Kutilayotgan natijalar

Ishtirokchilar:

- davlat ta’lim standartlarining maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari, tarkibiy qismi, o‘quv dasturlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini bayon eta oladi;
- biologiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yilgan malaka talablari (umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘rganish bosqichlari, tayanch va fanga oid umumiy konpetensiyalar, biologiya fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari, biologiya fanini o‘rganishning mazmuni)ni bayon eta oladi;
- o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yo‘llarini bayon eta oladi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Biologiya fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.1. Biologiya fanidan DTS va yangi avlod darsliklari tahlili				
Mavzu	Biologiya fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	O‘qituvchilar davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari, asosiy prinsiplari, tarkibiy qismlari, biologiya fanidan o‘quv dasturlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati, biologik ta’lim mazmunini bayon etadi, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yo‘llarini, biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni tahlil qiladi.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur material va jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish - mashg‘ulotning maqsadini bayon etish	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga

	qisqa muhokama				rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	Quyidagi reja asosida mavzuni tushuntirish: 1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. 1.1. Davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari. 1.2. Davlat ta’lim standartining asosiy prinsiplari. 1.3. Davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari. 1.4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘rganish bosqichlari. 1.5. Biologiya fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari. 1.6. Biologiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari (tayanch va fanga oid kompetensiyalar). 2. Biologiya fani o‘quv dasturi 2.1. Umumiy o‘rta ta’limda biologiya fanini o‘qitish konsepsiyasi. 2.2. Biologiya fanidan o‘qitiladigan mavzular mazmuni. 3. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish 3.1. Biologik ta’lim mazmuni. 3.2. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yo‘llari.	35	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-7-slaydlar	O‘qituvchilar biologiya fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi ahamiyatini nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish	20	Guruhlarda ishlash	8-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy

					ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	9-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
6. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Reja:

1. **Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti.**

   1.1. Davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari.
   1.2. Davlat ta’lim standartining asosiy prinsiplari.
   1.3. Davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari.
   1.4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘rganish bosqichlari.
   1.5. Biologiya fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari.
   1.6. Biologiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari (tayanch va fanga oid kompetensiyalar).

2. **Biologiya fani o‘quv dasturi**

   2.1. Umumiy o‘rta ta’limda biologiya fanini o‘qitish konsepsiyasi.
   2.2. Biologiya fanidan o‘qitiladigan mavzular mazmuni.

3. **O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish**

   3.1. Biologik ta’lim mazmuni.
   3.2. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yo‘llari.

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti.

1.1. Davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari

Davlat ta’lim standartining maqsadi – umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta’lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

ta’lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek, ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

1.2. Davlat ta’lim standartining asosiy prinsiplari

Davlat ta’lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o‘rta ta’lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o‘rta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o‘rta ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o‘rta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

1.3. Davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari

Davlat ta’lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi;

umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi;

umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari;

baholash tizimi.

1.4. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘rganish bosqichlari

Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o‘rta ta’lim	**A1**	Biologiya fanini o‘rganishning boshlang‘ich

maktablarining 5-sinf bitiruvchilari		darajasi
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-sinf bitiruvchilari	**A1+**	Biologiya fanini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	**A2**	Biologiya fanini o‘rganishning tayanch darajasi
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	**A2+**	Biologiya fanini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari	**B1**	Biologiya fanini o‘rganishning umumiy darajasi
Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 11-sinf bitiruvchilari	**B1+**	Biologiya fanini o‘rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

1.5. Biologiya fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitishning maqsadi: o‘quvchilarga tirik organizmlarning tuzilishi, ko‘payishi, kelib chiqishi, xilma-xilligi, o‘zaro munosabatlari, muhofazasi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitishning vazifalari:

asosiy biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar bilan tanishtirish;

tirik organizmlarning yashash muhitiga moslanishlarining vujudga kelishi mexanizmlari haqida ma’lumot berish;

organizmlarning individual va tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari bilan tanishtirish;

o‘quvchilarni o‘zlarining va o‘zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga yo‘naltirish;

biologiya ta’limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog‘lanishini ta’minlash asosida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;

tabiat va uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

biologik bilimlar zaminida mahalliy o‘simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi olimlarning

biologiyaga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni – "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo‘lib, unda mamlakatning 2030-yilga kelib PISA reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishi maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori – "Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash milliy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi ushbu qarorda PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimiz 2022 yilda ilk marotaba PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘tkazilgan tadqiqotda ishtirok etdi. O‘quvchilarimiz tabiiy fanlar yo‘nalishida (81 ta ishtirokchi mamlakat orasida) 80 o‘rinni egalladi. O‘zbekiston 2023 yilda TIMSS xalqaro baholash dasturida 58 ishtirokchi mamlakat orasida 54 o‘rinni egalladi (4 sinf, tabiiy fanlar natijalariga ko‘ra). 8 sinf o‘quvchilarining natijalari: 39 o‘rin (44 ishtirokchi mamlakat).

Xalqaro PISA 2025 tadqiqoti doirasida O‘zbekistonning 233 ta maktabi tasodifiy tanlab olindi. Ushbu maktablarda 9050 nafar 15 yoshli o‘quvchi sinovdan o‘tishi rejalashtirildi. O‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligi baholanadi. Natijalar xalqaro miqyosda ta’lim sifatini tahlil qilish va ta’lim islohotlarini rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Natijalar kelgusi yilning bahor oylarida e’lon qilinadi.

PISAning tabiiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning tabiiy ilmiy savodxonlik kompetensiyasi baholanadi. O‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari ushbu kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. PISA, TIMSS xalqaro baholash dasturlari reytingida Singapur, Xitoy, Finlyandiya kabi yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgan mamlakatlar tabiiy fanlar ta’limida o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari bilan bir qatorda XXI asr ko‘nikmalari (jumladan, tanqidiy, tahliliy, kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va b.)ni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mamlakatimiz DTS va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, o‘qituvchilarga zamonaviy metodikalarni o‘rgatish ta’lim sifatini oshirishda muhim hisoblanadi.

Savol: Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar reytingida mamlakatimizning egallagan o‘rnini yaxshilash maqsadida biologiya fanini o‘qitishning DTSda belgilab qo‘yilgan maqsadiga qanday o‘zgarishlar kiritgan bo‘lardingiz? Javobingizni izohlang.

1.6. Biologiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari (tayanch va fanga oid kompetensiyalar)

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlashni, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta’minlash, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Fanga oid kompetensiyalar:

biologik obyektlari tanish, ularda boradigan jarayonlarni tushunish va izohlash;

biologik obyektlarda boradigan jarayonlarni kuzatish;

tajribalar o‘tkazish va xulosa qilish.

sog‘lom turmush tarzi va ekologik kompetensiya.

Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi tayanch o‘quv rejaga muvofiq o‘quv fanlarining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

2. Biologiya fani o‘quv dasturi

2.1. Umumiy o‘rta ta’limda biologiya fanini o‘qitish konsepsiyasi

Biolgiya fanini o‘qitishni rivojlantirish Konsyepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya xalq ta’limi tizimida biologiya fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi. Jumladan, ta’lim sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasidagi tajribasidan foydalanib, milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish; biologiya fanidan Davlat ta’lim standarti talablarini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash; biologiya fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish; biologiya fanini umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish; biologiya fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; biologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan biologik bilimlarni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish; biologiya fanini o‘qitishda variativ o‘quv modullarini ishlab chiqish; umumiy o‘rta ta’lim jarayoniga biologiya fanini o‘qitishda milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish; biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ekologik tarbiyaning samarali shakl, usularini keng joriy etish va ekologik madaniyatni shakllantirish; biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarni o‘zlarining va o‘zgalarning salomatliklarini saqlashga, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish ko‘nikmalarni shakillantirish; o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda biologiya fani bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish; biologiya fani bo‘yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo‘naltirish; biologik ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish; o‘quv-tarbiya jarayoni samaradoriligini va natijaviyligini ta’minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish; biologiya fani metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish.

2.2. Biologiya fanidan o‘qitiladigan mavzular mazmuni (10-sinf misolida)

1-bob. Molekulyar biologiya (12 soat)

Biologiya fan sifatida.

Amaliy mashg‘ulot. Hayotning tuzilish darajalarini modellashtirish.

Tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi.

Amaliy mashg‘ulot. Suvning tirik organizmlar uchun ahamiyati.

Uglevodlar. Lipidlar. Oqsillar.

Amaliy mashg‘ulot. Biologik infografika tuzish.

Nuklein kislotalar.

Amaliy mashg‘ulot. DNK va RNK tuzilishiga doir masalalar yechish.

Nuklein kislotalar.

Amaliy mashg‘ulot. DNK va RNK tuzilishiga doir masalalar yechish.

2-bob. Hujayra biologiyasi (17 soat)

Eukariot hujayra. Hujayra qobig‘i. Sitoplazma. Hujayraning membranasiz organoidlari. Hujayraning membranali organoidlari.

Laboratoriya mashg‘uloti. Hujayra membranasiga haroratning ta’sirini o‘rganish.

Yadro. Prokariot hujayra.

Amaliy mashg‘ulot. Prokariot va eukariot hujayralar tuzilishini qiyosiy o‘rganish.

Hujayrada moddalar almashinuvi. Hujayrada energetik almashinuv.

Amaliy mashg‘ulot. Energiya almashinuviga doir masalalar yechish.

Prokariot va eukariot hujayralarning bo‘linishi. Meyoz.

Laboratoriya mashg‘uloti. Mitoz jarayonini mikropreparatlar yordamida o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulot. Mitoz va meyoz fazalarini taqqoslash.

3-bob. Hayotiy jarayonlar (6 soat)

Organizmlarning jinssiz ko‘payishi. Gametogenez. Organizmlarning jinsiy ko‘payishi. O‘simlik va hayvonlar hayot siklida jinssiz va jinsiy nasl gallanishi.

Amaliy mashg‘ulot. O‘simliklar (yo‘sin, qirqquloq, qirqbo‘g‘im, urug‘li o‘simlik) hayot siklida jinssiz va jinsiy bo‘g‘inlarning gallanishini modellashtirish.

4-bob. Irsiyat va o‘zgaruvchanlik (12 soat)

Irsiyat qonuniyatlari.

Amaliy mashg‘ulot. To‘liq va chala dominantlik bo‘yicha masalalar yechish.

Amaliy mashg‘ulot. Kodominantlik va pleyotropiyaga doir masalalar yechish.

Jins genetikasi. Belgilarning jinsga bog‘liq holda irsiylanishi. Jinsiy xromosomalardagi genlarning irsiylanish qonuniyatlari.

Amaliy mashg‘ulot. Jins genetikasiga doir masalalar yechish.

O‘zgaruvchanlik.

Amaliy mashg‘ulot. Modifikatsion o‘zgaruvchanlikni o‘rganish.

Genotipik o‘zgaruvchanlik turlari. Kombinativ, mutatsion o‘zgaruvchanlik.

Amaliy mashg‘ulot. Modifikatsion va mutatsion o‘zgaruvchanliklarni qiyosiy o‘rganish.

5-bob. Genetik muhandislik va biotexnologiya (5 soat)

Genetik muhandislik. Hujayra irsiyatini o‘zgartirish. Biotexnologiya. Biotexnologiya yo‘nalishlari va yutuqlari.

Amaliy mashg‘ulot. Restriksion saytlarni aniqlash va meva sharbatini ishlab chiqarishda pektinazadan foydalanishni o‘rganish.

6-bob. Ekosistema (8 soat)

Ekosistemaning tarkibiy tuzilmasi.

Amaliy mashg‘ulot. Ekosistemaning tarkibiy qismlarini aniqlash.

Ekologik omillar.

Loyiha ishi. Turli muhit sharoitida o‘sgan o‘simliklarning tuzilishini taqqoslash.

Ekosistemaning trofik strukturasi.

Amaliy mashg‘ulot. Oziq zanjiri va oziq to‘riga oid sxemalar tuzish va masalalar yechish.

7-bob. Evolyutsiya (8 soat)

Evolyutsiyani harakatlantiruvchi omillari.

Amaliy mashg‘ulot. Populyatsiyalarning demografik ko‘rsatkichlarini Hardi-Vaynberg qonuni asosida o‘rganish.

Tabiiy tanlanish. Organik olamdagi moslanishlar – evolutsiya natijasi.

Amaliy mashg‘ulot. Organizmlarni yashash muhitiga moslanishini o‘rganish.

Turlarning paydo bo‘lishi.

3. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish

3.1. Biologik ta’lim mazmuni

Har qanday o‘quv fanini o‘qitishda uning mazmuni nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunga asosiy sabab o‘quv fani mazmuni o‘sha fanning o‘ziga xos yo‘nalishi, o‘qitish tizimi, metodlari, vositalarini belgilab beradi. O‘quv fanining mazmuni o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar orqali aniqlashtiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida biologik ta’limning tarkibiy qismlari bo‘lib, botanika, zoologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi hamda sitologiya, biokimyo, genetika, evolyusion ta’limot majmuasidan iborat biologiya o‘quv fanlari hisoblanadi. Mazkur o‘quv fanlaridan turli o‘simliklar, hayvonlar, odamlarning tashqi, ichki tuzilishi, hayot faoliyati, tashqi muhit bilan bog‘liqligi to‘g‘risida hamda hujayra, uning organoidlarining tuzilishi, funksiyasi, irsiyat va o‘zgaruvchanlik, evolyusion ta’lim va shu kabi bilimlar beriladi. Biologik ta’limning tirik tabiatdagi narsa-hodisalarni alohida-alohida o‘rganish emas, balki ularning bir yaxlitligini, o‘zaro bog‘liqligini ifoda etgan holda o‘qitilishi taqozo qilinadi.

Didaktikada ta’lim mazmunining tarkibiy qismlari juda ko‘p tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan. Jumladan, akademik I.Ya. Lerner tomonidan ta’lim mazmunining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiritilgan: bilimlar (ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, ilmiy nazariyalar); faoliyat usullari (ko‘nikmalar); ijodiy faoliyat tajribalari; qadriyatlar tizimi.

Biologiya o‘quv fanining bilimlar tarkibiy qismiga birinchi navbatda ilmiy tushunchalar kiradi. Ular biologiyaning ayrim sohalariga oid xususiy va

biologiyaning barcha sohalariga xos bo‘lgan umumiy biologik tushunchalardan tashkil topadi.

Umumiy biologik tushunchalarga quyidagilar kiradi: hujayra tirik organizmlarning tuzilish, qurilish va hayotiy birligi; organlar tuzilishi va funksiyasining birligi; organizm bilan muhitning o‘zaro bog‘liqligi; organizm – o‘z-o‘zini boshqaruvchi yaxlit sistema; moddalar va energiya almashinuvi; irsiyat va o‘zgaruvchanlik, organizmlarning ko‘payishi; organik olamning evolyusion rivojlanishi kabi tushunchalar kiradi.

Biologik qonunlar ham biologiya o‘quv fani mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Biologik qonunlar sirasiga Mendel va Morganning irsiyat qonunlari, Ber qonuni, V.I.Vernadskiyning atomlarning biogen migrasiyasi qonuni va h.k.

Biologiya fani mazmunining yana bir komponenti ilmiy nazariyalardir. Umumiy o‘rta ta’lim biologiya o‘quv fani ta’lim mazmuniga Ch.Darvinning organik olam evolyusion nazariyasi, A.N.Seversovning filembriogenez nazariyasi, T.Morganning xromosoma nazariyasi va hozirgi zamon gen nazariyasi kiritilgan.

Faoliyat usullari ko‘nikmalardan iborat bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan ko‘nikmalarni egallashini belgilaydi.

Ta’lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi bo‘lgan ijodiy faoliyat tajribalari o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash orqali tarkib toptiriladi. Shu sababli, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida bilimlarni tayyor axborot shaklida emas, balki o‘quvchilarning avvalgi mavzularda o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llashiga imkon yaratishi, ularda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarining tarkib topishiga zamin tayyorlashi zarur.

Ta’lim mazmunining to‘rtinchi tarkibiy qismi bo‘lgan qadriyatlar tizimi o‘qitish jarayonida ta’lim-tarbiyaning uzviyligini ta’minlash, o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

3.2. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish yo‘llari

Biologiya darslarida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish kompleks yondashuvni, turli usullardan foydalanishni talab qiluvchi muhim vazifadir. Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Nazariya va amaliyot integratsiyasi. Biologiya darslarida nazariy bilimlar amaliy tajribalar bilan uyg‘unlashishi kerak. Laboratoriya ishlari, tajribalar o‘quvchilarga biologik hodisalarni kuzatishga va ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi.

2. Tanqidiy fikrlash. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Buni ilmiy maqolalarni tahlil qilish, ilmiy kashfiyotlar va xatolarni muhokama qilish, shuningdek, muammoli vazitalarni hal qilish orqali amalga oshirish mumkin.

3. Ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish. Ma’lumot manbalari bilan ishlash, kuzatish, gipoteza, tajriba, xulosa chiqarish ilmiy tadqiq etiladigan savollarga javob topishga yordam beradi. O‘quvchilar gipotezalarni shakllantirish, tajribalar o‘tkazish va natijalarni izohlashni o‘rganishi kerak.

4. Boshqa fanlar bilan integratsiyasi. Biologiyani kimyo, fizika, ekologiya va boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga turli fanlar qanday kesishishini va bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatishi mumkin.

5. Axloqiy masalalarni muhokama qilish. Bioetika, genetik tadqiqotlar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlar o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni rivojlantirishga va tadqiqotning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini tushunishga yordam beradi.

6. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Simulyatsiyalar, onlayn tajribalar va virtual laboratoriyalar kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi.

7. Fanga qiziqishni rivojlantirish. Loyiha ishlari, tanlovlar, olimpiadalar va ko‘rgazmalarda ishtirok etish biologiya faniga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradi.

8. Hozirgi ilmiy kashfiyotlarni muhokama qilish. Biologiya bo‘yicha yangi tadqiqot va kashfiyotlarni muntazam muhokama qilish o‘quvchilarga hozirgi tendentsiyalardan xabardor bo‘lishga, fan dinamik va rivojlanayotgan jarayon ekanligini tushunishga yordam beradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchidan ham, o‘quvchilardan ham vaqt va kuch talab etadi. Biologiya darslari o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga katta hissa qo‘shishi mumkin.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

Tinglovchilar 4-6 kishilik guruhda ishlab, quyidagi savollarni muhokama qiladi. So‘ng javoblarni boshqa guruhlarga taqdim etadi.

1. Biologik ta’lim mazmuni qanday tarkibiy qismlardan iborat?

2. Sizning-cha, biologiya fani bo‘yicha o‘rganiladigan mavzular mazmuni o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasiga mosmi? Javobingizni asoslang.

3. Biologiya darslarida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish uchun qanday yo‘l tutgansiz? Endilikda qanday yo‘l tutmoqchisiz? Javobingizni asoslang.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17-dekabrdagi 406-son buyrug‘iga 1-ilova.

2. Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi (Biologiya. 7-, 10-sinflari uchun). 2022-2023-o‘quv yili uchun)

3. Axmedova M.T., Rustamova S.Sh. Yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va ularni aqliy tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. 3-jild. 02-nashr, fevral, 2022-yil. “Bilig – ilmiy faoliyat” nashri http://bilig.academiascience.or

2- Mavzu: Biologiya fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar tahlili

Mashg‘ulot maqsadi: ishtirokchilar biologiya darsliklari, mashq daftarlari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalar tuzilishi hamda ulardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning qo‘shimcha manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish yo‘llarini bayon etadi.

Kutilayotgan natija

Ishtirokchilar:

- biologiya darsliklari, mashq daftarlari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalar tuzilishini tahlil qiladi;

- biologiya darsliklari, mashq daftarlari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalardan dars jarayonida samarali foydalanish yo‘llarini bayon etadi;

- o‘quvchilarning qo‘shimcha manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish yo‘llarini bayon etadi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Biologiya fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.1. Biologiya fanining DTS va yangi avlod darsliklarning tahlili				
Mavzu	Biologiya fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar tahlili				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	O‘qituvchilarishtirokchilar biologiya darsliklari, mashq daftarlari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalar tuzilishi hamda ulardan samarali foydalanish, o‘quvchilarning qo‘shimcha manbalar bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish yo‘llarini bayon etadi.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning maqsadini bayon etish	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - Mavzuning dolzarbligi haqida qisqa muhokama	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-4-slaydlar	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Amaliy faoliyat	- Muayyan sinfga oid o‘quv-uslubiy majmualarni tahlil qilish	25	Muhokama, jadval to‘ldirish	5-slayd	O‘qituvchilar mavzuga oid nazariy

	- Natijalarni jadvalda qayd etish va muhokama qilish				ma’lumotlarni o‘rganadi.
4. Yangi mavzuni o‘rganish	- 7-sinf biologiya darsligi, darslikning tuzilishi, undan dars jarayonida foydalanishni tushuntirish; - o‘quvchi mashq daftarining ahamiyatini izohlash; - 7-sinf biologiya fanidan o‘qituvchi metodik qo‘llanmaning tuzilishi, metodik qo‘llanmadan foydalanishni tushuntirish;	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	6-8-slaydlar	O‘qituvchilar biologiya fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi ahamiyatini amaliy jihatdan o‘rganadi.
5. Mustahkamlash	-Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqni bajarish	15	Guruhlarda ishlash	9-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
6 Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari		O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	10-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Mashg‘ulot bosqichlari

1. Jalb etish (Engage)

Kerakli manbalar:

5-11-sinflar uchun dasrliklar, o‘quv dasturlari.

Ishni bajarish tartibi:

1. Ishtirokchilarni 4-6 kishilik guruhlarga ajrating.
2. Har bir guruh quyidagi savollarni muhokama qilgan holda javob yozadi:

1. O‘quv-uslubiy majmua nima?

2. Darslik, mashq daftari, o‘qituvchi kitobini yaratishda qaysi hujjatlar asos bo‘lib xizmat qiladi?

3. Darslikdagi mavzular mazmunini qaysi hujjat belgilaydi?

3. Boshqa guruhlarga javoblaringizni taqdim eting.

2. O‘rganish (Explore)

Kerakli manbalar:
7-11-sinflar uchun dasrliklar, o‘quv dasturlari.

Ishni bajarish tartibi:

1. Ishtirokchilarni 4-6 kishilik guruhlarga ajrating. Bunda o‘qituvchilar nechanchi sinfda ko‘proq dars o‘tishlari inobatga olinishi maqsadga muvofiq (5-11-sinflar kesimida).
2. Har bir guruh muayyan sinfga oid o‘quv-uslubiy majmualarni tahlil qiladi. Natijalarni quyidagi jadvalga qayd etadi:

_-sinf			
Darslik	**Boblar, nomlanishi**	**Rivojlantiriladigan bilim, ko‘nikmalar**	**Xulosa (yutuq, kamchiliklar, takliflar)**

1. Sizning-cha, o‘quv-uslubiy majmualarda DTSda belgilangan malaka talablari, o‘quv dasturidagi mavzular mazmuni to‘liq aks etganmi? Javobingizni izohlang.

2. Ayting-chi, siz dars berayotgan sinfda o‘quv-uslubiy majmuadan samarali foydalanasizmi? Javobingizni izohlang.

3. Agar “Yo‘q” deb javob bersangiz, u holda ushbu muammoning yechimi qanday bo‘lishi mumkin? Taklifingizni asoslang.

4. Siz dars berayotgan sinfda o‘quvchilar qaysi qo‘shimcha ma’lumot manbalaridan foydalanadi?

3. Javoblar guruhda umumlashtiriladi va boshqa guruhlarga taqdim etiladi.

3. Tushuntirish (Explain)
Maqsad: ishtirokchilar biologiya fanidan o‘quv-uslubiy majmualar, darslik, mashq daftari, o‘qituvchi kitoblarining tuzilishi va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish, qo‘shimcha ma’lumot manbalari bilan ishlash yo‘llarini bayon etadi.

NAZARIY MA’LUMOT

Mavzu: Biologiya fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar tahlili

Reja:

1.Biologiya fanidan yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualar.

1.1. O‘quv-uslubiy majmua tushunchasi va tarkibiy qismlari.

1.2. Biologiyadan o‘quv-uslubiy majmualar tahlili.

2. Biologiya fanidan qo‘shimcha ma’lumot manbalari bilan ishlash.

1. Biologiya fanidan yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualar

1.1. O‘quv-uslubiy majmua tushunchasi va tarkibiy qismlari

O‘quv-metodik majmua — darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik — davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo‘lgan didaktik vosita.

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va

boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz, animasiya, jadval, matn va lug‘atlarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o‘tkazish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta’lim resursi.

O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishning maqsadi umumiy o‘rta ta’limi muassasalari uchun zamonaviy fan va texnika rivojini hisobga olgan holda kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o‘quv materiallari mazmuni va sifatini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani samarali tatbiq etishdan iborat.

Hozirda 5-6-sinflar uchun ilg‘or xorijiy tajribalarga tayangan holda “Tabiiy fanlar”dan o‘quv-uslubiy majmualar (darslik, mashq daftari, o‘qituvchi kitobi) tayyorlandi va amalga tatbiq etildi. 7-11-sinflar uchun ham o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Yaqin vaqtlarda ushbu o‘quv-uslubiy majmualardan amaliyotda foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. Ularda o‘quvchilarning olimlardek fikrlashi va faoliyat yuritishi, ya’ni tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Biologiya fanidan yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualar tahlili
(7-sinf misolida)

Hozirda 5-6-sinflar uchun ilg‘or xorijiy tajribalarga tayangan holda “Tabiiy fanlar”dan o‘quv-uslubiy majmualar (darslik, mashq daftari, o‘qituvchi kitobi) tayyorlandi va amalga tatbiq etildi. 7-11-sinflar uchun ham o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Yaqin vaqtlarda ushbu o‘quv-uslubiy majmualardan amaliyotda foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. Ularda o‘quvchilarning olimlardek fikrlashi va faoliyat yuritishi, ya’ni tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

2025-2026-o‘quv yilida ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tayyorlangan biologiya darsligini amaliyotga joriy etish nazarda tutilgan. Ushbu darslik 6 ta bobni o‘z ichiga olgan:

“Biologiya faniga kirish”
“Tirik organizmlar”
“O‘simlik va hayvonlar klassifikatsiyasi”
“Mikroorganizmlar”
“Organizmlarning yashash muhiti”
“O‘simliklarda fotosintez va moddalar transporti”

1-bob 6 ta mavzudan iborat:
Biologiya fani nimani o‘rganadi?

Tadqiqotchi qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?
Tadqiqotchilik ko‘nikmalari va tadqiqot metodlari
Laboratoriyada xavfsizlik qoidalari
Laboratoriya jihozlari
Ilm-fan va texnologiya

2-bob 8 ta mavzudan iborat:
Tirik organizmlarga xos xususiyatlar
Hujayra – tiriklikning tuzilish va funksional birligi
O‘simlik va hayvon hujayralari
Hujayralarning funksiyalari
Hujayradan organizmgacha
Odamning tayanch-harakat sistemasi
Muskullar qanday ishlaydi?
Odam organizmini o‘rganuvchi olimlar

3-bob 5 ta mavzudan iborat:
3.1 Tirik organizmlar klassifikatsiyasi
Tur nima?
Nima uchun bir turga mansub organizmlar bir-biridan farqlanadi?
O‘simliklarni qanday tasniflaymiz?
Hayvonlarni qanday tasniflaymiz?

4-bob 5 ta mavzudan iborat:
Mikroorganizmlar
Mikroorganizmlar va parchalanish jarayoni
Mikroorganizmlar va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish
Mikroorganizmlar va kasalliklar
Lui Paster tadqiqotlari

5-bob 6 ta mavzudan iborat:
Organizmlarning yashash muhitiga moslanishlari
Oziq zanjiri va oziq to‘ri
Inson faoliyatining oziq zanjiriga ta’siri
Inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’siri
Tabiatni muhofaza qilish
Energiya manbalari

6-bob 2 ta mavzudan iborat:
Fotosintez
Suv va mineral tuzlarning o‘zlashtirilishi va transporti

Darslikdagi har bir bob bir nechta ruknni o‘z ichiga olgan:
“Ushbu bobda” ruknida o‘rganiladigan mavzular bo‘yicha egallanishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar berilgan;

“O‘ylab ko‘ring” ruknida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashi hamda ularni tadqiqotchilikka yo‘naltirishga mo‘ljallangan topshiriqlar keltirilgan;
“Sinab ko‘ring” ruknidan jamoada ishlash va mustaqil izlanishga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlar o‘rin olgan;
“Ilmiy faktlar” ruknida mavzuga oid ilmiy tushunchalar bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan;
“Bugungi kunda biologiya” ruknida bob mazmuniga singdirilgan ilmiy tushunchalarning kundalik hayotda qo‘llanishiga oid ma’lumotlar berilgan;
“Mulohaza yuritish” ruknida bob yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikmalarni qo‘llash hamda rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘rin olgan;

“Takrorlash” ruknida bob yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikmalarni nazorat qilish hamda baholash uchun savol va topshiriqlar keltirilgan.

2. Biologiya fanidan qo‘shimcha ma’lumot manbalari bilan ishlash.

Biologiya fanida qo‘shimcha manbalar bilan ishlash o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashga yordam beradi. Quyidagi manbalardan foydalanish tavsiya etiladi:

bosma manbalar: ilmiy kitoblar, ilmiy jurnal va ensiklopediyalar.

elektron manbalar: ta’lim platformalari, rasmiy veb-saytlar, onlayn laboratoriya va video darsliklar.

amaliy manbalar: tajriba laboratoriyalari, biologiya fanidan tajriba o‘tkazish uchun qo‘shimcha material va jihozlar.

Foydalanish tamoyillari:

mavzuga muvofiq, ishonchli va dolzarb manbalarni tanlash;

o‘quvchilarga mustaqil ravishda qo‘shimcha manbalarni izlash va ulardan foydalanishni o‘rgatish;

manbalarni tahlil qilib, muhim ma’lumotlarni saralash.

Metodlar:

topshiriqlar berish: o‘quvchilar tanlangan mavzuni qo‘shimcha manbalar asosida tahlil qilib, hisobot tayyorlashi kerak;

tajriba loyihalari: guruhda ishlab laboratoriya tajribalarini o‘tkazish va natijalarni taqdim etish.

muammoli vaziyatlarga yechim topish: biologik muammolarni qo‘shimcha manbalar yordamida hal qilish.

4. Mustahkamlash (Elaborate)

Ishtirokchilar guruhda ishlaydilar.

1. Explore (O‘rganish) bosqichida to‘ldirgan jadvallarini Explain (Tushuntirish) bosqichida o‘rganganlari asosida qayta ko‘rib chiqadilar.

2. Guruh jadvalni umumlashtiradi.

3. Har bir guruhdan 1 vakil boshqa guruhlarga natijani taqdimot qiladi.

4. Har bir guruh taqdimot haqida fikr-mulohaza bildiradi: yutuq va kamchiliklarini aytadi.

5. Baholash (Evaluate)

O‘zini o‘zi baholash. Ishtirokchilarga o‘zlari bajargan ishni tahlil qilish va o‘zini baholash imkoniyati beriladi. Ular bugungi mashg‘ulotda o‘z faoliyatini, bilim va ko‘nikmalarni qay darajada egallaganini baholashi kerak, masalan:

“Bugungi mashg‘ulotda men faol/nofaol faol qatnashdim, chunki ... . Men …haqida bilib oldim, … qo‘llay olaman.”

O‘zaro baholash. Ishtirokchilar boshqa guruhlarning taqdimotini baholashadi. Taqdimotni yaxshilash yo‘llarini bayon etishadi. Masalan: “Boshqa guruhlarning taqdimotini qanday baholaysiz?”

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun biologiya darsligi/ Ho Peck Leng, Mamuraxon Umaraliyeva, Iqbolxon Abduraxmanova. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024.

2. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun biologiya fanidan mashq daftari / Ho Peck Leng, Mamuraxon Umaraliyeva, Iqbolxon Abduraxmanova. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun biologiya fanidan O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma / Ho Peck Leng, Mamuraxon Umaraliyeva, Iqbolxon Abduraxmanova. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024.

3-mavzu. Biologiya darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Mashg’ulot maqsadi: ishtirokchilar o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni, biologiya darslarida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini, 4Kni rivojlantirish yo‘llarini bayon etadilar.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Biologiya fanini o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.1. Biologiya fanining DTS va yangi avlod darsliklarning tahlili				
Mavzu	Biologiya darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	O‘qituvchilar o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni, biologiya darslarida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini, 4Kni rivojlantirish yo‘llarini bayon etadilar.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish - mashg‘ulotning maqsadini bayon etish	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
4. Amaliy faoliyat	- Muayyan sinfga oid o‘quv-uslubiy majmualarni tahlil qilish - Natijalarni jadvalda qayd etish va muhokama qilish	20	Muhokama, jadval to‘ldirish	4-slayd	O‘qituvchilar mavzuga oid nazariy ma’lumotlarni o‘rganadi.
4. Yangi mavzuni o‘rganish	O‘qituvchilarga o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni, biologiya darslarida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini, 4Kni rivojlantirish	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	5-8-slaydlar	O‘qituvchilar o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini nazariy jihatdan

	yo‘llarini tushuntirish.				o‘rganadi.
5. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash, tahliliy, tanqidiy, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish	15	Guruhlarda ishlash, jadval to‘ldirish, muhokama	9-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
6. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	10	Refleksiya usullari	15-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	16-17-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Mashg‘ulot bosqichlari:

1.Engage (Jalb etish)

Ishtirokchilar 3-5 kishilik kichik guruhda ishlaydilar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Har bir guruh quyidagi vaziyatni muhokama qiladi:

Biz, o‘qituvchilar, maktabda o‘qigan vaqtimizda o‘qituvchimiz mavzuni tayyor axborot ko‘rinishida bayon etgan, doskaga ilingan plakat yordamida mavzuni tushuntirib bergan. Bir necha o‘quvchilarga mavzuga oid savol(lar) bergan va baholagan.

Sizning-cha, biologiya fanining bunday o‘qitilishi bugungi kunda samaralimi? Javobingizni izohlang.

Biologiya fanini samarali o‘qitish uchun o‘qitish muhiti qanday bo‘lishi kerak?

XXI asr ko‘nikmalari, 4K haqida nima bilasiz? Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish qanday ahamiyatga ega? “BBB” jadvalini to‘ldiring.

2. Javoblaringizni boshqa guruhlar bilan o‘rtoqlashing.

2. Explore (O‘rganish)

1. Ishtirokchilar o‘quvchi sifatida guruhda ishlab, quyidagi topshiriqni bajaradilar.

O‘simlik o‘sadigan muhitga mos ravishda ildizlar ham xilma-xil bo‘ladi. Ildizlar nafaqat tuproqda, balki havo yoki suvda ham joylashadi.

6.15-rasm. Bo‘g‘uvchi fikus deb ataladigan o‘simlikning ildizlari daraxtni “bo‘g‘ib” olgan.

6.16-rasm. Tropik o‘rmonlardagi ayrim daraxt ildizlarining bir qismi havoda, bir qismi suvda, qolgan qismi esa tuproqda joylashadi.

Siz yashaydigan hududda uchraydigan g‘ayrioddiy ildizlarga ega o‘simliklarni aniqlang. Bu o‘simlik ildizlari rasmini chizing yoki suratga oling. Ildizlar g‘ayrioddiy tuzilishining sabablarini aniqlang.
  - Misol: "Bugun o‘tkazilgan tajriba jarayonida qanday metodlarni qo‘lladingiz va qanday natijalarga erishdingiz?"
- **Peer-assessment (hamkasblar tomonidan baholash):** Tinglovchilar o‘zaro bir-birlarini baholashadi, bu orqali nafaqat o‘zlarining bilimlarini, balki boshqalarning fikrini ham eshitishadi.

- Misol: "Boshqa guruhlar tomonidan olib borilgan tajriba va tadqiqotlarni qanday baholaysiz? Ularning metodlari qanday yaxshilanadi?"

4. Xulosa va feedback (fikr-mulohaza)

- Tinglovchilar har bir guruhning ishini ko‘rib chiqadi, baholaydi va konstruktiv fikr-mulohaza beradi.
- Tinglovchilarga o‘zlarining ishlari haqida umumiy tahlil, yaxshi tomonlari va yaxshilanishi kerak bo‘lgan jihatlar haqida fikrlar bildiriladi.
- Guruhlar o‘zlarining xulosalarini yangilab, bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

5. Ilmiy metodlarni qo‘llashni amaliy baholash

Yakuniy baholashda ilmiy metodlarni amalda qanday qo‘llaganliklari asosida guruhlar baholanadi. Masalan:

- Tajriba rejasining to‘g‘riligini va aniqligini baholash.
- Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish qobiliyatini aniqlash.
- Xulosalar va natijalarni aniq va ilmiy tarzda taqdim etish.

Refleksiya:

“Men bilaman – Men o‘rgandim – Men qo‘llayman” texnikasi

Har bir tinglovchi uchta savolga javob beradi:

1. **Men bilaman:** Bu mavzuga oid o‘z bilimlaringizdan qaysi biri bugun foydali bo‘ldi?
2. **Men o‘rgandim:** Bugungi faoliyat davomida qanday yangi ma’lumot yoki ko‘nikmaga ega bo‘ldingiz?
3. **Men qo‘llayman:** O‘rganganlaringizni qayerda yoki qanday sharoitda qo‘llashingiz mumkin?

Bu texnika tinglovchilarni amaliy ko‘nikmalarni aniqlashga undaydi va bilimlarni amaliyotga yo‘naltirishga yordam beradi.

3. Jadval yoki grafik yordamida tahlil

Refleksiya uchun quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin. Tinglovchilar jadvalni to‘ldirib, o‘zlarining faoliyatlari haqida fikr yuritadilar:

2-MAVZU: BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MUHIM SAVOLLAR ORQALI ANGLASHNING OLTI JIHATI

Mashg’ulot maqsad: Ishtirokchilarga anglashning olti jihati (Tushuntirish, Talqin qilish, Qo'llash, Takidlash, Nuqtai nazar, O'zini anglash) mohiyatini tushuntirish, ushbu yondashuvni ta'lim jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish va amaliy mashqlar orqali anglash imkoniyatini taqdim etish.

Natijalar:

- Ishtirokchilar anglashning olti jihati haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘ladilar.
- Muhim savollar yaratish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.
- Seminar davomida olingan bilimlarni ta’lim jarayonida qo‘llashga tayyor bo‘ladilar.

Materiallar:

- Tayyorlangan slaydlar.
- Plakatlar va markerlar.
- Savollar yozilgan tarqatmalar.
- Biologiya fani mavzulari bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Tashkiliy qism (10 daqiqa):**
    - Mashg’ulot maqsadi va kun tartibi bilan tanishtirish.
    - Ishtirokchilarni faollashtiruvchi mashq: "Savollar Kubigi".
2. **Nazariy qism (20 daqiqa):**
    - Muhim savollar va anglashning olti jihati.
    - Har bir jihatning ta'rifi va ahamiyati.
    - Biologiya fani misolida savollarning qo'llanilishi.
3. **Amaliy qism (30 daqiqa):**
    - Guruhli faoliyat: "Muhim savollar yaratish."
    - Biologiya fanlidan mavzular bo‘yicha savollar tuzish va ularni tahlil qilish.
4. **Tajriba almashish (10 daqiqa):**

- Ishtirokchilarning savollarini muhokama qilish.
- Har bir savolni anglashning qaysi jihatiga tegishli ekanini aniqlash.

5. **Yakuniy qism (10 daqiqa):**
   - Guruhlar ishini tahlil qilish va baholash.
   - Refleksiya: "Sandiq, Ko‘zgu va Chiroq" metodi orqali seminarni baholash

Mashg’ulot borishi:

2.Engage (Jalb etish)

"Savollar Kubigi"

Maqsad: Ishtirokchilarda muhim savollarni shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish.

Tayyorlov: Kubikning har bir tomoniga savol so‘zlari yoziladi:

- Nima? Qanday? Nega? Nima uchun? Qachon? Qayerda?

Jarayon:

1. Ishtirokchilarga bitta mavzu beriladi (masalan, "O‘simliklarning oziqlanishi").
2. Har bir ishtirokchi kubikni aylantirib, uning ustiga tushgan so‘zga mos ravishda savol tuzadi.
3. Savol tuzgan ishtirokchi o‘z savoliga javob berishni boshqa ishtirokchidan so‘raydi.

Savollar Kubigi uchun na’munaviy savollar:

1. Nima?
- Nima uchun o‘simliklar ozuqaga muhtoj?
- Nima asosida o‘simliklar oziq moddalarni tuproqdan oladi?

2. Qanday?
- Qanday jarayon orqali o‘simliklar suv va mineral moddalarni ildiz orqali oladi?
- Qanday qilib o‘simliklarda fotosintez jarayoni oziq ishlab chiqaradi?

3. Nega?
- Nega tuproqning tarkibi o‘simliklarning o‘sishiga ta’sir qiladi?
- Nega o‘g‘itlar o‘simliklar uchun muhim hisoblanadi?

4. Nima uchun?
- Nima uchun quyosh nuri fotosintez uchun zarur?
- Nima uchun o‘simliklarning oziqlanishida suv asosiy rol o‘ynaydi?

5. Qachon?
- Qachon o‘simliklarda oziq moddalar tanqisligi kuzatiladi?
- Qachon o‘simliklar o‘sish uchun azotga muhtoj bo‘ladi?

6. Qayerda?

- Qayerda o‘simlik ildizlari tuproqdan suvni oladi?
- Qayerda o‘simliklarda fotosintez sodir bo‘ladi?

Explain (Tushuntirish).

Nazariy qism:

"Muhim savollar orqali anglashning olti jihati"

1. Tushuntirish (Explanation)

Ta’rif: Ma’lum bir tushunchani, hodisani yoki jarayonni batafsil va aniq bayon qilish, sabablarini ochib berish.

Muhim savollar:

- Bu nima?
- Bu qanday ishlaydi?
- Nima sababdan bu muhim?

Misol:

Biologiyada **"Fotosintez"** mavzusini tushuntirishda:

- Fotosintez – bu o‘simliklar tomonidan quyosh nuridan foydalanib karbonat angidrid va suvni glyukoza va kislorodga aylantirish jarayoni.
- Bu jarayon o‘simlikning oziqlanishi uchun zarur va barcha tirik organizmlar uchun energiya manbai hisoblanadi.

2. Talqin qilish (Interpretation)

Ta’rif: Ma’lumotni tushunish, unga o‘z nuqtai nazaringizdan yondashish, turli nuqtalar asosida talqin qilish.

Muhim savollar:

- Bu hodisaning ma’nosi nima?
- Bu natijalar nimani anglatadi?
- Qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Misol: "Oziq zanjiri"ni talqin qilishda:

- Har bir organizmning oziq zanjirida o‘rni bor. Masalan, o‘simliklar birlamchi ishlab chiqaruvchilar, hayvonlar esa iste’molchilar.
- Ekotizimda oziq zanjirining buzilishi qanday muammolarni keltirib chiqaradi? Bu savollarni tahlil qilish muhimdir.

3. Qo‘llash (Application)
Ta’rif: O‘rganilgan bilimlarni real hayotdagi yoki yangi vaziyatlarda qo‘llash.
Muhim savollar:
- Bu bilimni qanday vaziyatlarda qo‘llash mumkin?
- Hayotda bu qanday foyda keltiradi?

Misol:
Fotosintez haqidagi bilimni qo‘llash:
- O‘quvchilar issiqxonalarda o‘simlik o‘sishini yaxshilash uchun fotosintez sharoitlarini qanday optimallashtirish mumkinligini o‘rganadi.
- Suv va quyosh nurining yetishmovchiligi fotosintez jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunib, bu muammolarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi.

4. Ta’kidlash (Emphasis)
Ta’rif: Muhim elementlarga e’tibor qaratish, asosiy ma’lumotlarni ajratib ko‘rsatish.
Muhim savollar:
- Bu yerda nimani alohida ta’kidlash kerak?
- Muhim elementlar qanday bir-biriga bog‘langan?

Misol:
Fotosintez jarayonini o‘rganishda asosiy bosqichlarni ta’kidlash:
1. Quyosh nuri energiyasi kimyoviy energiyaga aylanadi.
2. Karbonat angidrid va suv glukoza va kislorodga aylantiriladi.
- Ushbu jarayonda xlorofill va quyosh nuri ta’sirining ahamiyatini ta’kidlash.

5. Nuqtai nazar (Perspective)
Ta’rif: Hodisani turli burchaklardan ko‘rish va baholash.
Muhim savollar:
- Bu mavzuga turli nuqtai nazarlardan qanday qarash mumkin?
- Boshqalar bu haqda qanday fikrda bo‘lishi mumkin?

Misol:
"Genetik o‘zgarishlar" mavzusida:

- Biolog sifatida genetik modifikatsiya qishloq xo‘jaligi uchun muhim deyish mumkin.
- Ekolog sifatida esa genetik o‘zgarishlar tabiatga zarar keltirishi mumkin, deb qarash mumkin.
- Har bir nuqtai nazarni ko‘rib chiqish orqali o‘quvchilarning mavzuni to‘liq tushunishiga yordam beriladi.

6. O‘zini anglash (Self-understanding)
Ta’rif: O‘z bilimlari, tajribalari va hissiyotlarini anglash orqali mavzuga chuqurroq kirib borish.
Muhim savollar:
- Men bu haqida nimalarni bilaman?
- Bu bilim mening hayotimga qanday ta’sir qiladi?

Misol:
"Ekologik muammolar" mavzusida:
- O‘quvchi o‘z hududida atrof-muhitni asrash bo‘yicha qilgan ishlari haqida fikr yuritadi.
- Atrof-muhitga shaxsiy ta’sirini anglab, mas’uliyatni his qiladi va o‘z harakatlarini o‘zgartiradi.

Bu jihatlar nafaqat biologiyani o‘qitishda, balki barcha ta’lim yo‘nalishlarida o‘quvchilarning anglash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Har bir jihat bo‘yicha ochiq savollar va turli vazifalar qo‘yish o‘quvchilarni faol ishtirokchi qiladi.

Elaborate (Chuqurlashtirish).

Guruh ishi uchun ko'rsatmalar:

- Har bir guruhda 3-5 kishidan iborat bo’lgan kichik guruhlarga ajrating
- Guruh uchun berilgan topshiriqni muhokama qiling va muammoni belgilang
- Guruh lideri, izohlarni yozib oluvchi, vaqtni nazorat qiluvchi va savol beruvchi rollarini tayinlang
- Berilgan mavzulardan anglashning 6 ta jihat bo’yicha muhim savollar tuzing.

1-guruh: O‘simliklarning oziqlanishi
2-guruh: Hayvonlarning oziqlanishi
3-guruh: Odamning ovqat hazm qilish sistemasi
4-guruh: O‘simliklarda moddalar transporti

5-guruh: Umurtqasiz hayvonlarning qon aylanish sistemasi
6-guruh: Umurtqalilarning qon aylanish sistemasi

Har bir guruhdan bir ishtirokchi guruh ishi bo'yicha 5 daqiqadan bayonet beradi. Ya'ni, berilgan mavzu bo'yicha tuzilgan savollarni o'qiydi, boshqa guruh ichtirokchilari aynan qaysi jihat bo'yicha tuzilgan savol ekanligi bo'yicha fikrlarini bildirishadi. Shu tariqa boshqa guruhlarda ham davom ettiriladi. Barcha guruh bayonoti tinglab bo'lgandan keyin 5 daqiqa **feedback** o'tkaziladi.

Evaluate (Baholash).

Guruh ishini baholash uchun quyidagi mezonlarni qo'llash mumkin.

1. Savollarning sifati va mazmuni (10 ball):

- Savollar mavzuga mosmi? (2 ball)
- Savollar muammoni aniqlashga xizmat qiladimi?(2 ball)
- Har bir savol "anglashning 6 jihati"ga mos keladimi?(2 ball)
- Savollar aniq va tushunarli tarzda tuzilganmi?(2 ball)
- Boshqa guruhlar savollarining qaysi jihatga tegishli (2 ball)

  ekanligini aniqlashda faol ishtirok etdimi?

REFLEKSIYA:

"6 ta savolga javob berish" refleksiya usuli

Ishtirokchilarga quyidagi savollarga javob berish taklif etiladi:

1. Tushuntirish: Bugungi mashg'ulotdan nimani o'rgandingiz?
2. Talqin qilish: Ushbu mavzuni amaliyotda qanday qo'llash mumkin?
3. Qo'llash: O'z darslaringizda qanday savollarni qo'llashni rejalashtiryapsiz?
4. Ta'kidlash: Bugungi mashg'ulotda siz uchun eng muhim jihatlar qaysilar edi?
5. Nuqtai nazar: Ushbu mashg'ulot sizning pedagogik qarashlaringizni qanday o'zgartirdi?
6. O'zini anglash: O'z faoliyatingizda ushbu yondashuvdan foydalanishga qanchalik tayyorsiz?

3-MAVZU: HAMKORLIKDA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI

Maqsad: Biologiya darslarida hamkorlikda ishlash texnologiyalarining nazariy asoslarini va amaliy qo‘llash usullarini o‘rganish orqali ishtirokchilarning pedagogik mahoratini oshirish.

Natijalar:

- Ishtirokchilar biologiya darslarida hamkorlikda ishlash texnologiyalari haqida nazariy va amaliy bilimga ega bo‘ladilar.
- Guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar va o‘rganilgan usullarni o‘z darslarida qo‘llashni rejalashtiradilar.
- Trening davomida o‘zaro muloqot va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Reja:

1. Tashkiliy qism (Engage bosqichi) - 10 daqiqa

Faollashtiruvchi o‘yin: “Oziq zanjiri” texnikasi orqali ishtirokchilarning biologiyaga oid bilimlarini faollashtirish.

2. Asosiy qism (Explore va Explain bosqichlari) – 90 daqiqa

A. Explore (O‘rganish) – 45 daqiqa

- Turli biologik darajalarni o‘rganish ("Tur, populyatsiya, ekosistema, biosfera").
- Harakatlanish mexanizmlari (tuproq, suv, havo kabi ekotizimlardagi harakatlar) bo‘yicha tadqiqot.

1. Guruhlarning tayyorlanishi va muhokama jarayoni.

B. Explain (Tushuntirish) – 45 daqiqa

- **Learning Together** modeli.
- **Student Team Learning** texnologiyalari.

Har bir texnologiyaga misollar keltirish va amaliyotni ko‘rsatish.

3. Chuqurlashtirish (Elaborate bosqichi) – 45 daqiqa

- Guruhlar ekologik darajalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi va amaliy muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflar beradi.
- Har bir guruh o‘z natijalarini vizual tarzda (diagramma, sxema yoki plakat) taqdim qiladi.
- **Savol-javob va muhokama:** Har bir taqdimot bo‘yicha fikr-mulohazalar.

4. Refleksiya va yakunlash (Evaluate bosqichi) – 25 daqiqa

"3-2-1" modeli:

- 3 ta yangi tushuncha.
- 2 ta qo‘llaniladigan amaliy usul.

▪1 ta ochiq qolgan savol.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. FANNI O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR				
O‘quv modul	3.2. Biologiya darslarida zamonaviy ta’lim yondashuvlari				
Mavzu	Hamkorlikda ishlash texnologiyalari				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• Biologiya darslarida hamkorlikda ishlash texnologiyalarining nazariy asoslarini va amaliy qo‘llash usullarini o‘rganish orqali ishtirokchilarning pedagogik mahoratini oshirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	1-4-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Faollashtiruvchi o‘yin: "Hayotiy zanjirni tikla"	15	Kichik guruhda ishlash.	5-7-slayd 1-ilova	O’qituvchilar guruh bo’lib oddiy va murakkab oziq zanjiri tuza oladilar.
3. Nazariy qism	- Hamkorlikda ishlash texnologiyalarining mazmuni - Hamkorlikda ishlash texnologiyalarining turlari - Biologiya darslarida qo‘llanilishi	20	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	10-17-slaydlar	Hamkorlikda ishlash texnologiyalarining mazmuni, Hamkorlikda ishlash texnologiyalarining turlari, Biologiya darslarida qo‘llanilishi biladilar.
4. Amaliy mashg‘ulot	"Ekologik darajalar tahlili"	20	Guruhlarda ishlash, ekologik darajalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish	19-25-slayd	O’qituvchilar ekologik darajalarni bir-biri bilan bog‘liqligini aniqlaydilar. Har bir

					ekologik darajaning funksiyalarini chuqur o‘rganadilar. Hamkorlikda ishlash orqali bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	10	Suhbat, muhokama, tahlil	26-slayd; 4-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi va baholaydi
6. Refleksiya	Refleksiya: "3-2-1" modeli 3 ta yangi tushuncha 2 ta qo‘llash usuli 1 ta savol	5	Refleksiya usullari	26-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	27-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Engage (Jalb qilish):

Faollashtiruvchi o‘yin: "Hayotiy zanjirni tikla"

Kerakli materiallar:

- Turli organizmlarning rasmlari yoki nomlari yozilgan kartochkalar (masalan, quyosh, o‘t, sigir, odam, ilon, burgut, qo‘ng‘iz va boshqalar).
- Kartochkalar aralashtirilgan holda tayyorlanadi.

Jarayon:

1. **Ishtirokchilarni kichik guruhlarga bo‘ling (4–5 kishi).**

2. Har bir guruhga aralashtirilgan 7–10 kartochka tarqating.
3. Guruhlarga quyidagi topshiriqni bering:
    - Berilgan kartochkalardan oziq zanjirini tuzing.
    - Zanjir qanday ishlashini va har bir organizmning rolini tushuntiring.
    - Qaysi organizmlar bir-biriga bog‘liq va nega?
4. Guruhlar ishini tugatgach, o‘z zanjirlarini auditoriyaga taqdim etadilar.

Muhokama:

- Har bir guruhning zanjiri to‘g‘ri tuzilganmi? Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, nima uchun?
- Oziq zanjiridagi bir organizm yo‘qolsa, zanjirda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
- Hamkorlikda ishlash ularning masalani hal qilishlariga qanday ta’sir qildi?

Oddiy oziq zanjiri: O‘rmon ekotizimi

1. **Quyosh → O‘t** (produsent)
2. **O‘t → Chumchuq** (birlamchi iste’molchi)
3. **Chumchuq → Ilon** (ikkinchi darajali iste’molchi)
4. **Ilon → Qirg‘iy** (yuqori darajali iste’molchi)
5. **Qirg‘iy → Degradatorlar** (bakteriyalar va qo‘ziqorinlar)

Murakkab oziq zanjiri: Suv ekotizimi

1. **Quyosh → Fitoplankton** (produsent)
2. **Fitoplankton → Zooplankton** (birlamchi iste’molchi)
3. **Zooplankton → Mayda baliq** (ikkinchi darajali iste’molchi)
4. **Mayda baliq → Katta baliq** (yuqori darajali iste’molchi)
5. **Katta baliq → Oqqush** yoki **Baliq burgut**
6. **Oqqush/Baliq burgut → Degradatorlar** (o‘lik organizmlar parchalanadi)

Explore (Tadqiq qilish):

Topshiriq: "Harakat mexanizmlarini tahlil qilamiz" (6 ta guruh uchun)

Maqsad:

- Tirik organizmlarning harakatlanish turlarini kengroq o‘rganish.
- Turli guruhlar o‘rtasida mavzu bo‘yicha bilim almashishni tashkil qilish.
- Hamkorlik orqali tahliliy va ijodiy yondashuvni rivojlantirish.

Kerakli materiallar:

1. Har xil tirik organizmlarning tasviri yoki rasmlari (baliq, qush, odam, ilon, o‘rgimchak, hasharotlar, qurtlar, bakteriyalar).
2. Savollar yozilgan kartochkalar.
3. Flipchart, markerlar yoki taqdimot vositalari.

Topshiriqning bosqichlari:

1. **Guruhlarga bo‘lish:**
   Ishtirokchilarni 5 kishilik guruhlarga bo‘ling. Har bir guruhga alohida mavzu yoki organizmlar guruhi bo‘yicha vazifa topshiriladi:

   - **Guruh 1:** Suvda harakatlanish (baliqlar va suv hasharotlari).
   - **Guruh 2:** Quruqlikda sudralish (ilonlar va amfibiyalar).
   - **Guruh 3:** Yurish va yugurish (sutemizuvchilar: odam, it, ot).
   - **Guruh 4:** Havoda uchish (qushlar va hasharotlar).
   - **Guruh 5:** Maxsus harakatlanish usullari (o‘rgimchakning to‘r o‘rishi, qurtlarning sudralishi).
   - **Guruh 6:** Mikroskopik organizmlarning harakatlanishi (bakteriyalar va infuzorlar).

2. **O‘rganish va tahlil (15 daqiqa):**
   Har bir guruh quyidagi savollar bo‘yicha tahlil olib boradi va taqdimot tayyorlaydi:

- Ushbu organizmlar qanday harakatlanadi?
- Ularning harakatlanish organlari qanday tuzilgan va moslashgan?
- Harakatlanishning ekologik ahamiyati qanday?
- Ushbu harakatlanish shakli ularning yashash muhitiga qanday mos keladi?

3. **Taqdimot va muhokama (10–15 daqiqa):**
    - Har bir guruh o‘z mavzusi bo‘yicha tahlil va xulosalarni taqdim etadi.
    - Boshqa guruhlar savollar beradi yoki fikr bildiradi.

Explain (Tushuntirish):

Biologiya darslarida hamkorlikda ishlash texnologiyalari

Hamkorlikda ishlash texnologiyalari - o‘quvchilarni birgalikda o‘rganish va muammolarni hal qilish jarayonlariga jalb qiluvchi pedagogik yondashuv. Bu usul biologiya fanida o‘quvchilarni faollashtirish va mavzularni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

1. Hamkorlikda ishlash texnologiyalarining mazmuni

- **O‘quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish:** Guruhli va jamoaviy faoliyat orqali o‘quvchilarning dars jarayonida faolligini oshiradi.
- **Bilim almashinuvi:** Har bir o‘quvchi o‘z bilimlarini jamoa bilan bo‘lishadi va yangi bilimlarni boshqalardan o‘rganadi.
- **Ko‘nikmalarni rivojlantirish:** Muloqot, mas’uliyat, vaqtni boshqarish, va muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

2. Hamkorlikda ishlash texnologiyalarining turlari
a) Jigsaw (mozaika) metodi
Bu usulda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruh a’zosiga dars mavzusining alohida qismi beriladi. Keyin har bir o‘quvchi o‘z qismiga oid ma’lumotlarni o‘rganib, guruhiga tushuntiradi.

- **Misol:**
    - Mavzu: **O‘simlik hujayralarining tuzilishi**.

- Har bir guruh a’zosiga hujayraning qismining maketi beriladi: hujayra devori, xloroplast, vakuola.
- Guruh a’zolari o‘z qismiga oid ma’lumotlarni o‘rganib, bir-birlariga tushuntirishadi.

b) Think-Pair-Share (O‘yla-juftlikda ishlash-bo‘lishish)
Bu texnika o‘quvchilarga biror masala yoki savolni avval o‘zlari o‘ylab ko‘rish, keyin esa juftlikda muhokama qilish, so‘ngra butun sinf bilan bo‘lishish imkonini beradi.

- **Misol:**
  - Savol: **Fotosintez qanday jarayon va nima uchun muhim?**
  - O‘quvchilar avval javobni o‘zlari o‘ylab topadi, keyin juftlikda muhokama qilib, javobni sinf bilan bo‘lishadi.

c) Group Investigation (Guruhiy tadqiqot)
Bu usulda guruhlar tadqiqot loyihasini bajaradi. Ular mavzu bo‘yicha tadqiqot o‘tkazib, natijalarini taqdim etadilar.

- **Misol:**
  - Mavzu: **Ekotizimlar va oziq zanjiri.**
  - Guruhlar o‘zlari tanlagan ekotizim bo‘yicha oziq zanjirini o‘rganib, uning muvozanatini saqlash muhimligini tushuntirishadi.

d) Peer Teaching (O‘zaro o‘qitish)
Bu metodda o‘quvchilar bir-birlariga dars o‘tadi. Bu esa mavzuni chuqurroq o‘rganish va boshqalarga tushuntirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- **Misol:**
  - Har bir guruhga hayvonlar klassifikatsiyasining bir bo‘limi beriladi: sutemizuvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar. Guruhlar o‘z bo‘limlarini o‘rganib, boshqa guruhlarga tushuntiradi.

3. Biologiya darslarida qo‘llanilishi

Hamkorlikning afzalliklari

- **Chuqur o‘zlashtirish:** O‘quvchilar mavzularni jamoada o‘rganib, bilimlarni mustahkamlaydilar.
- **Faollikni oshirish:** Har bir o‘quvchi jarayonga jalb etiladi.
- **Ijodiy yondashuv:** O‘quvchilar yangi fikrlarni ishlab chiqadilar.

Real darsdan misol: "Fotosintez jarayoni"

1. **Jigsaw metodi:**
    - Har bir guruhga fotosintez bosqichlari beriladi: yorug‘lik jarayoni, karbon jarayoni, mahsulotlar ajralishi.
    - Har bir guruh o‘z bosqichini o‘rganib, sinfga tushuntiradi.
2. **Group Investigation:**
    - Guruhlar fotosintez va inson hayotidagi ahamiyatini o‘rganadi va o‘z tadqiqotlarini taqdim qiladi.
3. **Rollarga bo‘lib ishlash:**
    - Guruh ichida tadqiqotchi, yozuvchi, taqdimotchi rollari taqsimlanadi. Bu ishtirokchilarni teng jalb qilishni ta’minlaydi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlarini birgalikda, hamkorlikda bajarib, o‘quv-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Mazkur texnologiya o‘quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o‘z fikrini bayon etish, asoslash va isbotlash, mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish, o‘quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish, ongli intizomni vujudga keltirishga zamin yaratadi.

O‘qituvchi hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining nazariy asoslarini, metodlaridan foydalanish yo‘llarini, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini, o‘quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo‘llarini egallagan bo‘lishi lozim. Shuni qayd etish kerakki, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir qancha(komandada o‘qitish, kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish, “zigzag” yoki “arra”, “Birgalikda o‘qiymiz”, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish) metodlari mavjud. Mazkur metodlardan biologiya darslarida muvaffaqiyatli foydalanish uchun o‘quvchilarda darslik ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalari, sinf jamoasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjihatlik bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘quvchilarda yuqorida qayd etilgan jihatlarni vujudga keltirishi uchun, avvalo, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash metodidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Chunki bu metodda o‘qituvchi avval yangi mavzuni ko‘rgazmali qurollar vositasida, rejaga asosan bayon qiladi, so‘ngra yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilarning hamkorlikda bajaradigan mustaqil ishlarini tashkil etadi.

Komandada o‘qitish metodi (R. Slavin). Bunda o‘quvchilar teng ikkita guruhga ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil topshiriqni bajaradi. Guruh a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda

tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishiga e’tiborni qaratadi. Bunda o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo‘yicha ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tor ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy- psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir- biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina, har bir o‘quvchi o‘zining dars davomida erishgan natijasi jamoaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

O‘qituvchi darsni boshlashdan avval o‘quvchilarni teng sonli guruhlarga ajratib, mavzu bo‘yicha tuzilgan o‘quv topshiriqlari asosida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etadi. Har bir topshiriq bo‘yicha savol-javob o‘tkazib, o‘quvchilarning javoblari tegishli ballar bilan baholanib boriladi. Dars so‘ngida g‘olib guruh belgilanadi va guruh a’zolari rag‘batlantiriladi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish metodi (R. Slavin, 1986). Bu metodda kichik guruhlar 4 nafar o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari to‘rtta qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarini nazorat qilib baholaydi. Guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasidagi har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, o‘quvchilarni jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalami yangi va kutilmagan vaziyatlarda qo‘llab, yangi bilimlami o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarda darslik ustida mustaqil ishlash, o‘z fikrini bayon etish, asoslash va dalillash ko‘nikmalari tarkib topganligiga ishonch hosil qilingandan keyin guruhlarda o‘qitish metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Hamkorlikda o‘qitishning “zigzag” yoki “arra” metodi (E. Aronson, 1978). Mazkur metodda kichik guruhlar 6 - 8 o‘quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qism (blok yoki modul)larga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o‘quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo‘yicha “mutaxassis”ga aylanadi. SHuni qayd etish kerakki, “arra” metodidan foydalanilgan darslarda o‘quvchilar ikki marta guruhlarga ajratiladi:

1. “Mutaxassislar” tayyorlash guruhi. Ushbu metoddan foydalanib o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha o‘quv materiali to‘rtta qismdan iborat boisa, darsda qatnashayotgan 32 o‘quvchi dars boshlanishidan oldin 4 xil rangdagi

kartochkalar yordamida har biri 8 o‘quvchidan iborat bo‘lgan to‘rtta “mutaxassislar” guruhiga ajratiladi. Ular o‘zlariga tegishli o‘quv topshiriqlarini bajaradilar va shu qism bo‘yicha “mutaxassislar”ga aylanadilar.

2. “Mutaxassislar” uchrashuvi guruhi. Rangli kartochkalar har birining orqa tomonida 1 dan 8 gacha raqamlar yozilgan bo‘lib, barcha rangli kartochkalardagi raqamlar yig‘indisi sinfdagi o‘quvchilar soniga teng bo‘ladi.

“Mutaxassislar” uchrashuvi kartochkalarning orqa tomonidagi raqamlar asosida 8 ta guruh tashkil etilib, bu guruhlar bir xil raqamli 4 xil rangdagi kartochkalarga ega bo‘lgan o‘quvchilardan iborat bo‘ladi. Shuni qayd etish kerakki, bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) “mutaxassisi” bo‘lishi lozim. Mazkur uchrashuvda “mutaxassis”lar o‘zlari egallagan bilimlarni xuddi “arra” tishlari ketma-ket kelganidek, navbat bilan avval 1-guruh mutaxassisi, keyin 2-, 3-, 4-guruh mutaxassislari o‘rtoqlariga tushuntiradi. Ushbu guruhlarda o‘quv materialining 4 ta qismi mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. So‘ngra o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan topshiriqlar yaxlit holga keltirilib, guruhlar o‘rtasida savol-javob, munozara o‘tkaziladi.

Topshiriqlarni bajarish jarayonida guruhlar ichida vazifalar belgilab olinadi. Mazkur metodning o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilar o‘z sheriklari bilan hamkorlikda topshiriqni to‘g‘ri bajarishi bilan bir qatorda guruh a’zolarining faolligi, muloqot madaniyati ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a’zolari bir vaqtda quyidagi ikki topshiriqni bajarishadi:

1. Akademik: o‘quv-bilish faoliyati va ijodiy izlanish orqali o‘quv topshiriqlaridan ko‘zlangan maqsadga erishish;

2. Ijtimoiy-psixologik: dars davomida yuksak muloqot madaniyatiga ega bo‘lish.

O‘qituvchi har ikkala topshiriqning yuqori saviyada bajarilishini nazorat qiladi. O‘quvchilar puxta bilim olishlarining yagona yo‘li o‘z hamkori axborotini diqqat bilan tinglash ekanligini anglagan holda, mushohada yuritishga, kerakli ma’lumotlarni daftarga yozishga harakat qiladi. Bu yerda o‘qituvchi faqat o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etadigan tashkilotchi vazifasini bajaradi. Dars oxirida o‘qituvchi o‘quvchi larning bilim darajasini test savollari yordamida aniqlaydi. Har bir o‘quvchining bilimi sifatidagi o‘sish hisobga olinadi.

1986-yili R. Slavin “arra” metodini qisman o‘zgartirib, “arra-2” metodini yaratdi. Mazkur metodga ko‘ra kichik guruh 4 - 5 nafar o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a’zolari o‘quv materiali yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o‘quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib “mutaxassis”ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi “mutaxassis”lar uchrashuvi shu guruhning o‘zida o‘tkaziladi, ya’ni yangi mavzu materiali shu guruhning o‘zida qayta ishlanib, yaxlit holatga keltiriladi. O‘quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o‘tkazilib, nazorat

qilinadi va baholanadi. Guruh a’zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori bal to‘plagan guruh g‘olib sanaladi.

Elaborate (Chuqurlashtirish)

Topshiriq: "Ekologik darajalar tahlili"
Maqsad:

- Ishtirokchilar ekologik darajalarni bir-biri bilan bog‘liqligini aniqlaydilar.
- Har bir ekologik darajaning funksiyalarini chuqur o‘rganadilar.
- Hamkorlikda ishlash orqali bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

Jarayon:

1. **Guruhlarga bo‘linish (5 daqiqa):**
    - Ishtirokchilarni 6 ta guruhga bo‘ling.
    - Har bir guruhga "tur", "populyatsiya", "ekosistema" yoki "biosfera" bilan bog‘liq vazifalar topshiriladi.
2. **Tadqiqot mavzulari:**
    - **Guruh 1:** "Tur" tushunchasi va uning biologik xususiyatlari. Misol: sherlar turi (Panthera leo) o‘zaro ko‘payish va genetik xilma-xillikni qanday saqlaydi?
    - **Guruh 2:** "Populyatsiya"ning xususiyatlari. Misol: O‘zbekistonning qurg‘oqchil hududlaridagi bo‘rilar populyatsiyasining soni va ularning ovqat zanjiridagi o‘rni.
    - **Guruh 3:** "Ekosistema" va uning asosiy komponentlari. Misol: O‘rmon ekosistemasidagi o‘simliklar, hayvonlar va tuproqning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri.
    - **Guruh 4:** "Biosfera"ning keng ko‘lamli roli. Misol: Biosferaning global isish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishdagi ahamiyati.
    - **Guruh 5:** Ekologik darajalar o‘rtasidagi bog‘liqlik. Misol: Biror turning yo‘qolishi populyatsiya, ekosistema va biosferaga qanday ta’sir qiladi?
    - **Guruh 6:** Amaliy yechimlar. Misol: Populyatsiya boshqaruvi va muvozanatni ta’minlashda insonning roli.

3. **Tadqiqot va tayyorgarlik (20 daqiqa):**
    - Har bir guruh o‘z mavzusini muhokama qiladi.
    - Guruhlar mavzu bo‘yicha qisqacha tahlil yozadi va vizual taqdimot (plakat yoki diagramma) tayyorlaydi.
    - Guruhlar mavzuni chuqurlashtirish uchun o‘rganilgan bilimlarni real hayot misollari bilan bog‘laydi.
4. **Taqdimot va muhokama (15 daqiqa):**
    - Har bir guruh o‘z tadqiqotlari bo‘yicha taqdimot qiladi (3 daqiqadan).
    - Ishtirokchilar boshqa guruhlar ishlariga savol beradilar va muhokama qiladilar.

Hamkorlikdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o‘quvchilar ilgari surgan yangi g‘oyalar va o‘zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog‘liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday hatti-harakat o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi, o‘quvchilarning faolligi asta-sekin o‘sib borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosbata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi.

4-Mavzu: "Biologiya darslarida loyihalash texnologiyasi"

Maqsad:
Ishtirokchilarni biologiya darslarida loyihalash texnologiyasini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish hamda ularni loyihalash metodikasini dars jarayoniga tatbiq etishga tayyorlash.

Kutilayotgan natijalar:

- Ishtirokchilar loyihalash texnologiyasi haqida bilimga ega bo‘ladilar.
- Loyiha yaratish va uni amalga oshirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar.
- Loyihalash texnologiyasini biologiya darslarida qo‘llash bo‘yicha aniq reja shakllantiradilar.

O‘quv bloki	III. FANNI O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR				
O‘quv modul	3.2. Biologiya darslarida zamonaviy ta’lim yondashuvlari				
Mavzu	Biologiya darslarida loyihalash texnologiyasi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• Ishtirokchilarni biologiya darslarida loyihalash texnologiyasini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari bilan tanishtirish hamda ularni loyihalash metodikasini dars jarayoniga tatbiq etishga tayyorlash.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	1-4-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Faollashtiruvchi o‘yin: "Biologiya bo‘yicha loyiha toping!"	15	Guruhda ishlash, loyihalash texnologiyasi	5-slayd 1-ilova	O’qituvchilar qiziqarli loyihalar o’ylab topadilar.
3. Nazariy qism	- Loyiha turlari va ularni strukturalari - Innovatsion loyihalar	20	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	13-35-slaydlar	Loyiha turlari va ularni strukturalari, Innovatsion loyihalar haqida bilimga ega bo’ladilar.
4. Amaliy	Muammoli	20	Guruhlarda	7-12-slayd	Har bir

mashg‘ulot	vaziyatlar, ularni bartaraf qilish uchun loyihalar yaratish		ishlash, biologik loyihalar ishlab chiqish		guruhning berilgan muammoli vaziyatlar bo’yichi loyiha ishi yaratadilar.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	10	Suhbat, muhokama, tahlil	36-slayd; 4-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi va baholaydi
6. Refleksiya	- "Ijobiy/Salbiy/Betaraf" (PMI jadvali)	5	Refleksiya usullari	36-slayd	O‘qituvchilar Ijobiy/Salbiy/Betaraf (PMI jadvali) uchta ustunli jadvalni to’dirish orqali qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	24-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Reja

1. Tashkiliy qism (Engage bosqichi) – 10 daqiqa

Faollashtiruvchi o‘yin: "Biologiya bo‘yicha loyiha toping!":
Ishtirokchilarga biologik masalalar berib, ularni qanday loyiha sifatida hal qilish mumkinligini o‘ylashlari so‘raladi.

2. Asosiy qism (Explore va Explain bosqichlari) – 40 daqiqa

A. Explore (O‘rganish) – 20 daqiqa

- Har bir guruhga biologiyaga oid muammo yoki savol beriladi.
- Guruhlar berilgan masalani hal qilish uchun loyiha yaratadilar.

B. Explain (Tushuntirish) – 20 daqiqa

-tadqiqot xarakteridagi loyihalar, ijodiy xarakterdagi loyihalar, rolli loyihalar, amaliy xarakterdagi loyihalar, izlanish va mo’ljal olishga mo’ljallangan loyihalar

3. Chuqurlashtirish (Elaborate bosqichi) – 20 daqiqa

Har bir guruh yuqoridagi yo’nalishlar bo’yicha loyiha ishi tayyorlaydilar.

4. Refleksiya va yakunlash (Evaluate bosqichi) – 10 daqiqa

"Ijobiy/Salbiy/Betaraf" (PMI jadvali)

- Ijobiy (Plus): Treningning qaysi jihatlari sizga foydali bo‘ldi?
- Salbiy (Minus): Qaysi jihatlarda qiyinchilik sezdingiz?
- Betaraf (Interesting): Siz uchun qiziqarli bo‘lgan yangi ma’lumotlar yoki savollar.

ENGAGE (JALB ETISH)

Faollashtiruvchi o‘yin: "Biologiya bo‘yicha loyiha toping!"

Maqsad:

Ishtirokchilarni biologiya faniga oid muammolarni loyihalash usulida hal qilishga yo‘naltirish.

Jarayon:

1. Har bir guruhga biologiyaga oid muammo yoki savol beriladi.
2. Guruhlar berilgan masalani hal qilish uchun loyiha yaratadi.
3. Loyiha quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi:
   - Muammoning maqsadi va vazifalari.
   - Uni amalga oshirish bosqichlari.
   - Kutilayotgan natijalar va echimlar.

EXPLORE (TADQIQ QILISH):

1-guruh uchun loyiha ishi:

"Qurbaqalar sonining kamayishi muammosi"

- Hududdagi qurbaqalar sonining kamayishiga nima sabab bo‘lishi mumkin?
- Ushbu muammoni hal qilish uchun qanday loyiha tuzish mumkin?

2-guruh uchun masala:

"O‘simliklarning changlanishidagi asalarilarning ahamiyati"

- Asalarilar kamayishi hududdagi o‘simlik turlariga qanday ta’sir qiladi?
- Asalarilar sonini oshirish yoki ularni himoya qilish uchun qanday loyiha tashkil qilishingiz mumkin?

3-guruh uchun masala:

"Daryolardagi ifloslanish va baliqlar populyatsiyasiga ta’siri"

- Ifloslanish sababli baliqlar soni kamaygan hududda qanday loyihani amalga oshirish mumkin?
- Ifloslanishni kamaytirish uchun jamiyatda qanday choralar ko‘rish kerak?

4-guruh uchun masala:

"Mahalliy bog‘larda qushlarning yo‘qolib borishi"

- Qushlar populyatsiyasining kamayishiga sabab bo‘layotgan omillarni o‘rganish.
- Bog‘larda qushlar sonini oshirish uchun qanday loyiha amalga oshirishingiz mumkin?

5-guruh uchun masala:
"O‘simliklarning yangi turlarini yaratish"

- Hududingizdagi iqlim sharoitiga mos bo‘lgan o‘simliklarni qanday tanlab olish mumkin?
- Yangi o‘simlik turlarini o‘stirish bo‘yicha qanday loyiha tuzishingiz mumkin?

6-guruh uchun masala:
"O‘rmonlarning kesilishi va biologik xilma-xillik"

- O‘rmonlarning kesilishi hududdagi biologik xilma-xillikka qanday ta’sir qiladi?
- O‘rmonlarni tiklash va saqlash uchun qanday loyiha tashkil qilish mumkin?

EXPLAIN (TUSHUNTIRISH):

1.Loyiha turlari va ularni strukturalari
2.Innovatsion loyihalar

Loyihalash texnologiyasi hozirgi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Isroil, Finlandiya, Germaniya, Rossiya, Italiya, Braziliya va Niderlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarning ta’lim muassasalarida muvaffaqiyatli qo’llanib kelinmoqda. Dyu J. o’qitishni o’quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o’quvchilarning muayyan maqsadga yo’naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o’quvchilarga o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini amaliyotga qo’llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo’llarini ko’rsatish, ya’ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’liq holda o’qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o’quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o’zlashtirgan bilim, ko’nikmalarini amaliyotga qo’llab hal etish orqali yangi bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtiradilar. O’quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o’qituvchi ularga tegishli ko’rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o’qitishdan ko’zlangan natijaga erishish yo’llarini ko’rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o’quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g’oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo’lgan muammoni hal etish jarayonida ko’zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo’lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo’lsa, amaliyotga qo’llash masalasi bo’yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. O’quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko’nikmalarini egallagan bo’lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo’llarini izlashlari bu borada avval o’zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida

izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilishlari zarur.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi.

Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi: «O'rganilayotgan bilim, ko'nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman». Bu g'oya o'quvchilarning fan asoslarini ongli o'zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo'ljalni to'g'ri olishlariga yordam beradi.

Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o'quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur.

Loyihalash texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarga individual va differensial yondashish imkonini beradi. Har bir loyiha o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi, shu sababli ular ma'lum belgilariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

Loyihada ko'zda tutilgan faoliyatning ustunligiga ko'ra:
-tadqiqot xarakteridagi loyihalar;
-ijodiy xarakterdagi loyihalar;
-rolli loyihalar;
-amaliy xarakterdagi loyihalar;
-izlanish va mo'ljal olishga mo'ljallangan loyihalar.

Loyihalarning predmeti va mazmuniga ko'ra:
-bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar;
-fanlararo izlanishni talab etadigan loyihalar.

Loyihalar xarakteriga ko'ra:
-aniq natija olishga mo'ljallangan loyihalar;
-ko'p yo'nalishli natija olishga mo'ljallangan loyihalar.

Loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar soniga ko'ra:
-yakka tartibdagi loyihalar;
-ikki o'quvchiga mo'ljallangan loyihalar;
-o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan loyihalar.

Loyiha ko'lamiga ko'ra:
-bir sinf o'quvchilariga mo'ljallangan loyihalar;
-maktab o'quvchilariga mo'ljallangan loyihalar;

-shahar miqyosida hal etilishi mo’ljallangan loyihalar;

-mamlakat miqyosida hal etilishi mo’ljallangan loyihalar;

-dunyo miqyosida hal etilishi mo’ljallangan loyihalar.

Loyiha muddatiga ko’ra:

-qisqa muddatli;

-uzoq muddatlilarga ajratiladi.

Tadqiqot xarakteridagi loyihalar.

Ushbu loyihalarning tuzilishi juda yaxshi ishlangan, jumladan, loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar uchun tadqiqot predmeti, dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati, foydalaniladigan metodlar, tadqiqotlar va tajribalar o’tkazish, natijalarni rasmiylashtirish metodlari aniq bo’lishi kerak. Mazkur loyiha mantiqan to’lig’icha ilmiy-tadqiqot muammolariga yaqinlashgan va uning yechimiga mos va bo’ysingan bo’lishi kerak. Loyihaning ushbu turi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqot muammosining predmeti va ob’ekti, vazifalarning izchil va bosqichma-bosqich aniqlanishi, muammolarni hal etish bo’yicha farazlarni ilgari surish, uni hal etishning tadqiqot o’tkazish va tajribalar qilish yo’llarini ishlab chiqish, olingan natija va xulosalarni muhokama qilish, rasmiylashtirish, tadqiqotni davom ettirish uchun yangi muammolar belgilanishi lozim. Biologiya o’qituvchisi bu toifadagi loyihalardan darsda va sinfdan tashqari mashg’ulotlarning ayrim o’quvchilar bilan olib boriladigan mashg’ulotlarda foydalanishi mumkin.

Botanika o’quv kursida o’simlik organlari o’rganilganidan so’ng, «O’simlik - yaxlit organizm» mavzusidagi loyiha tavsiya etiladi.

Loyihaning maqsadi: o’simlik organlarining tuzilishi va funksiyasini hisobga olgan holda uning yaxlit organizm ekanligini isbotlash.

Loyihaning mazmuni: o’simliklarning vegetativ va generativ organlarining tuzilishi va funksiyasini qayd etgan holda o’simlik yaxlit organizm ekanligini isbotlang. O’simlik organlari o’rtasidagi bog’lanishlar aks etgan jadvalni tuzing va shu asosda fikrlaringizni dalillang.

«Qizil lola jamoasining monitoringini tuzish» mavzusidagi loyiha iqtidorli o’quvchilar bilan ishlashda, ayniqsa, qo’l keladi.

Loyiha mavzusi: Qizil lola jamoasi monitoringini tuzish.

Loyiha maqsadi: qizil lola jamoasining hozirgi tarkibi, uning kelgusidagi o’zgarishi va ularni saqlab qolish chora-tadbirlarini belgilash.

Loyihada foydalaniladigan metodlar: kuzatish, biologik statistika, tajribalar o’tkazish, umumlashtirish.

Topshiriqning mazmuni: agar qizil lola o’sadigan maydonning 100 M^2 da 100 ta lola uchrasa, shu maydondagi lolalarning soni 10 yil davomida qanday o’zgarishini yillar bo’yicha hisoblab toping. Mazkur o’zgarishlarni grafik shaklda tasvirlang.

Eslatma: qizil lola ko’sakchasida 6 ta urug’ yetilib, urug’dan chiqqan nihol 9-10 yilda gullaydi. Har bir tup lolada bir yilda 4 ta piyozcha hosil bo’lib, undan

ungan nihol 4-5-yilda gullaydi. Lola urug'ining unuvchanligi 75% ni tashkil etadi.

Ijodiy xarakterdagi loyihalar. Mazkur loyihani hal etishda qatnashchilardan ijodiy yondashish talab etiladi. Ijodiy loyihalarning tadqiqot xarakteridagi loyihalardan asosiy farqi, ularning mantiqiy strukturasi avvaldan belgilanmaydi, balki loyihaning yechimi davomida shakllantiriladi. Ijodiy loyihada qatnashchilarning qiziqishi, motivi, ehtiyojiga ko'ra loyihaning yo'nalishi, olinajak natija belgilanadi. Lekin loyihada ko'zda tutilgan natijani rasmiylashtirish va jihozlashda qat'iy talab qo'yiladi. Biologiya o'qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin.

Odam va uning salomatligi o'quv kursida «Odamning sutkalik ovqat rasionida oqsil, yog', uglevodlar miqdori va ulardan ajralib chiqadigan energiya miqdorini aniqlash» laboratoriya mashg'ulotini kichik guruhlarda tashkil etib, ularga quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1-guruh topshirig'i. O'rta yoshli, aqliy va yengil jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat rasionini tuzing.

2-guruh topshirig'i. O'rta yoshli, og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat rasionini tuzing.

3-guruh topshirig'i. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat rasionini tuzing.

4-guruh topshirig'i. O'smir yoshdagi o'quvchilar uchun bir kecha-kunduzda sarf qilinadigan energiya miqdoriga muvofiq holda ularning ovqat rasionini tuzing.

Rolli o'yin loyihalari. Ushbu loyihalarda struktura aniqlanmaydi va ish tugagunga qadar ochiq bo'ladi. Loyiha qatnashchilari muayyan rollarni bajaradilar. Rollarga muvofiq holda ularning vazifalari aniqlanadi. O'yin syujetiga muvofiq ular rollarni bajarishi, tegishli hollarda «mansabdor shaxs» sifatida muloqotga kirishishi, bunda mavjud qobiliyat va iste'dodlari, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishlari lozim. Loyihani hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishlari uchun juda ko'p mehnat qilishlari, izlanishlari, mustaqil va ijodiy fikr yuritishlari, mustaqillik va onglilik talab etiladi. Bu yerdaijodiy izlanish mavjud, lekin o'quvchilar ma'lum rollarni bajarish orqali loyiha hal etilganligi sababli rolli o'yin loyihalar sanaladi.

Izlanish xarakteridagi loyihalar. Loyihalarning bu tipi muayyan bir mavzu bo'yicha axborot va material to'plash, to'plangan axborot va materiallar bilan loyiha qatnashchilarini tanishtirish, ularni tahlil qilish, faktlarni umumlashtirish, olingan natijalarni rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur loyihalar tadqiqot xarakteridagi loyihalar bilan uyg'unlashib ketadi va uning bir qismiga aylanishi mumkin. Izlanish xarakteridagi loyihalarning strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

-kerakli bo'lgan axborotni izlash manbalari;

-izlanish bosqichlari;

-to’plangan axborot, materiallar, faktlar ustida tahlil o’tkazish;

-xulosa yasash;

-izlanish yo’nalishiga o’zgartirishlar kiritish;

-yangi faktlarni to’plash;

-umumlashtirish va xulosa yasash;

-olingan natijalarni rasmiylashtirish.

Bu toifadagi loyihalardan sinfdan tashqari mashg’ulotlarda foydalanish mumkin. Bular jumlasiga quyidagi mavzulardagi loyihalarni kiritish mumkin: O’zbekistonning «Qizil kitob» ga kiritilgan o’simliklar va hayvonlar, O’zbekistonda paxtachilikning rivojlanishi, O’zbekistonning dorivor o’simliklari va b.

Muammoni aniqlang va o‘quvchilarga savollar bering.
Masalan: "Yer yuzidagi iqlim o‘zgarishi qanday sabab va oqibatlarga ega?"
2. Tadqiqot:
O‘quvchilar javob topish uchun turli manbalarni o‘rganadilar: kitoblar, internet, tajribalar.
Guruh ishlari va kuzatishlardan foydalaning.
3. Tahlil qilish va yechim ishlab chiqish:
O‘quvchilar to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilib, yechimlarni taklif qilishadi.
Masalan, muammolarni grafik, jadval yoki prezentatsiya ko‘rinishida taqdim etish.
4. Taqdimot:
Har bir guruh o‘z natijalarini boshqalarga taqdim etadi.
Boshqalar fikr-mulohaza bildiradi.
5. Xulosa:
O‘qituvchi umumiy xulosani chiqaradi va o‘quvchilarni baholaydi.
6. Amaliy misollar
Tabiiy fanlar:
Suvning fizik xususiyatlarini tajriba orqali o‘rganish.
Ijtimoiy fanlar:

Mahalliy muammolar (masalan, chiqindilarni qayta ishlash) bo‘yicha loyiha ishlab chiqish.
Matematika:
Haqiqiy hayotdagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish.
7. Texnologiyadan foydalanish
Google Forms yoki Mentimeter: So‘rovlar va savollarni tashkil qilish.
Padlet yoki Jamboard: G‘oyalarni jamlash.
YouTube yoki Khan Academy: Qo‘shimcha manbalar.

Biologiya fanini o‘qitishda so‘rovga asoslangan ta’lim (Inquiry-Based Learning) — bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi, o‘zlarini savollar berishga, tadqiqot o‘tkazishga va o‘z bilimlarini mustaqil yaratishga o‘rgatuvchi usul bo‘lib, biologik hodisalarni chuqurroq tushunish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish (masalan, laboratoriya ishlari orqali) va mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi, bu esa ta’lim samaradorligini ko‘taradi.

So‘rovga asoslangan ta’limning biologiyada qo‘llanilishi:

- **Savolga asoslangan yondashuv:** Darsni tabiiy savollar bilan boshlash (masalan, "Nima uchun o‘simliklar yashil rangda?", "Hayvonlar qanday nafas oladi?").
- **Tadqiqot va tajribalar:** O‘quvchilarni oddiy tajribalar (masalan, fotosintez tajribasi, o‘simlik o‘sishini kuzatish) o‘tkazishga va natijalarni tahlil qilishga undash.
- **Muammoli vaziyatlar:** "Nima bo‘lardi, agar..." kabi savollar orqali o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga yo‘naltirish (masalan, "Agar butunlay o‘simliklar qirilib ketsa nima bo‘ladi?").
- **Guruhlarda ishlash:** O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, biror biologik mavzu (masalan, genetik kasalliklar) bo‘yicha tadqiqot olib borib, natijalarni taqdim etishlari.
- **Interaktiv vositalar:** Interaktiv biologik modellar, virtual laboratoriyalar va onlayn resurslardan foydalanish.

Afzalliklari:

- O‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani oshiradi.
- Mustaqil bilim olish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Chuqurroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

- Zamonaviy ta’lim texnologiyalariga mos keladi.

Umuman olganda, biologiyada so‘rovga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni faqatgina ma’lumot yodlovchi emas, balki bilimni izlovchi va yaratuvchi shaxslarga aylantirishga xizmat qiladi.

2-mavzu. GRASPS yondashuvi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

GRASPS modelidan foydalanishning ta’lim jarayonidagi ahamiyati. GRASPS modelining tarkibiy qismlari: Goal (Maqsad), Role (Rol), Audience (Tomoshabin), Situation (Vaziyat), Product, Performance, and Purpose (Mahsulot, faoliyat va maqsad), Standards for Success (Muvaffaqiyat mezonlari). GRASPS modelidan foydalanishning afzalliklari.

GRASPS VAZIFALARIDAN FOYDALANIB HAQIQIY BAHOLASHNI AMALGA OSHIRISH

Maqsad:

- O‘quv jarayoni samaradorligini ko‘rsatuvchi **GRASPS** modeli va u asosida haqiqiy ishlash vazifalari yaratish,
- Haqiqiy baholashni amalga oshirish uchun GRASPS vazifalaridan foydalanishni o‘rganish va ta’lim muassasalari o‘qituvchilariga o‘rgatish.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**				
O‘quv modul	3.3.“ Fanni o‘qitishda xorijiy tajribalarni qo‘llash” modulining o‘quv-mavzu rejasi				
Mavzu	3.3-2. GRASPS yondashuvi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi va kutilayotgan natijalar	• O‘quv jarayoni samaradorligini ko‘rsatuvchi **GRASPS** modeli va u asosida haqiqiy ishlash vazifalari yaratish, • Haqiqiy baholashni amalga oshirish uchun GRASPS vazifalaridan foydalanishni o‘rganish va ta’lim muassasalari o‘qituvchilariga o‘rgatish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Enerdjayzer - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mavzu bo‘yicha ishtirokchilarda qanday bilim va ko‘nikmalar borligini aniqlash	10	Faollashtiruvchi mashq, Suhbat, tushuntirish	1-4 slaydlar	- O‘qituvchilarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar aniqlaniladi -

	maqsadida aniqlashtiruvchi savollar beriladi. - Maqsad va reja bilan tanishtirish				O‘qituvchilar mavzuning maqsadi va rejasi bilan tanishadilar
2. Motivatsiya	- Qiziqarli misol yoki muammoli savol beriladi, muhokama	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	5-6-slayd	O‘qituvchilar mavzuga jalb etiladi, qiziqishini orttiriladi va ishtirok etishga rag‘batlantiriladi.
3. Nazariy qism	- GRASPS qolipi to‘g‘risida tushunchalar beriladi - O‘xshash vaziyatlardan misollar keltirish orqali o‘quv suhbati, - GRASPS o‘zi nima degan savolga birgalikda javob izlash	20	Taqdimot, suhbat	7-10-slaydlar 8-slayddagi ssilkalardan foydalanish	O‘qituvchilar mavzui bilim va ko‘nikmalarini o‘zaro fikrlashgan holda rivojlantiradilar.
4. Amaliy mashg‘ulot	- GRASPS topshiriqi asosida ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shaklantirish va rivojlantirish ; - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqni bajarish; - Muammoli vaziyatlarga maqsadli misollar o‘ylab toppish hamda birgalikda muhokama qilish;	20	Guruhlarda ishlash, suhbat	11-14-slaydlar	O‘qituvchilarda hamkorlikda ishlash va interfaol mashqlar orqali bilim va ko‘nikmalari rivojlantirilad ii.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; - Mustahkamlash: “Moslikni toping” mashqi	15	Taqdimot, Suhbat, muhokama, tahlil	15-slayd	- O‘qituvchilarni taqdimot qilish ko‘nikmalari rivojlantirilad i - O‘qituvchilar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi - O‘qituvchilar yangi mashq

					bilan tanishadilar
6. Refleksiya va dars yakuni	- Mashq: “Men bugungi darsdan …..”	10	Refleksiya, suhbat	16-slayd	O‘qituvchilar dars jarayonidan olgan taasurotlari va ma’lumotlari to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari bilan o‘rtoqlashadilar

Reja:

1. GRASPS qolipi.

2. GRASPS - ta’lim samaradorligini baholash modeli.

GRASPS vazifasiga misol:

Siz suzish-cho‘milish havzasida qutqaruvchisiz. Siz cho‘milish havzasiga kelganlarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirishga, suzish-cho‘milish havzasida xavfsizlikni ta’minlashga va eng muhimi cho‘kayotganlarni tez va aniqlik bilan qutqarishga mas’ulsiz. Siz cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq va to‘liq harakatlar rejangizni ishlab chiqing va u batafsil, to‘liq qo‘llab - quvvatlanadigan tavsiyalarni o‘z ichiga olishi kerak.

GRASPS qolipi:

G (maqsad) – (ssenariy bo‘yicha) cho‘kayotgan bolani qutqarish.
R (rol) – o‘quvchi qutqaruvchilar guruhi a’zosi. A (maqsadli auditoriya) – suzish-cho‘milish havzasi.
S (vaziyat) – suzishni endi o‘rganayotgan va ehtiyotsizlik oqibatida cho‘kayotgan bola.
P (mahsulot) – cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha batafsil, aniq va to‘liq qo‘llab-quvvatlanadigan tavsiyalarni o‘z ichiga olgan harakatlar rejasi.
S (muvaffaqiyat mezonlari) - cho‘kayotgan bolani qutqarish bo‘yicha aniq standartlar va mezonlar.

O‘xshash vaziyatlar: Baliqchilar suvda baliqlarni nayza bilan qanday ovlashlarini, kamonchi baliqlar o‘ljalarini qanday tutishlarini tushuntiring.

Nayza bilan baliq ovlash: https://www.youtube.com/watch?v=asoAAIXy2xo

Kamonchi baliqning ov qilishi: https://www.youtube.com/watch?v=S4G_MeUUZlI

GRASPS nima o‘zi?

GRASPS bu ta’lim samaradorligini baholash modeli. Ta’lim samaradorligi ta’lim oluvchining mavjud bilimlarni haqiqatda tushunish va kundalik faoliyatda foydalanish sifati bilan o‘lchanadi. GRASPS modeli hayotiy (real) vaziyatlar orqali muammoli vazifalar (haqiqiy ishlash vazifalari)ni yaratish va ularni hal qilishni nazarda tutadi. GRASPS loyihaga asoslangan ta’lim uchun asos yaratadi.

U quyidagi 6 bosqichdan iborat: GRASPS

Goal (maqsad) muammo yoki maqsadni aniqlash

Role (rol) o‘quvchining rolini aniqlash

Audience (auditoriya) maqsadli auditoriyani aniqlash

Situation (vaziyat) maqsadning konteksti yoki ssenariysi

Product or performance (mahsulot yoki natija) nima yaratilmoqda va u nima uchun yaratiladi

Standarts and Criteria (standart va mezonlar) muvaffaqiyat standartlari va mezonlari aniqlanadi

GRASPS vazifalaridan foydalanib haqiqiy baholashni amalga oshiring. Tushunishga yordam beradigan haqiqiy ishlash vazifasini qanday yaratishim mumkin?

Buning uchun GRASPSdan foydalaning!

G o‘quvchilar qanday vazifani bajarishlari kerak?

R o‘quvchining vazifadagi roli qanaqa?

A maqsadli auditoriya kimlardan iborat?

S Kontekst nima? Muammo nimada?

P o‘quvchilar nimani yaratadilar/o‘rganadilar/rivojlantiradilar?

S muvaffaqiyat standartlari va mezonlari qanday baholanadi?

Esda saqlang: Vazifalarni ishlab chiqishda real muammolardan foydalaning. Demak, SIZ GRASPS vazifalarini yaratishda:

G- Vazifa bayonnomasini taqdim eting. Vazifada maqsad, muammo, qiyinchilik yoki to‘siqlarni aniq belgilang.

R- O‘quvchilarning vazifani bajarishdagi rolini aniqlang. O‘quvchilarga topshiriqdagi aniq vazifasi va amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishini ayting.

A- Ssenariy kontekstida maqsadli auditoriyani aniqlang. Masalan, auditoriya mijoz, qo‘mita yoki guruhni o‘z ichiga olishi mumkin.

S- Ssenariy kontekstini bayon eting. Vaziyatni tushuntiring.

P- O‘quvchilar nimani va nima uchun yaratishini aniqlang.

S- O‘quvchilarga muvaffaqiyat haqida aniq tasavvur bering. Muvaffaqiyatga olib boruvchi maxsus standartlarni aniqlang.

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

Avtohalokatda qon yo‘qotgan kishiga donorlik qilish yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sintetik yelim o‘rniga uy sharoitida sun’iy yelim tayyorlab berish bo‘yicha haqiqiy ishlash vazifalarini GRASPS modeli asosida tushuntiring.

Amaliy mashg‘ulot.

Mashg‘ulot uchun ko‘rsatmalar:

• Har biri 4-6 a’zodan iborat kichik guruhlar hosil qiling.

• 5 ta fan sohalaridan biridan GRASPS ishlash vazifasini tanlang.

• Guruh rahbari, yozib turuvchi, vaqt nazoratchisi va savol beruvchi rollarini tayinlang.

• Mahsulot va ishlab chiqqan muvaffaqiyat standartlaringiz bo‘yicha taqdimot tayyorlang va himoya qiling.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitishga yangicha yondashuvni, o‘quvchilarning ushbu fanlardan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunga kelib, o‘quv axborotlari hajmining haddan tashqari ko‘payib ketganligi o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni “o‘qish va o‘rganishga o‘rgatish”ni talab qilyapti. Jadallik bilan o‘zgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko‘rsatish va yashash o‘quvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni o‘zlashtirishni, balki turfa ko‘rinishdagi ma’lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda. O‘quv jarayoni samaradorligini ko‘rsatuvchi GRASPS modeli va u asosida yaratilayotgan haqiqiy ishlash vazifalari esa aynan o‘quvchilarning olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo‘llashga qaratilgan. Zero bugungi maktablarning o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarni hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

Moslikni toping: GRASPS vazifasini bosqichlarini to‘g‘ri moslashtiring.

1 G A maqsadli auditoriyani aniqlash
2 R B maqsadning konteksti yoki ssenariysi
3 A D nima yaratilmoqda va u nima uchun yaratiladi
4 S E muammo yoki maqsadni aniqlash
5 P F muvaffaqiyat standartlari va mezonlari aniqlanadi
6 S G o‘quvchining rolini aniqlash

1 G A maqsadli auditoriyani aniqlash 1 2 3 4 5 6

Javob: 1 2 3 4 5 6 E G A B D F

Mustahkamlash uchun topshiriqlar

GRASPS modelidan biologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish tavsiya etiladi. Odam va uning salomatligi fani mavzulari doirasida birinchi yordam ko‘rsatish mashqlarida quyidagicha GRASPS vazifalarini yaratish mumkin.

Tayanch-harakatlanish sistemasi shikastlanganda birinchi yordam berish

G- Jismoniy tarbiya darsida e'tiborsizlik orqasidan Botirning muskul va paylari ezilishi, cho'zilishi ro'y berdi. Sinfdoshingizga birinchi yordam ko'rsating.

R- O'quvchilarning vazifani bajarishdagi rolini aniqlang. O'quvchilarga topshiriqdagi aniq vazifasi va amalga oshirishi lozim bo'lgan ishini ayting.

A- Ssenariy kontekstida maqsadli auditoriyani aniqlang. Masalan, auditoriya mijoz, qo'mita yoki guruhni o'z ichiga olishi mumkin.

S- Ssenariy kontekstini bayon eting. Vaziyatni tushuntiring.

P- O'quvchilar nimani va nima uchun yaratishini aniqlang.

S- O'quvchilarga muvaffaqiyat haqida aniq tasavvur bering. Muvaffaqiyatga olib boruvchi maxsus standartlarni aniqlang.

Avtohalokatda qon yo'qotgan kishiga donorlik qilish yoki boshlang'ich sinf o'quvchilariga sintetik yelim o'rniga uy sharoitida sun'iy yelim tayyorlab berish bo'yicha haqiqiy ishlash vazifalarini GRASPS modeli asosida tushuntiring.

Amaliy mashg'ulot.

Mashg'ulot uchun ko'rsatmalar:

• Har biri 4-6 a'zodan iborat kichik guruhlar hosil qiling.

• 5 ta fan sohalaridan biridan GRASPS ishlash vazifasini tanlang.

• Guruh rahbari, yozib turuvchi, vaqt nazoratchisi va savol beruvchi rollarini tayinlang.

• Mahsulot va ishlab chiqqan muvaffaqiyat standartlaringiz bo'yicha taqdimot tayyorlang va himoya qiling.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitishga yangicha yondashuvni, o'quvchilarning ushbu fanlardan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunga kelib, o'quv axborotlari hajmining haddan tashqari ko'payib ketganligi o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni "o'qish va o'rganishga o'rgatish"ni talab qilyapti. Jadallik bilan o'zgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat ko'rsatish va yashash o'quvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni o'zlashtirishni, balki turfa ko'rinishdagi ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda. O'quv jarayoni samaradorligini ko'rsatuvchi GRASPS modeli va u asosida yaratilayotgan haqiqiy ishlash vazifalari esa aynan o'quvchilarning olgan

bilimlarini kundalik faoliyatda qo‘llashga qaratilgan. Zero bugungi maktablarning o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarni hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni

2.“Fanni o‘qitishda zamonaviy ta’lim yondashuvlari”, o‘quv-uslubiy majmua, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2025-yil

3.B.Aminov “Biologiya” (Odam va uning salomatligi) umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun darslik, 8-sinf, Toshkent, 2019-yil

Hurmatli hamkasb, bu mashg‘ulotni olib borishda quyidagi internet havolalaridan foydalanishingiz mumkin.

1.https://nvsd44curriculumhub.ca/wp-content/uploads/2017/09/GRASPSInstructions.pdf
2.https://www.canberra.edu.au/research/faculty-researchcentres/csc/archive/family-farm-teams-program/teachers-resources/teaching-strategiesinformation-sheets/Creating-authentic-assessment-taks-using-GRASPS.pdf
3.https://nvsd44curriculumhub.ca/wp-content/uploads/2017/09/GRASPSPerformance-Task-Scenario.pdf
4. https://alisonyang.com/grasps-assessment-design-and-student-metacognition/
5. https://www.youtube.com/watch?v=MgoYudNK1Dk
6. https://www.youtube.com/watch?v=xkp4F67f3Fg&t=8s
7. https://www.youtube.com/watch?v=asoAAIXy2xo
8. https://www.youtube.com/watch?v=S4G_MeUUZlI

3-mavzu. Biologiya fanini o‘qitishda 5E Inquiry yondashuvi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Biologiya fannini o‘qitishda 5E Inquiry yondashuvi. 5E modeli tarkibiy qismlari: Engage (Jalb qilish), Explore (Tadqiq qilish), Explain (Tushuntirish), Elaborate (Qo‘llash), Evaluate (Baholash). 5E modellarini qo‘llash usullari.

Maqsad va kutilayotgan natija:

- 5E Inquiry yondashuvi to‘g‘risidagi bilimlarini yangilaydilar va dars jarayoniga samarali tadbiq qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradilar
- O‘qituvchilar dars jarayonlarini samarali tashkil etishga yo‘naltirigan yondashuvlar asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha hamkorlikda dars strurturasini ishlab chiqadilar.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**				
O‘quv modul	3.3.“ Fanni o‘qitishda xorijiy tajribalarni qo‘llash” modulining o‘quv-mavzu rejasi				
Mavzu	3.3-3. Biologiya fanini o‘qitishda 5E Inquiry yondashuvi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi va kutilayotgan natijalar	❑ 5E Inquiry yondashuvi to‘g‘risidagi bilimlarini yangilaydilar va dars jarayoniga samarali tadbiq qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradilar ❑ O‘qituvchilar dars jarayonlarini samarali tashkil etishga yo‘naltirigan yondashuvlar asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha hamkorlikda dars strurturasini ishlab chiqadilar.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Jarayonga jalb qilish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mavzu bo‘yicha ishtirokchilarda qanday bilim va ko‘nikmalar borligini aniqlash	10	Faollashtiruvchi mashq, Suhbat, tushuntirish	1-6 slaydlar	-O‘qituvchilar mavzuga jalb etiladi, mavzuni dolzarbligini anglab yetishlariga imkon yaratiladi, qiziqishini

	maqsadida aniqlashtiruvchi savollar beriladi. - Maqsad va kutilayotgan natija bilan tanishtirish				orttiriladi va ishtirok etishga rag‘batlantiriladi. - O‘qituvchilarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar aniqlaniladi - O‘qituvchilar mavzuning maqsadi va kutilayotgan natija bilan tanishadilar
2. Mavzuga kirish	- 5E Inquiry yondashuvi to‘g‘risida tushunchalar beriladi - 5E tizimi bosqichlari bo‘yicha tushunchalar beriladi	10	Taqdimot, suhbat	7-9-slaydlar	O‘qituvchilar mavzui bilim va ko‘nikmalarini o‘zaro fikrlashgan holda rivojlantiradilar.
3. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlar	- 5E tizimining har bir bosqichi maqsadli amaliy topshiriqlar namunalari asosida ko‘rib chiqiladi - Topshiqlarni individual, juftlikda va guruhlarda bajarishni tashkil etish;	25	Taqdimot, suhbat, Individual, juftlikda va guruhlarda ishlash, suhbat	10-25-slaydlar	-O‘qituvchilarni mavzui bilim va ko‘nikmalari taqdimotlar va mashqlar orqali rivojlantiriladi, -O‘qituvchilarni individual, juftlikda va hamkorlikda ishlash metodikasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari rivojlantiriladi
4. Muhokama va tahlil	- 5E Inquiry yondashuvining afzalliklari o‘zaro fikrlashgan holda ko‘rib chiqiladi;	10	Taqdimot, Suhbat, muhokama, tahlil	26-slayd	-O‘qituvchilar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradilar
5.Mustahkamlash va xulosa	- Mashq: “Yadro” mavzusi bo‘yicha fikrlashib olish va mavzuni mustahkamlash	15	Taqdimot, Suhbat	27-28-slayd	-O‘qituvchilar dars jarayoniga 5 E yondashinuvini tadbiq qilish

					bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar va yangi g‘oyalar bilan o‘ylab topadilar
6. Refleksiya va dars yakuni	Mashq: “Men bugungi darsdan……..larni bilib oldim va …….”	10	Refleksiya, suhbat	29-slayd	O‘qituvchilar dars jarayonidan olgan taasurotlari va ma’lumotlari to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari bilan o‘rtoqlashadilar

5E Inquiry yondashuvi o‘qitish metodikasining samarali va o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlovchi tizimdir.

Ushbu metodika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustahkamlashga, faol ishtirok etishiga va o‘rgatish jarayonida erkin fikrlashga yordam beradi. Inquiry (so‘rov) yondashuvi o‘quvchilarga muammo yoki savolga javob topish uchun tizimli tarzda o‘ylash imkonini beradi.

Tabiiy fanlar, shuningdek, biologiya fanini samarali o‘qitishni tashkil etishning eng sodda yo‘l xaritasi sifatida 5E Inquiry yondashuvini ko‘rsatish mumkin.

5E tizimi quyidagi besh bosqichdan iborat:

1 E ngagement – jalb qilish

2 E xploration – o‘rganish

3 E xplanation – tushuntirish

4 E laboration – mustahkamlash

5 E valuation – baholash

1 E ngagement – jalb qilish

Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni mavzu bilan tanishtiradi va ularni o‘rganishga rag‘batlantiradi. O‘qituvchi :

* savollar,
* rasmlar,
* videolar yoki
* boshqa turdagi interaktiv faoliyatlar orqali o‘quvchilarni dars jarayoniga qiziqtiradi.

Bu bosqich o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha qiziqish uyg‘otishga, oldingi egallangan bilimlariga asoslanishga va yangi materialni o‘zlashtirish uchun izlanishga undaydi.

- Ushbu bosqichda o‘quvchilarning tayanch bilimlarini faollashtirish, ularning diqqatini mavzuga jalb qilish, yangi mavzuni o‘rganishga qiziqtirish, o‘rganilayotgan obyekt, ilmiy hodisa yoki muammoga e'tibor qaratishga undash zarur.
- O‘qituvchi ushbu bosqichni amalga oshirish uchun o‘quvchilarni savol berishga undaydigan rasm, jadval, grafik, model kabilarni ko‘rsatishi yoki mavzuga doir qanday hayotiy tajriba, tasavvur va tushunchalarga egaligi haqida savol berishi mumkin.

O‘quvchilarni dars jarayonida mavzuga jalb qiluvchi topshiriqlardan na’munalar:

1-savol: “ Katta yo‘ldagi avtohalokat”.

Katta yo‘lda baxtsiz hodisa ro‘y berdi. Qarama – qarshi yo‘nalishda katta tezlik bilan kelayotgan ikkita yengil avtomashina to‘qnashib ketdi. Natijada bir qancha yo‘lovchilar turli xil darajada yengil va og‘ir tanjarohati oldilar. Bir yo‘lovchining ahvoli og‘ir : Unda qo‘l suyagining sinishi va natija yelka va bilak – tirsak soxasidan kuchli qon ketishi boshlangan.

Tez yordam kelgunicha jabrlanuvchiga 1–yordam ko‘rsatish kerak.

2-savol: “Maktab darsligidan bilamizki arterial qon tomirlari vena qon tomirlariga nisbatan ancha chuqur joylashgan”.

Bizning organizmimiz uchun bunday joylashishning axamiyati bormi yoki yo‘qmi?

2 Exploration – o‘rganish

Bu bosqichda o‘quvchilar o‘zlari sinov va tajribalar orqali yangi ma’lumotlarni o‘rganadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir vazifani bajarishni yoki masalani hal qilishni taqdim etadi, lekin ularga qanday qilib hal qilishni aniq ko‘rsatmaydi.

* Kashf qilish
* Faol o‘rganish
* Mustaqil o‘rganish
* Hamkorlikda o‘rganish
* Munozara
* Ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish hamda qayd etish

Bu jarayon o‘quvchilarning yuqorida keltirilgan hamda shu kabi bir qancha: kuzatish, savollar berish, taxmin qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- Ushbu bosqichda savollarga javob izlash talab etiladi.Bu turli ma’lumot manbalari bilan ishlash yoki kuzatish, tajriba o‘tkazish tarzida amalga oshiriladi
- O‘qituvchi o‘quvchilarga ilmiy tadqiqot metodlari va mavzuga oid ilmiy tushunchalarni amaliy topshiriq orqali o‘rganishni taklif etadi. O‘quvchilar guruhda ishlab, tadqiq etiladigan savollar qo‘yadilar.

O‘quvchilarni dars jarayonida mavzuni mustaqil o‘rganishga hamda tahlil qilishga undovchi topshiriqlardan na’munalar:



Birgalikda tadqiq etamiz !!!

-Ushbu rasmda qanday jarayon sodir bo‘lyapdi?

-Kundalik hayotimizda ushbu jarayonga o‘xshash bo‘lgan yana qanday holatlarni uchratishimiz mumkin?

-Bu jarayon tabiatda sodir bo‘ladigan qaysi hodisani tushunishimizga yordam beradi?

Yuqoridagi jarayon asosida ushbu tabiat hodisasini hamkorlikda tahlil qiling.



3 Explanation – tushuntirish

O‘qituvchi bu bosqichda o‘quvchilarga o‘z o‘rganishlari haqida tushuncha beradi. Ular o‘z tajribalari va kuzatishlarini aniqlik kiritib, ilmiy tushunchalar va terminologiya bilan bog‘laydilar. O‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy uslubda tushuntirish zarur.

* Diagrammalar orqali tushuntirish
* Infografika orqali tushuntirish
* Bosqichma-bosqich yoki
* Qadamba-qadam tushuntirish

Tushuntirish jarayonida o‘qituvchi mavzuni chuqur va samarali o‘zlashtirishga doir ilmiy asoslangan atamalar, izohlar hamda fundamental ma’lumotlarni o‘quvchilarga berib boradi.

O‘quvchilarni dars jarayonida mavzuni ilmiy asosda, fundamental bilimlarni egallashi uchun o‘qituvchi tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlardan na’munalar:

Aorta tushunchasining izohi.
Arteriya tushunchasining izohi.
Vena tushunchasining izohi.
Yurak avtomatsiyasi
DNK va RNK – ularning organizmdagi vazifasi
Rak (saraton) kasalligi va kelib chiqish sabablari
Infarkt
Gipertoniya
Insult
Global muammolar
Parnik effekti
Ozon qatlami

4 E laboration – mustahkamlash

Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtiradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘shimcha masalalar yoki yangi vazifalar taqdim etadi, bu orqali ular mavzuni kengroq anglashga

erishadilar. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z bilimlarini boshqa kontekstlarda qo‘llash, shuningdek, ilg‘or tushunchalarni o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

* Ilmiy ma’lumotlar
* Ilm – fan
* Tanqidiy fikrlash yoki konstruktiv savol-javob

Mustahkamlash jarayonida o‘qituvchi mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish va eslab qolish hamda hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ushbu jarayonni amalga oshirishi mumkin.

Mustahkamlash jarayonida o‘qituvchi mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish va eslab qolish hamda hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida ushbu jarayonni amalga oshirishiga xizmat qiluvchi

Konstruktiv savol – javob na’munalari

Global muammolar mavzusida

Ozon qatlami haqida eshitganmisiz?

Ozon qatlamining yemirilishiga olib keluvchi sabablarni bilasizmi?

Yer yuzida global iqlim isishi yoki “Parnik effekti” yuzaga kelishida ozon qatlamining ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?

Yer yuzida global iqlim isishi yoki “Parnik effekti” yuzaga kelishi o‘z navbatida yana qanday muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lyapdi?

Shu kabi bir-birini to‘ldiruvchi savol-javoblar orqali mustahkamlash qismini amalga oshirish mumkin bo‘ladi.Bunda mustaqil yoki kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashni amalga oshirish mumkin.

5 Evaluation – baholash

Baholash bosqichi o‘itish jarayonining yakuniy bosqichidir. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z o‘rganishlarini baholaydilar. Baholash, nafaqat o‘qituvchining ishlash samaradorligini, balki o‘quvchilarning o‘rgangan ma’lumotlarini qanday qo‘llashini aniqlash imkonini beradi. Baholash jarayoni individual va guruh faoliyatlarini, shuningdek, o‘z-o‘zini baholashni o‘z ichiga olishi mumkin.

* Takrorlash
* Asosiy tushunchalarning qisqa mazmuni
* Formativ baholash / Nazorat, test topshiriqlari

yoki

* Tushunchalarni tekshiradigan savollar
* Kichik loyiha ishlari
* Individual taqdimotlar

Bu bosqichda o‘quvchilar o‘zlarini qanday rivojlanganliklarini va tushunchalarini qanday o‘zlashtirganliklarini ko‘rsatadilar.

5E Inquiry yondashuvining afzalliklari

- O‘quvchilarning faol ishtirokini ragbatlantiradi;
- Ularning muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘qish jarayonini yanada qiziqarli qiladi;
- Mustaqil fikrlashni va o‘z fikrini erkin taqdim etishni;
- Xatolarni tahlil qilishni;
- Jamoada hamkorlikda ishlashni;
- Kreativ va kritik fikrlashni;
- Ilmiy izlanishlar olib borishni;
- O‘zlarini kichik tadqiqotchilar kabi his qilishni o‘rgatadi.

Biologiyani o‘qitishda **5E Inquiry yondashuvi** (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) o‘quvchilarni faollashtirib, ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi; nazariy bilimni amaliy tajribalar bilan bog‘laydi, fanlarga qiziqishni oshiradi va baholash orqali bilimni mustahkamlaydi, bu esa o‘quvchilarni darsga jalb qiluvchi samarali ta’lim usulidir.

5E modeli bosqichlari va biologiyada qo‘llanilishi:

1. **Engage (Jalb qilish):** O‘quvchilarning mavzuga qiziqishini uyg‘otish.
   - *Misol:* Fotosintezga kirish uchun "Agar Yer yuzida o‘simliklar bo‘lmaganda nima bo‘lardi?" degan savol bilan boshlash.
2. **Explore (O‘rganish):** O‘quvchilarning tajribalar, tadqiqotlar orqali mavzuni o‘zlari ochishiga imkon berish.
   - *Misol:* O‘simliklarning turli yorug‘lik sharoitida qanday o‘sishini tekshirish tajribasini o‘tkazish.
3. **Explain (Tushuntirish):** O‘quvchilar topgan natijalarini nazariy bilimlar bilan bog‘lab, tushuntirish.
   - *Misol:* Tajriba natijalarini fotosintez kimyoviy reaksiyasi bilan bog‘lab tushuntirish.
4. **Elaborate (Kengaytirish):** Olingan bilimlarni yangi vaziyatlarga tatbiq etish.
   - *Misol:* O‘simliklar ekologik muammolarga qanday chidashini muhokama qilish.
5. **Evaluate (Baholash):** O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.
   - *Misol:* Yakuniy test, loyiha ishi yoki munozara orqali baholash.

4-mavzu. SMART o‘quv maqsadlari yordamida dars mashgulotlarini rejalashtirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

SMART maqsadlari tushunchasi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, SMART maqsadlari yordamida biologiya dars mashg‘ulotlarini rejalashtirishning afzalliklari, SMART maqsadlarini belgilash orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish imkoniyatlari.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**				
O‘quv modul	3.3.“ Fanni o‘qitishda xorijiy tajribalarni qo‘llash” modulining o‘quv-mavzu rejasi				
Mavzu	3.3-4. SMART o‘quv maqsadlari yordamida dars mashgulotlarini rejalashtirish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi va kutilayotgan natijalar	• SMART o‘quv maqsadlari yordamida dars mashg‘ulotlarini rejalashtirish va dars jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar • O‘qituvchilar dars jarayonlarini maqsadli tashkil etish kerakligini anglab etadilar va dars mashg‘ulotlarini maqsadli tashkil etish bo‘yicha hamkorlikda mavzui rejalar ishlab chiqadilar.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Jarayonga jalb qilish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mavzu bo‘yicha ishtirokchilarda qanday bilim va ko‘nikmalar borligini aniqlash maqsadida aniqlashtiruvchi savollar beriladi. - Maqsad va kutilayotgan natija bilan tanishtirish	7	Faollashtiruvchi mashq, Suhbat, tushuntirish	1-4 slaydlar	- O‘qituvchilarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar aniqlaniladi - O‘qituvchilar mavzuning maqsadi va kutilayotgan natija bilan tanishadilar
2.	- Mavzuga olib kirish va	8	Suhbat,	5-slayd	O‘qituvchilar

Motivatsiya	tushunchalarini kengaytirish uchun qiziqarli maqsadli topshiriqlar berish orqali mashq o‘tkaziladi, muhokama		muhokama		mavzuga jalb etiladi, mavzuni dolzarbligini anglab yetishlariga imkon yaratiladi, qiziqishini orttiriladi va ishtirok etishga rag‘batlantiriladi.
3. Mavzuga kirish	- SMART maqsadlari to‘g‘risida tushunchalar beriladi - O‘rganishning asosiy jihatlari o‘zaro fikrlashgan holda ko‘rib chiqiladi	8	Taqdimot, suhbat	6-7-slaydlar	O‘qituvchilar mavzui bilim va ko‘nikmalarini o‘zaro fikrlashgan holda rivojlantiradilar.
4. Amaliy mashg‘ulot	- SMART o‘quv maqsadlari yordamida o‘rganishni rejalashtirish va dars jarayoniga maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish ; - Individual va guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqni bajarish;	12	Individual, juftlikda va guruhlarda ishlash, suhbat	8- slaydlar	O‘qituvchilar individual ishlashdan hamkorlikda ishlash jarayoni samarali ekanligini anglab etadilar va interfaol mashqlar orqali bilim va ko‘nikmalari rivojlantiradilar
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish; - Mashg‘ulotni dars rejasi bilan bog‘lash	10	Taqdimot, Suhbat, muhokama, tahlil	9-slayd	- O‘qituvchilarni taqdimot qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi - O‘qituvchilar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadil

					ar va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradilar hamda dars jarayoniga maqsad bilan kirish kerakligi tushunadilar - O‘qituvchilar dars rejasi bilan tanishadilar
6. Nazariy qism	-SMART o‘quv maqsadlari va uning har bir tamoyilini biologiya misoli orqali ko‘rib chiqish, - SMART maqsadlarining ta’lim jarayonidagi roli va ahamiyati tushunchalar, - SMART maqsadlarining 3ta elementi to‘g‘risida tushunchalar beriladi	10	Taqdimot, Suhbat, muhokama, tahlil	10-19-slayd	- O‘qituvchilar taqdimotlar orqali mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, - O‘qituvchilar dars jarayonlari maqsadli tashkil etilganda samarali natijaga erishish mumkinligi tushunadilar
7.Mustahkamlash	-Mashq: **“Sog‘lom ovqatlanish”** guruh ishi O‘qituvchilar 5ta guruhga ajratiladi va topshiriqlar beriladi.	12	Taqdimot, Suhbat, muhokama	20-23-slayd	- O‘qituvchilar o‘z darslarida hamkorlikda ishlash va taqdimot qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan ishlashning avzalliklarini anglab etadilar,

					- O‘qituvchilar guruhlarda ishlash metodikasi bo‘yicha bilimlarini yangilaydilar
8. Xulosa	- Topshiriq: “SMART maqsadlari asosida 1ta mavzu bo‘yicha dars mashg‘ulotiga maqsad qo‘yish”	8	Juftlikda ishlash suhbat	24-slayd	- O‘qituvchilar dars jarayonlarini maqsadli tashkil etish kerakligini anglab etadilar va dars mashg‘ulotlarini maqsadli tashkil etish bo‘yicha hamkorlikda mavzui rejalar ishlab chiqadilar.
9. Refleksiya va dars yakuni	Mashq: “Men bugungi dars jarayonidan olgan 3ta yangilik”	5	Refleksiya, suhbat	25-slayd	O‘qituvchilar dars jarayonidan olgan taasurotlari va ma’lumotlari to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari bilan o‘rtoqlashadilar

SMART o‘quv maqsadlari tushunchasi va uning tarkibiy qismlari:
Specific (Aniq);
Measurable (O‘lchovli);
Achievable (Erishish mumkin bo‘lgan);
Relevant (Maqsadga muvofiq);
Time-bound (Muddati aniq).

SMART - bu aniq va o‘lchanadigan maqsadni shakllantirish, zarur

resurslar va unga erishish vaqtini aniqlash imkonini beruvchi usul.

SMART ta’lim (texnologiya) maqsadlari bilan o‘quv tajribalarini rejalashtirishdir.

Mazkur mavzuda ta’lim tizimida SMART- o‘quv maqsadlari orqali o‘qitishning afzalliklari keng yoritilgan. Ta’lim muassasalari faoliyatida SMART-o‘quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish, maqsad qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va metodlari keng yoritilgan. Shu bilan birga maqsadlarni amalga oshirishni 5 sharti va strategiyasi haqida ma’lumot olishingiz mumkin.

Maqsad va kutilayotgan natijalar:

- SMART o‘quv maqsadlari yordamida dars mashg‘ulotlarini rejalashtirish va dars jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar
- O‘qituvchilar dars jarayonlarini maqsadli tashkil etish kerakligini anglab etadilar va dars mashg‘ulotlarini maqsadli tashkil etish bo‘yicha hamkorlikda mavzui rejalar ishlab chiqadilar.

O‘rganishning asosiy jihatlari:

• SMART o‘quv maqsadlari - aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangani va ta’lim tizimidagi afzalliklari keng yoritilgan.

•Ta’lim muassasalari faoliyatida Smart- o‘quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish.

• Maqsad qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda ularning o‘ziga xos hususiyatlari, tamoyillari va metodlari o‘rganishga imkon beradi.

•SMART o‘quv maqsadining uch elementi hamda SMART o‘quv maqsadlarini joriy etishning besh usuli.

•Zarur jihozlar: har bir guruh ishi uchun vatman, marker, A4 qog‘oz, taqdimot.

Mashg‘ulotni tashkil etish rejasi				
t.r	Bosqichlar	Amalga oshirish tartibi	Vaqt	Materiallar
1.	Kirish	Yangi mavzuga kirish uchun topshiriq	10 min	
2.	Muammolar, uning yechimi va mezoni	SMART o‘quv maqsadlari yordamida o‘rganishni rejalashtirish va dars jarayonida maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish; maqsad qo‘yish	25 min	

		bilan bog‘liq		
3.	Amaliy ishlar	Guruhda mavzu yuzasidan topshiriqlar bajarish	30 min	
4.	Mavzuni mustahkamlash		10 min	
5.	Natijalar va baholash	Muhokamalar va o‘zini o‘zi baholash orqali olinadigan natija	5 min	

Mashg‘ulotning borishi:

Mashg‘ulotni boshlash
Qatnashchilarni mashg‘ulotga jalb etish.
Vaqt: 10 min

3 ta ijobiy xislat yozing	1ta salbiy yozing
Orzular	Maqsadlar

Qatnashchilarning javoblari eshitiladi va qo‘ilgan maqsadlar to‘g‘rimi? bu maqsadlarni real amalga oshirish mumkinmi? degan savol bilan yangi mavzu o‘rganiladi.

Reja:

1. SMART o‘quv maqsadlari.
2. SMART maqsadlarning ta'lim jarayonidagi roli va ahamiyati
3. SMART o‘quv maqsadining uch elementi.
4. SMART o‘quv maqsadlarini joriy etishning besh usuli.

SMART o‘quv maqsadlari

Zamonaviy darsning maqsadi aniq o‘lchovli bo‘lishi kerak, maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsni samarali tashkil etish va o‘tkazish, dars ishlanma yaratish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Darsning maqsadlarini aniqlash
2. Dars turiga aniqlik kiritish
3. Maqsadlarga muvofiq mashg‘ulot usullarini tanlash
4. Maqsad,vazifa, mazmuni va o‘qitish uslubiga mos keladigan dars

tuzilishini aniqlash.

Birinchi qoidani batafsilroq ko‘rib chiqsak-dars maqsadlarini aniqlash. Ular qanday qilib To‘g‘ri shakllantirilishi mumkin? Ko‘pincha yosh o‘qituvchining dars ishlanmalarida quyidagilarni o‘qish mumkin: “O‘quvchilarga mavzuni gapirib berish”, “Plastmassaning xususiyatlari bilan tanishtirish” va hk. Buni darsning maqsadi deb SMART dars rejasi samarali ta’lim uchun muhimdir. SMART degani aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan degan ma’noni anglatadi.

Keling, har bir tamoyilini biologiya misoli orqali ko‘rib chiqamiz.

O‘qituvchi faoliyatining maqsadi - uning bilimga intilishi, o‘quvchini tayyorlash,o‘qitish va rivojlantirish darajasini o‘zgartirish To‘g‘risida ongli ravishda qaror qabul qilish,shuning uchun darsning maqsadlari iloji boricha aniqroq bo‘lishi kerak.

Muvofiqlikka yo‘naltirilgan maqsadlarni belgilashning bir yo‘li - SMART-mezonlarini qo‘llashdir. SMART «To‘g‘ri» maqsadlarni belgilash uchun eng muhim besh mezonni eslab qolishga yordam beradigan abbreviaturadir (beshta inglizcha so‘zlarning birinchi harfiga asoslangan):

S	**SPECIFIC** - ANIQLIK (o‘ziga xoslik, maxsus)
M	**MEASURABLE** - O‘LCHAMGA EGA
A	**ATTAINABLE** - ERISHSA BO‘LADIGAN
R	**RELEVANT** – DOLZARB
T	**TIME FRAME** - VAQT BILAN CHEGARALANGAN

Aniqlik (o‘ziga xoslik, maxsus) - Birinchi element aniqlikdir. Maqsad aniq qilib belgilab berilgan bo‘lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: nima qilish kerak? Kim javobgar? Qanday talablar va cheklovlar mavjud?

Siz o‘quvchilarga yurakning qonni butun tana bo‘ylab qanday tashishini tushuntirishni xohlaysiz? Bu maqsad juda aniq, chunki u yurakning qonni butun tanaga haydash vazifasiga qaratilgan. Hech qanday noaniqlik yo‘q; maqsad oc va

aniq belgilangan. Misol uchun, darsingiz yurakning kameralari va qon aylanish doirasini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi mumkin, bu har bir bosqichning tafsilotlarini tushunishlariga qaratilgan.

O‘lchamga ega - Keyingi element o‘lchanadigan. Maqsad taraqqiyotni kuzatish va muvaffaqiyatni aniqlash uchun miqdoriy yoki o‘lchanadigan mezonlarga ega bo‘lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: qancha? Necha dona? Qachon bajarilganini qanday bilsam bo‘ladi?

O‘quvchilar darsni tushunganligini bilish uchun, siz ularning bilimlarini qanday tekshirishingiz mumkin?. Siz onlayn testlar, shakllantiruvchi baholashlar yoki sinfdagi faoliyatlar orqali ularning bilimlarini baholashingiz mumkin. Misol uchun, siz o‘quvchilardan yurak qismlarini belgilash yoki qon oqimi jarayonini tasvirlashni so‘raydigan onlayn test tayyorlashingiz mumkin. Yoki sinfdagi faoliyatda o‘quvchilar rekvizitlardan foydalanib qon aylanish tizimini modellashtirishlari mumkin, bu ularning tushunishini o‘lchashning bir ko‘rsatkichi bo‘ladi.

Erishsa bo‘ladigan - Erishish mumkin bo‘lganlik - uchinchi komponentdir. Maqsad real va vaqt, resurslar va ko‘nikmalar kabi cheklovlar doirasida erishish mumkin bo‘lishi kerak. Qanday amallar qilinishi zarur? Maqsadga erishish shartlari qanday?

Dars maqsadlari realistik va sinf muhitining cheklovlari doirasida amalga oshirilishi kerak. Bu mavjud yoki oson yaratiladigan materiallardan foydalanishni anglatadi. Misol uchun, siz yurakning funksiyalarini tushuntirish uchun diagrammalar, modellardan yoki onlayn interaktiv simulyatsiyalardan foydalanishingiz mumkin. O‘quvchilar haqiqatdan ham tushunishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilash muhimdir, masalan, yurakning asosiy ishlash mexanizmini tushunish yurak hujayralarining biokimyoviy jarayonlari kabi murakkab mavzulardan ko‘ra osonroqdir.

Dolzarb -To‘rtinchi element dolzarblikdir. Maqsad tashkilot yoki loyihaning umumiy maqsadlari va strategiyalariga mos kelishi kerak. Bu foydali bo‘lishi va kerakli natijalarga hissa qo‘shishi kerak.

Dars maqsadi o‘quv dasturi va o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq mazmunli bo‘lishi kerak. Yurakning funktsiyasini tushunish juda muhim, chunki u inson anatomiyasining muhim qismidir. Bu bilim nafaqat biologiya uchun, balki umumiy sog‘liq ta'limi uchun ham dolzarbdir. Misol uchun, yurak qanday ishlashini tushunish o‘quvchilarga yurak-qon tomir funksiyasi haqida ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, shuning uchun darsning haqiqiy hayotdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Vaqt bilan chegaralangan - Oxirgi element vaqt bilan chegaralanganlikni anglatadi, ya'ni dars maqsadlarini amalga oshirish uchun aniq muddat belgilanishi kerak. Maqsad muayyan muddat yoki yakunlash muddatiga ega bo‘lishi kerak. Bu shoshilinchlik tuyg‘usini yaratishga yordam beradi va harakatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Masalan, yurak mavzusini batafsil yoritish uchun ikki hafta etarli b o‘lishi mumkin deb qaror qilishingiz mumkin. Bu davr bir nechta darslar, testlar va k o‘rib chiqish seanslarini o‘tkazishga imkon beradi, bu esa TO‘liq tushunishni ta‘minlaydi.

Aniq vaqt oralig‘ini belgilash dars tuzilishini rejalashtirishda yordam beradi va maqsadlar belgilangan muddat ichida bajarilishini ta’minlaydi.

SMART o‘quv maqsadlarining uchta elementi bor:

1. Namoyish - o‘quvchi nima qila olishi va/yoki tayyorlay olishi kutilmoqda?
2. (Muvaffaqiyat) mezonlar - maqbul ishlash mezonlari qanday?
3. Shartlar - qanday sharoitlarda ishlash sodir bo‘ladi.

SMART o‘quv maqsadlaridan foydalanilganda uning har bir o‘rganish aspekti hisobga olinishi lozim.
Masalan, “Sog‘lom ovqatlanish’’ mavzusida o‘quvchi vazn ketkazishni o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi. Har bir o‘quvchi qancha vazn ketkazmoqchi ekanligini o‘lchashni iloji yo‘q, bunga erishib bo‘lmaydi, bu yerda muddat ham ko‘rsatilmagan. Shuning uchun o‘rganishning boshqacharoq usulini ko‘rib chiqamiz, ya’ni bir oy ichida 5 kg vazn yo‘qotishni maqsad qilib qo‘yamiz va o‘quvchi dars oxirida vazn ketkazishning 3ta usulini bilib olishi kerak. Bu topshiriq SMART o‘quv maqsadlariga misol bo‘la oladi.

Namoyish - vazn yo‘qotish, ya’ni biz har bir o‘quvchiga vazn yo‘qotishni maqsad qilib qo‘ydik.

(Muvaffaqiyat) mezonlar -o‘quvchi bir oy ichida 5 kg yo‘qotishi kerak.

Shartlar - o‘quvchi parxez tutishi va sport bilan shug‘ullanishi kerak.

Darsda maqsadimiz, yondashuvimiz asosan o‘quvchilarni o‘rganishiga qaratilgan bo‘lishi lozim, faqat bilim berilsa o‘quvchi darsga qiziqmaydi.

Guruh ishi.

“Sog‘lom ovqatlanish’’ mavzusida biz tet-tez iste’mol qiladigan tuxumga doir misollar keltiramiz:

1-guruh. Biz tez-tez iste'mol qiladigan tuxumlarning kamida uch turini ro‘yhatini tuzing. Tuxum turlari: tovuq, bedana, o‘rdak tuxumlari. Bu yerda SMART maqsadlarining aspektlari:

Holat-ro‘yhat tuzish Mezon -3ta turdagi tuxumni yozish

Ish harakat - tez-tez yeyiladigan tuxumlar

2-guruh. Tovuq tuxumining kamida uch xil tuzilishini farqlang.

Bu yerda SMART maqsadlarining aspektlari :

Holat - farqlash

Mezon - tovuq tuxumining 3xil tuzilishi

Ish harakat-tovuq tuxumining qobig‘i

3- guruh. Tuxumlarni bir hafta davomida saqlashda ularning eskirmasligini ta'minlashning kamida uchta usulini taklif qiling.

Bu yerda SMART maqsadlarining aspektlari :

Holat - taklif qilish

Mezon - eskirmasligini ta’minlashning kamida uchta usulini Ish harakat - bir hafta davomida eskirmasligini ta’minlash

4- guruh. Pazandachilikda tuxumning olti xil ishlatilishini tavsiflang.

Holat - pazandachilikda

Mezon - tuxumning olti xil ishlatilishi Ish harakat – tavsiflash

5- misol. Tuxum qovurilganda ikkita o‘zgarishni tushuntiring.

Holat- ikkita o‘zgarishni

Mezon -tuxum qovurilganda Ish harakat - tushuntirish

Har bir topshiriqni bajarishda vaqt aniq qilib belgilangan bo‘ladi, masalan 15- avgustgacha.

Mustahkamlash

SMART o‘quv maqsadlarini joriy etishning 5 ta usuli.

1. Dars boshlanishida o‘qituvchi SMART modelidan foydalanadi va bu haqida ma’lumot beradi, uni o‘tiladigan mavzuda qanday qo‘llanilishini tushuntirib beradi.
2. Dars davomida muayyan vaqtda qanday maqsadlarga erishganligi haqida ma’lumot berib boriladi.
3. KWLSdagi “Bilishni hohlayman” savollaridan foydalanganda ”Bilaman-bilmoqchiman-bilib oldim- yana o‘rganmoqchiman” degan savollarga SMART modeli asosida ma’lumot beradi.
4. LISCni bosqichma-bosqich muvaffaqiyat mezonlari asosida o‘quv maqsadlari bilan o‘rganish.
5. Dars yakunida o‘rganilgan narsalar haqida ma’lumot beradi va SMART o‘quv maqsadlarini o‘rganganligi haqida belgilab qo‘yadi.
6.

Xulosa

SMART metodi sizga ma’lum chegaradan chiqib ketmagan holatda maqsadga erishishda zarur bo‘lgan bosqichlardan o‘tib borishingizga yordam beradi. Shuningdek, bu metod kerakli resurslar, erishayotgan natijalar va sarflanayotgan vaqt ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi. Maqsadlaringizga SMART usulda erishing.

Nazorat savollari

1.SMART maqsadlarning o‘ziga xosligi nimada?

2.Mavzu uchun tanlagan maqsadingiz bilan qanday natijaga erishmoqchisiz?

3.Nima uchun SMART maqsad ko‘zlangan natijaga erishishga yordam beradi?

5-mavzu. Fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

STEAM yondashuvi orqali nostandart tafakkurni rivojlantirishning asosiy usullari; Tadqiqot loyihalari va eksperimentlar o‘tkazish orqali nostandart fikrlashni shakllantirish; Zamonaviy texnologiyalar yordamida ijodiy loyihalarni yaratish; Muammolarni muhandislik orqali hal qilish usullarini izlash; Biologiya va san’atni birlashtiruvchi loyihalar orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni

shakllantirish; Biologik jarayonlarni matematik modellash va nostandart yechimlar topish.

Maqsad va kutilayotgan natija:

O‘qituvchilar

- fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi to‘g‘risida yangi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar hamda ularni dars jarayoniga samarali tadbiq qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradilar
- dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni integratsiya va STEAM yondashuvlari asosida samarali tashkil etadilar.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**				
O‘quv modul	3.3.“ Fanni o‘qitishda xorijiy tajribalarni qo‘llash” modulining o‘quv-mavzu rejasi				
Mavzu	3.3-5. Fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi va kutilayotgan natijalar	O‘qituvchilar • fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi to‘g‘risida yangi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar hamda ularni dars jarayoniga samarali tadbiq qilish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantiradilar • dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni integratsiya va STEAM yondashuvlari asosida samarali tashkil etadilar.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Jarayonga jalb qilish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mavzu bo‘yicha ishtirokchilarda qanday bilim va ko‘nikmalar borligini aniqlash maqsadida aniqlashtiruvchi savollar beriladi. - Maqsad va kutilayotgan natija bilan tanishtirish	7	Faollashtiruvchi mashq, Suhbat, tushuntirish	1-3-slaydlar	- O‘qituvchilarning mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar aniqlaniladi - O‘qituvchilar mavzuning maqsadi va kutilayotgan natija bilan tanishadilar
2. Mavzuga kirish	- Integratsiya nima, fanlararo integratsiya nima	8	Taqdimot, suhbat	4-14-slaydlar	O‘qituvchilar mavzui bilim va

	savollari asida mavzui tushunchalar beriladi - STEAM nimaligi va uning afzalliklari to‘g‘risida savol-javoblar orqali o‘zaro fikrlashgan holda tushunchalar beriladi.				ko‘nikmalarini o‘zaro fikrlashgan holda rivojlantiradilar.
3. Amaliy mashg‘ulot	- O‘qituvchilar juftliklarga ajratilib turli xil topshiriqlar beriladi: Juflikda ishlash: Daftaringizga o‘zaro fikrlashgan holda tanlab bitta mavzu yozing. Shu mavzu bo‘yicha dars o‘tganingizda qaysi fanlar bilan va qanday qilib integratsiya qilgan bo‘lardingiz ? Bajarish uchun vaqt beriladi: 5 daqiqa 2. Juflikda ishlash: Daftaringizga o‘zaro fikrlashgan holda STEAM yondashuvi asosida mavzui topshiriqlar o‘ylab toping ? Bajarish uchun vaqt beriladi: 5 daqiqa	20	Juftlikda ishlash, suhbat Taqdimot Muhokama	15-slaydlar	- O‘qituvchilar juftlikda ishlash metodikasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar - O‘qituvchilar dars jarayonlari uchun kerakli metodik ma’lumotlar va topshiriqlar o‘ylab topadilar hamda ularni dars jarayonlariga tadbiq qilish bo‘yicha o‘rtoqlashadilar
4. Nazariy qism	- Fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi to‘g‘risida taqdimotlardan foydalanilgan holda fikrlashib olinadi, - STEAM va fanlararo integratsiyaning o‘zaro aloqasi, vazifasi hamda loyihalar ustida ishlash bo‘yicha	10	Taqdimot, Suhbat	16-21-slaydlar	- O‘qituvchilar taqdimotlar orqali mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, - O‘qituvchilar dars

	tushunchalar beriladi				jarayonlarini integratsiyalash va STEAM yondashuvlari asosida tashkil etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradilar
5.Mustahkamlash va xulosa	-O‘qituvchilar bilan topshiriqli taqdimotlar orqali individual va juftlikda mashqlar tashkil etiladi	10	Taqdimot, Suhbat, muhokama	22-30-slaydlar	- O‘qituvchilar o‘z darslarida individual va hamkorlikda ishlash hamda taqdimot qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan ishlashning avzalliklarini anglab etadilar, - O‘qituvchilar individual va juftlikda ishlash metodikasi bo‘yicha bilimlarini yangilaydilar
6. Refleksiya va dars yakuni	Mashq: “Portfel va chelakcha”	5	Refleksiya, suhbat	31-32-slaydlar	O‘qituvchilar jarayonlardan olgan taasurotlari va ma’lumotlari to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari hamda o‘zidagi nimani chelakga tashlaganlikla

					ri bilan o‘rtoqlashadilar

Fanlararo integratsiya nima ?

Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya turli fanlar va sohalarni bir-biriga bog‘lash orqali o‘quvchilarga qulaylik yaratishni maqsad qiladi. Bu integratsiya usullari o‘quvchilarga turli fanlarni birga o‘rganish, masalalar va muammolarga integratsiyalashish orqali tushunchalarini kengaytirish va ularning fikrlarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu usullar o‘quvchi uchun ko‘nikmalarni birlashtirib, ulardagi bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Integratsiya (lotin tilida integratio – tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan kelib chiqqan). Bu so‘z bir necha ma’nolarda o‘z funksiyasiga ega. Ammo ayni pedagogik ta’limdagi o‘rni fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayonini anglatuvchi tushuncha ma’nosida yoritiladi. Integratsiya so‘zi differensiatsiya so‘zi bilan bir o‘rinda ham qo‘llaniladi. Integratsiya differensiatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jarayonlar o‘quv fanlari tizimini qurish va yoshlar bilimlarini umumlashtirish usullarini izlashda aks etadi. Differensiatsiya deganda butunni uning tarkibiy elementlariga bo‘lish, ajratish tushuniladi. O‘quvchilarni o‘qitishda integratsiya nuqtayi nazaridan o‘qitish va tarbiyalashni takomillashtirishning ayrim jihatlari taniqli klassik pedagoglar (Y. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalozzi, K. Ushinskiy va boshqalar) asarlarida, shuningdek didaktik olimlar,(I. D. Zvereva, M. A. Danilov, S. P. Baranov, N. M. Skatkin), psixolog olimlar (E. N. Kabanova-Meller, N. F. Talizina, yu. A. samarina, G. I. Vergeles), metodist olimlar (M. R. Lvova, V. G. Goretskiy, N. N. Svetlovskaya, yu.M. Kolyagina, G. N. hujumlar va boshqalar) tomonidan qayt qilingan. O‘zbekiston olimlari ham bu sohada kerakli izlanishlarni olib borishmoqda.
Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya har bir fan va mavzu ustida o‘quvchilarga o‘zaro bog‘lanishni ta’minlaydigan bir qancha yondashuvlardan iborat bo‘lib, bu, masalan, matematika va texnologiyalar bilan boshqa turli fanlarni bog‘lashni ta’minlaydi. Bu usul o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi, chunki ularga mavzuni eng yaxshi tushunish uchun qo‘llanma va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, bu usul o‘quvchilar uchun ko‘proq motivatsiyani keltirib chiqaradi va ularning qiziqishlarini zarur fanlarga bog‘lantiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya – bu o‘quv-uslubiy jarayonda farzandlarga bir necha fanlarni bir-biriga bog‘lash va ularning o‘zaro aloqalarini kuchaytirishni maqsad qiladi. Bu uslubiylar o‘quvchilarning tushunchalarini, fikrlarini va mahoratlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning ko‘nikmalarini integrativ tarzda yaxshiroq tushunishiga yordam beradi. Bu uslubiy jarayon, o‘quvchilar uchun adabiyot, tarix, ona tili va boshqa fanlar orasidagi bog‘lanishni tushunishga imkon beradi va ularning bilimlarini kengaytirishga yordam beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya ya’ni ta’limda fandan boshqa fanlarni ham o‘qitishning asosiy prinsiplaridan biridir. Bu turli fanlar va mavzularni bir-biriga bog‘laydigan, ularni bir qatorda o‘rgatish va o‘rganuvchiga ta’limga qiziqishni yaratishning usullaridan biridir. Fanlararo integratsiya jarayonida, murabbiy va o‘quvchilar faqatgina bir fanni o‘qigan bo‘lmaydi, balki turli fanlarni bog‘langan darsliklar, mashg‘ulotlar va amaliyotlar orqali o‘rganadi. Misol uchun, matematika va fizikni birgalikda o‘rgatish orqali murabbiy o‘quvchilarga bu ikki fanni bir-biriga bog‘liq ekanligini tushuntirishi mumkin.

Fanlararo integratsiya yordamida o‘quvchilarga farzandlari doimiy ravishda xalqaro muloqotlarda ishtirok etish, muammosiz muhokama qilish, masalalar yechish va ijtimoiy muzokaralar ko‘tarilishi imkoniyatini beradi. Bu jarayon uni zamonaviy dunyo bilan bog‘liqlikka tayyorlashga yordam beradi va intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, fanlararo integratsiya ta’limda motivatsiyani oshiradi va o‘quvchilarning tushunchalari orasidagi munosabatlarni kuchaytiradi. Uning natijasida, o‘quvchilarning ma’lumotlari ilmiy darajada tarbiyalanadi va ularning jamiyat bilan bog‘liqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya, ilmiy-metodik fanlarni mustaqil o‘rganish, ularning bir-biriga bog‘liqligini tushunish va ularni amaliy hayotda birlashtirish jarayoni. Bu integratsiya jarayoni orqali o‘quvchilarga bir necha fanga oid ma’lumotlarni bir vaqtning o‘zida berish, ularni biror masalaga doir savollarga alohida javob topish uchun o‘zlashtirishga imkon beradi. Bu usul ta’lim-tarbiya protsessini samarali va efektiv qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Maktabimizdagi darslarning bir xilligi uzoq vaqtdan beri ta’limni rivojlantirish uchun to‘siq bo‘lib kelgan. "O‘quv dasturi o‘quv jarayonining afzalliklari yoki kamchiliklarining eng muhim ko‘rsatkichidir. U fanlarning nomlanishi, ularni o‘rganish ketma-ketligini, har bir fan uchun ajratilgan vaqtni, nazorat shakllarini va boshqalarni belgilaydi. Umumta’lim maktabining o‘quv rejalari jiddiy kamchiliklardan aziyat chekmoqda. Ulardan asosiysi ko‘p fan, ya’ni maktabda oz sonli soat ajratilgan fanlar mavjud. O‘quv fanlarining integratsiyasi ko‘p mavzulardan qochishga imkon beradi va samaradorligi juda past bo‘lgan soatlari kam bo‘lgan fanlarni o‘quv materialidan chiqarib tashlaydi. Integratsiya mavzu tizimini takomillashtiradi, uning kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi va ob’ektlar o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqlikni chuqurlashtirishga qaratiladi[6, 21-b.] Fanlararo integratsiya turli fanlar va disciplinlarning birlashtirilishi yoki bir-biriga bog‘lanishi jarayoni hisoblanadi. Bu muhitdagi turli sohalardagi bilimlarni va ma’lumotlarni birbiriga bog‘lash orqali yangi bilim va texnologiyalar yaratishga imkon beradi. Fanlararo integratsiya matematika, fizika, kimyo, biologiya, injinerlik, informatika va boshqa sohalarning bir-biriga bog‘lanishini o‘rganish uchun muhimdir. Bu jarayonning natijasida o‘quvchilarning tushunchalari kengayadi va

ularning yaratuvchi fikrlash usullari rivojlanadi. Zamonaviy ta’limda fanlararo integratsiya istiqboli yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.

Fanlararo integratsiya, o‘quvchilarni bir nechta fanlar bo‘yicha o‘qitishda, bu fanlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlashga qaratilgan usuldir.

Bunda fanlar bir-biriga to‘liq bog‘lanib, o‘quvchilarga bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, muammoni yechishda ko‘proq ko‘nikmalarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Masalan:

Bilogiya darslarida kimyo fani bilan bog‘lash uchun “Suv” bilan bog‘liq mavzularda, suv to‘g‘risida tushuntirib, keyin uni formulasini yozdirish……

Bilogiya darslarida matematika fani bilan bog‘lash “Suv” bilan bog‘liq mavzularda, suv to‘g‘risida tushuntirib, keyin uni formulasini yozdirib, uni malekulyar massasini hisoblatish kabi o‘rgatish fanlararo integratsiyaning bir nechta misollaridir.

STEAM nima ?

S T E A M –ta’lim

- Science- tabiiy fanlar,
- Technology- texnologiyalar,
- Engineering- texnik ijodkorlik,
- Arts- san’at,
- Mathematics- matematika

- bu ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini birlashtirgan ta’lim yondashuvi.
- STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy va tanqidiy fikrlash;
- Muhandistlik yondashuv;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
- Dizayn asoslarini tushunish

STEM -ta’limining afzalliklari

1.Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki “ mavzu” lar bo‘yicha integratsiyalab olib borish

STEM –ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlami texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

2.Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash

STEAM ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida bolalarga ilmiy -texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar

zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o‘rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

3.Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish

STEM -dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar.

4.O‘z kuchiga ishonish hissining ortishi

Bolalar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar.

5.Faol kommunikatsya va komandada ishlash

STEM -dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishlash bilan farqlanadi. Muloqat davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs -munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganadilar. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqatda bo‘ladilar. Bolalar jarayonda faol qatnashsalar, mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

6.Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish

STEAM- ta’limining vazifasi, o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat.

7.Ta’lim va karera orasidagi ko‘prik

Turli xil baholashlarga ko‘ra hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan STEM bili mlari zarur bo‘ladi. Bunday kasblarga : muhandis -kimyogar; neft bo‘yicha muhandislar; kompyuter tizimlari analitiklari; muhandis -mexaniklar; muhandis -quruvchilar; robototexniklar; yadro meditsinasi kiradi.

8.Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv

STEM -ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol(vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo‘lishi yoki birgalikda ishlatilishi o‘z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo‘lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o‘rgamlishi ko‘pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi.

9.Bolalarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash

STEM -ta'limi bolalami texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Kuyingi 60 yil davomida texnologiyalar kuchli darajada rivojlandi: Internetning ochilishi(1960), GPS texnologiyalar (1978) dan DNK ni skanerlashgacha va albatta Ipod(2001). Barcha hozirda Iphone va boshqa smartfonlarni ishlatadi. Texnologiyalarsiz hozirgi kunda dunyoni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tenologiyalar

bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi va STEM ko‘nikmalar bu rivojlanishning asosi bo‘ladi

10.STEM maktab dasturlariga qo‘shimcha sifatida

STEM dasturlari 7-14 yoshdagi o‘quvchilarning muttasil ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, fizika darslarida yerning tortish kuchi o‘rganilganda , doskada formulalarni yozib tushuntirilsa, STEM to‘garaklarida raketalar, samolyotlar, parashyutlar qurib, ishga tushirib o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi:

Bu ta’lim tizimida bir nechta fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ta’minlash, o‘qituvchilarga keng qamrovli va samarali bilim olish imkoniyatlarini yaratishning innovatsion usuli hisoblanadi. Fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvi asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

O‘QUVCHINING QIZIQISHLARI, EHTIYOJLARI, QOBILIYATLARI, SHAXSIY SIFATLARI, INTELLEKTUAL XUSUSIYATLARI

IQTIDORLI VA ISTE’DODLI O‘QUVCHILARNI TANLASH VA INDIVIDUAL YONDASHISH

MAKTABDAN

TASHQARI TA’LIMNING ZAMONAVIY USULLARI VA YO‘NALISHLARI

ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSION LOYIHALAR

STEAM va fanlararo integratsiyaning o‘zaro aloqasi:

STEAM yondashuvi va fanlararo integratsiya bir-birini to‘ldiruvchi konseptlardir.

STEAM ta‘limi har bir fanning o‘zaro bog‘lanishini ta‘minlab, o‘quvchilargalarga zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berishni maqsad qiladi.

Bunda:

Fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarga bir nechta fanlarni bir vaqtning o‘zida o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

STEAM orqali o‘quvchilar turli ilmiy va texnologik muammolarni san’at va dizayn orqali ijodiy tarzda yechishga o‘rganadilar.

STEAM yondashuvning asosiy vazifasi:

- **IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR**
- **XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARI**
- **ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYA**
- **MA’NAVIY BARKAMOL VA INTELLEKTUAL SHAXS**
- **STEAM TABIIY FANLARNING AMALIY JIHATLARINI INTEGRASIYALASH**

Biologiya va san’atni birlashtiruvchi loyihalar orqali ijodiy fikrlashni shakllantirish:

1.Biologik jarayonlarning san’at bilan integratsiyasi:

Biologiya va san’atni birlashtiruvchi loyihalarda, masalan, o‘simliklarning biologik jarayonlarini tasvirlash yoki ekologik tizimlar orqali san’at asarlarini yaratish.

2. Tabiat va san’atni birlashtirish:

O‘quvchilar tabiiy materiallar yordamida san’at asarlarini yaratishadi, bu orqali biologik jarayonlarni va tabiiy dunyoni san’at va dizayn orqali o‘rganadilar.

Tadqiqot loyihalari va eksperimentlar orqali nostandart fikrlashni shakllantirish:

Eksperimentlar o‘tkazish: STEAM yondashuvi yordamida o‘quvchilar tajriba va eksperimentlar orqali o‘rgangan bilimlarini amalda qo‘llashadi.

Misol uchun, biologiya darsida o‘simliklarning o‘sish jarayonini matematik modellar orqali kuzatish va natijalarni grafiklarda ifodalash.

Tadqiqot loyihalari yaratish: O‘quvchilar o‘zlari tadqiqot loyihalarini yaratishadi, bu jarayonda ular yangi fikrlar ishlab chiqish, turli fanlarni birlashtirish, o‘z tadqiqotlarini ilmiy yo‘l bilan asoslashni o‘rganadilar.

STEAM yondashuvining asosiy g‘oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Bunda o‘quvchilar ta’lim jarayonida nafaqat o‘z aqlini, balki qo‘llarini ham ishlatishga majburdirlar. Sinf xonasidagi ta’lim olish jarayoni jadal rivojlanayotgan olam o‘zgarishlaridan ortda qolmoqda. STEAM yondashuvining asosiy xususiyati shundaki, bunda o‘quvchilar ko‘pchilik fanlarni samarali o‘rganishda aqli hamda qo‘llaridan foydalanishadi, bilimlarni mustaqil “egallashadi”. O‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlarida tajribalar o‘tkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, musiqa va filmlarni mustaqil yaratishadi, robotlarni yasashadi, ya’ni o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi.

O‘quvchilar qo‘l mehnati bilan yasalgan biologik ob’yektlar

Tishning tuzilishi



Virusning tuzilishi

Ishchi arining tuzilis



STEAM ta’lim muhitida o‘quvchilar egallagan bilimlaridan o‘sha zahotiyoq amalda foydalanishlari sababli ular ulg‘ayib, voyaga yetgach, real hayotda uchraydigan turli muammolarga duch kelishganida, masalan, atrof-muhit ifloslanishi bo‘ladimi, iqlim o‘zgarishimi, shu kabi murakkab muammolarni yechish uchun faqatgina turli fan sohalari bo‘yicha egallagan o‘z bilimlariga suyanishlari va hamkorlikda ishlashlari zarurligini tushunishadi. Bunda bitta fan doirasidagi

bilimlargagina tayanish yetarli bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, STEAM yondashuvi fikrlash uslubi hamdir.

Masalan, ozon teshiklari muammosiga oid bir qator qarorlarni ishlab chiqish o‘quvchilarning faol muhokamasiga olib keladi:

Avtobusdagi suhbatdan: yozda yomg‘ir raketaning kosmosga uchishi natijasida atmosfera shikastlanishi sababli ozon qavati teshilib yog‘adi.

Ilmiy ommabop jurnalidan: Atmosferaning yuqori qatlamlarining uzoq muddatli kuzatuvlari mavsumda ozon teshiklari va ularning maydonlarining soniga bog‘liqligini ko‘rsatadi: qish oxirida ozon teshiklari ko‘proq va yoz oxirida ancha kamroq bo‘ladi.

Parfyumer do‘koni sotuvchisi: Bu yerda aerozol qadoqli lakni sinab ko‘rmang, nafas olishga havo yo‘q, do‘kon emas, naqd ozon teshigi bu.

O‘quvchi uchun muvaffaqiyat vaziyatini yaratish qiyin deb o‘ylagan mavzuni, fanni o‘zlashtirib o‘zini g‘olib deb his qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi, bu esa o‘rganish va bilimga qiziqishni saqlab qolish uchun zaruriy komponent hisoblanadi. Muvaffaqiyat o‘quvchini ushbu fanni o‘rganishga undaydi. Bundan tashqari, bu muvaffaqiyat ko‘pchilikning kelajakdagi kasbini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta’limda yangi yondashuv qanday paydo bo‘ldi? Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar o‘zlarining bitiruvchilarining karyeralarini rivojlantirishga e’tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi, shuning uchun STEM tashkil etildi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik unga san’at qo‘shildi va STEAM tashkil etildi. O‘qituvchilar, bu fanlarni yoki bu fanlarga oid bilimlarga ega bo‘lish, maktab o‘quvchilarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo‘lishiga yordam beradi deb hisoblaydilar. Natijada o‘quvchilar yaxshi bilim egallash va bilimlarini qo‘llashga harakat qiladilar.

XULOSA:

STEAM yondashuvi orqali nostandart tafakkurni rivojlantirish, o‘quvchilarga turli fanlarni birlashtirish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va ijodiy fikrlashni kengaytirishga yordam beradi. O‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika sohalarini birlashtirgan holda kompleks muammolarni hal qilishga o‘rganadilar, bu esa ularda zamonaviy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

AMALIY ISHLAR

1. Italiyalik shifokor quyidagicha tajriba o‘tkazadi. Uchta shisha idish olib, ularga go‘sht bo‘laklarini joylaydi. Birinchi idishning og‘zini ochiq qoldiradi, ikkinchi idishning og‘zini zich berkitadi. Uchinchi idishni doka bilan yopadi. Vaqt o‘tishi bilan og‘zi ochiq idishdagi go‘shtda tuxum, undan qurtlar paydo bo‘lib, pashsha uchib chiqadi. Og‘zi yopiq idishda va doka tutilgan idishda esa bu jarayon kuzatilmaydi.



9-rasm. Redi tajribasi.

Shisha idishlarni diqqat bilan kuzating.

1. Nima uchun birinchi idishda pashsha hosil bo‘ldi? Birinchi idishdagi qurt qayerdan keldi?
2. Nimaga ikkinchi va uchinchi idishda pashsha hosil bo‘lmadi?
3. Olim biologiyani o‘rganishning qaysi usullaridan foydalandi?
4. Bu tajribadan siz qanday xulosaga keldingiz?

2. 1771-yilda britaniyalik tabiatshunos olim Jozeff Pristli tajriba o‘tkazdi. Ikkita shisha idish ostiga bittadan sichqon qo‘yib, ikkinchi shisha idishga tuvakdagi o‘simlikni ham joylashtirdi. Ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng birinchi idish ostidagi sichqon o‘lib qoldi, ikkinchi idishdagisi esa tirik qoldi.



1.Birinchi idishdagi sichqonning o‘limiga nima sabab bo‘ldi?
2.Nima uchun ikkinchi idishdagi sichqon tirik qoldi?
3.Siz bu tajribadan qanday xulosaga keldingiz?

3. Olimlar tomonidan bir hududdagi quyon va tulkilar soni yillar davomida tekshirilgan. Tekshirish natijalari jadvalga solinganda 75-rasmdagi natija olingan.



75-rasm. Quyon va tulkilar sonining yillar davomida o‘zgarishi.

Jadvalni diqqat bilan ko‘zdan kechiring. Jadval asosida quyidagi savollarga javob yozing?

1. Qaysi yillarda quyonlar soni ko‘paygan?
2. Quyonlarning eng ko‘p va eng kam miqdorini aniqlang.
3. Tulkilar va quyonlar sonining ortishida qanday bog‘liqlik bor?
4. Bu tajribadan qanday xulosa qilish mumkin?

3.4 MODUL
AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL QILISH VA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

1-Mavzu: Biologiya darslarida laboratoriya va amaliy mashg`ulotlarni o`tkazishda zamonaviy yondashuvlar.

Darsning maqsadi:

- Ishtirokchilarga biologiya laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy yondashuvlar haqida nazariy va amaliy bilim berish.
- Zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanishni o‘rganish.
- Qatnashuvchilarning qiziqishini oshiradigan interaktiv faoliyatlarni qo‘llashni o‘rgatish.texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlari rivojlanadi.

Kutilayotgan natijalar:

- Ishtirokchilar zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari va amaliy qo‘llanilishi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishadi.
- Laboratoriya mashg‘ulotlarini interaktiv va samarali qilish uchun yangi usullardan foydalanishni bilib olishadi.
- Amaliy mashg‘ulotlarda texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlari rivojlanadi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR				
O‘quv modul	3.2**. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish**				
Mavzu	Biologiya darslarida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda zamonaviy yondashuvlar				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• Ishtirokchilarga biologiya laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy yondashuvlar haqida nazariy va amaliy bilim berish. • Zamonaviy texnologiya va metodlardan foydalanishni o‘rganish. • Qatnashuvchilarning qiziqishini oshiradigan interaktiv faoliyatlarni qo‘llashni o‘rgatish.texnologiyalardan foydalanish qobiliyatlari rivojlanadi.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2.	"Tanishing!" activity: Har	5	Muammoli		O‘qituvchil

Motivatsiya	bir ishtirokchi o‘z ismi va biologiya darslarida foydalanadigan eng sevimli laboratoriya usulini aytadi.		vaziyat yaratish, muhokama		ar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	**- Prezentatsiya:** Zamonaviy biologiya fanini o‘qitishda laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati haqida ma`lumotlar berish.  - Nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlar tashkil qilish  - O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot usullarini o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish haqida bilimlarga ega bo`lish kabi tushunchalarni - Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda So`rovga Asoslangan Ta`lim (IBL) yondashuvlarini slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	1-ilova	O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	**Tajribani tashkillashtirish va kuzatish** - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; - Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish; - Virtual laboratoriyalardan foydalanish -ma`lumotlar yig`ish va tahlil qilish uchun dasturlardan foydalanish -Interaktiv vositalar: Kahoot, Quizizz plarformalarida bilimni mustahkamlash uchun savollar yaratish	35	Guruhlarda ishlash, platformalardan foydalanish	2-ilova	O‘qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar;	10	Suhbat, muhokama,	3-ilova	O‘qituvchilar o‘z

	- Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;		tahlil		tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	-"Darsimizda siz uchun nima foydali bo`ldi?"  - “Keyingi darslarimizda nimalarni e`tiborga olishimiz kerak?”usuli orqali xulosa qilish - Savol berish, tinglash, fikr-mulohazalarni va harakatlarni modellashtirishni amaliy tajriba orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari		O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Trening rejasi:
Kirish (15 daqiqa)

1. **Treningni ochish va ishtirokchilarni tanishtirish** (5 daqiqa):
    - "Tanishing!" activity: Har bir ishtirokchi o‘z ismi va biologiya darslarida foydalanadigan eng sevimli laboratoriya usulini aytadi.
2. **Treningning maqsad va kutiladigan natijalarini tanishtirish** (5 daqiqa):
    - Prezentatsiya orqali qisqacha tushuntirish.
3. **Ishtirokchilarni faollashtirish** (5 daqiqa):

- **Savol:** "Tasavvur qiling-a, siz 1800-yillardagi olimsiz va hujayra tuzilmalarini o'rganishingiz kerak. Qanday qiyinchiliklarga duch kelishingiz mumkin? Endi tasavvur qiling-a, sizda bugungi texnologiya bor - sizning tajribangiz qanday farq qilishi mumkin?"

Fikrlarni muhokama qilish va doskaga yozish.

II. Asosiy qism (55 daqiqa)

1. **Nazariy qism: Zamonaviy yondashuvlar haqida ma‘ruza** (20 daqiqa):

Prezentatsiya:

Zamonaviy biologiya fanini o‘qitishda laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati katta. Ushbu mashg‘ulotlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot usullarini o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda biologiya ta’limida asosiy so‘rovga asoslangan ta’lim (Inquiry-Based Learning – IBL) laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

5 E modeli asosida So‘rovga asoslangan ta’limning mohiyati

Asosiy so‘rovga asoslangan ta’lim – bu o‘quvchilarni ilmiy jarayonlarga jalb qilish va ular orqali bilim olish jarayonini mustaqil o‘rganishga undovchi pedagogik yondashuvdir. Ushbu usul o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

1. **Muammo qo‘yish**: O‘quvchilar muayyan biologik muammoni aniqlashadi va unga oid savollarni shakllantirishadi.
2. **Tadqiqot o‘tkazish**: Muammoni hal qilish uchun eksperimentlar va kuzatuvlar o‘tkaziladi.
3. **Ma‘lumotlarni tahlil qilish**: Olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali ilmiy xulosalar chiqariladi.
4. **Natijalarni taqdim etish**: Tadqiqot natijalari boshqalarga taqdim etiladi va muhokama qilinadi.

Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda IBL yondashuvi

IBL yondashuvi laboratoriya mashg‘ulotlarini quyidagi bosqichlarda tashkil etishga yordam beradi:

1.ENGAGE (Jalb qilish)

Maqsad: Tinglovchilarning qiziqishini uyg'otadi va oldingi bilimlarni ochib beradi.

So`rov (savol) quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

“Nima uchun ba’zi fermentlar yuqori haroratda ishlashni to‘xtatadi?” kabi o‘ylantiruvchi savolni qo‘ying.

Katalaza reaktsiyasi kabi hodisa yoki video korsatiladi va "Bu reaksiya tezligiga nima ta'sir qilishi mumkin?"

Muhimligi: Qiziqishni uyg'otadi va so'rov uchun zamin yaratadi.

- **Muammoni aniqlash**:

O‘qituvchi dars boshida biologik mavzuga oid dolzarb muammoni taqdim etadi.

Masalan, Fermentlar faolligiga ta`sir qiladigan omillar haqida savol qo`yadi: *“Reaksiya tezligiga nima ta'sir qiladi?" yoki “Fermentlar tomonidan boshqariladigan reaksiya tezligiga harorat qanday ta'sir qiladi?"*

- **Farazlarni ilgari surish**:

O‘quvchilar muammoni hal qilish uchun o‘z farazlarini bildiradilar.

Masalan: “Fermentlar iliq suvda yaxshi ishlaydi, sovuq suvda esa sekinroq ishlaydi.”

2.EXPLORE (Tadqiq qilish)

Maqsad: Tinglovchilarga savol yoki muammoni tekshirish uchun amaliy imkoniyatlarni taqdim etadi.

So'rov amalda:

-Tinglovchilar pH yoki harorat ferment faolligiga qanday ta'sir qilishini sinab ko'rish kabi tajribalarni loyihalash va o'tkazish uchun guruhlarda ishlaydi.

-Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, mustaqil tadqiqotni rag'batlantirish.

Muhimligi: o‘quvchilarning amalda o‘rganishi davomida faol ishtirok etish va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

- **Eksperiment rejasini tuzish**:
  a. O‘quvchilar mustaqil ravishda yoki kichik guruhlarda tajribalarni qanday o‘tkazishni rejalashtiradilar.
  b. Zarur materiallar va uskunalar ro‘yxati tuziladi.

  -sof katalaza manbai (masalan, kartoshka, jigar yoki xamirturush eritmasi)

-Vodorod peroksid (H_2O_2)

-Test naychalari yoki kichik shisha idishlar

-Suv hammomi (turli xil temperaturada)

-Termometr

-sekundomer

-o`lchovli idish

- **Tadqiqotni amalga oshirish**:

-O‘quvchilar tajribalarni o‘tkazadilar va kuzatuvlar olib boradilar.

-Masalan, haroratning katalaza fermentiga ta`sirini tajriba orqali o`rganadilar.

3. EXPLAIN (Tushuntirish)

Maqsad: Tinglovchilar topilmalarni tahlil qilish va ularni ilmiy tushunchalar bilan bog'lashda tushunishni osonlashtiradi.

So'rov amalda:

-Tinglovchilar ularning natijalarini muhokama qiladilar va ularni metabolizmdagi katalazaning roli kabi biologik nazariyalar bilan bog'laydilar.

-O'qituvchi noto'g'ri tushunchalarni aniqlaydi va qo'shimcha ma`lumotlarni taqdim etadi.

-**Muhimligi:** hamkorlikda o'rganish va bilimlarni qurishga yordam beradi.

4. **ELOBRATE (Tadbiq qilish)**

Maqsad: o'rganishni yangi vaziyatlarda qo'llash yoki tegishli muammolarni hal qilish orqali kengaytiradi.

So'rov amalda:

-Tinglovchilar katalaza faolligi organizmlar o'rtasida qanday farq qilishini o'rganishlari yoki atrof-muhit o'zgarishlarining ferment samaradorligiga ta'sirini taxmin qilishlari mumkin.

Gomeostaz yoki moslashish kabi kengroq biologik mavzular bilan aloqalarini bog`lagan misollarni taqdim qilish.

Muhimligi: o'rganishni kuchaytiradi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.

5. EVALUATE (Baholash)
Maqsad: so'rov jarayonini tushunish va samaradorligini baholaydi.

So'rov amalda:

-Qatnashuvchilar o'z xulosalarini hisobot, grafik yoki og'zaki taqdimotda taqdim etadilar.

-O'qituvchi kontent bilimini ham, so'rov ko'nikmalarini ham baholaydilar (masalan, gipotezani shakllantirish, ma'lumotlarni tahlil qilish).

Muhimligi: Qatnashuvchilarga o'z o'rganishlari haqida fikr yuritishga yordam beradi va takomillashtirish uchun fikr-mulohazalarni beradi.

- **Ma‘lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish**:
  Olingan natijalarni grafik va jadval ko‘rinishida tahlil qiladilar.

Xulosa: “Temperaturaning optimal holati katalaza fermentining faolligini oshiradi.”

- **Natijalarni taqdim etish** (15 min)
  Qatnashuvchilar o‘z tadqiqot natijalarini boshqa qatnashuvchilarga taqdim etadilar.

  Bu jarayon tanqidiy fikrlash va ilmiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

6. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash

Asosiy so‘rovga asoslangan ta’limni samarali tashkil etishda quyidagi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash mumkin:

- **Virtual laboratoriyalar**:

  Simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar murakkab tajribalarni xavfsiz sharoitda o‘rganishlari mumkin.

  Masalan, fotosintez yoki hujayra bo‘linishini virtual muhitda kuzatish.

- **Ma‘lumotlar yig‘ish va tahlil qilish uchun dasturlar**:

  -Sensorlar va ilovalar orqali aniq ma‘lumotlarni yig‘ish.

  -Excel yoki Google Sheets yordamida natijalarni tahlil qilish.

- **Interaktiv vositalar**:

  -Kahoot, Quizizz kabi platformalarda bilimni mustahkamlash uchun savollar yaratish.

Xulosa (5min)

Zamonaviy biologiya ta‘limida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni asosiy so‘rovga asoslangan ta‘lim tamoyillari orqali tashkil etish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar biologik jarayonlarni chuqurroq tushunishlari, mustaqil tadqiqot ko‘nikmalarini egallashlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matthew Broderic, Biology for Cambridge IGCSE practical workbook.// Cambridge University Press 2021,
2. Mary Jones & Geoff Jones, Biology for Cambridge IGCSE coursebook// Cambridge University Press 2021
3. Mary Jones and Matthew Parkin, Cambridge International AS & A level biology coursebook//Cambridge University 2016
4. Mary Jones and Matthew Parkin, Cambridge International AS & A level biology workbook//Cambridge University 2016
5. Mary Jones and Matthew Parkin, Cambridge International AS & A level biology practical//Cambridge University 2016

2-Mavzu: Laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish orqali o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

2-slayd

Darsning maqsadi:

 O‘quvchilarda laboratoriya mashg‘ulotlari orqali mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
 Nazariy bilimlarni amaliy qo‘llashga o‘rgatish.
 O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kuzatish, eksperimentlarni rejalashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar:

- O‘quvchilar ilmiy uslub asosida muammolarni aniqlash va hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.
- Laboratoriya jihozlari bilan ishlash bo‘yicha texnik malakalarni egallaydi.

- Kuzatuv va tahlil natijalarini ilmiy ravishda taqdim eta olishni o‘rganadi.
- O‘quvchilarda tadqiqotchilik madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR				
O‘quv modul	3.2**. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish**				
Mavzu	•Laboratoriya mashg‘ulotlarni o‘tkazish orqali o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish •Nazariy bilimlarni amaliy qo‘llashga o‘rgatish. •O‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kuzatish, eksperimentlarni rejalashtirish va ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• Biologiya fanidan laboratoriya ishlarini samarali rejalashtirish, bajarish va baholash orqali o`quvchilarning tadqiqot ko`nikmalarini va tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	“Tasavvur qiling-a, siz tropik tropik o'rmondagi olimsiz va to'satdan o`simlikka tegib ketdingiz. O`simlik barglarini yopib qo'ydi. Nega bunday bo`ldi? Sizning vazifangiz buni aniqlashdir! ”  Qatnashuvchilar o`z fikrlarini boshqalar bilan ulashadilar.	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama		- O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi. Mavzudan tashqari fikrlashga harakat qilishadi. - qatnashuvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va

					tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. -biologiya fanidagi laboratoriya mashg‘ulotlari qatnashuvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini yaratadi - ularning ilmiy qiziqishlarini rag‘batlantiradi.
3. Nazariy qism	- **Prezentatsiya:** Nima uchun tadqiqotchilikni rivjlantirish kerak? Mavzususi bo`yicha quyidagilar muhokama qilinadi. -Ilmiy bilimlarga hissa qo`shish -Amaliy ko`nikmalarni shakllantirish -Ijodkorlikni rag`batlantirish -Jamoaviy ishlash qobilatini rivojlantirish -Kelajakdagi muvaffaqiyat uchun asos yaratish *Tanqidiy fikrlash bo`yicha guruhlarga topshiriq berish* “Antibiotiklarni notog`ri ishlatish sizni va boshqalarni havf ostiga qo`yadi” mavzusi bo`yicha topshiriq muhokama	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	1-ilova	O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi.

	qilinadi.				
4. Amaliy mashg‘ulot	**Tajribani tashkillashtirish va kuzatish** - Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; - Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish; - Virtual laboratoriyalardan foydalanish -ma`lumotlar yig`ish va taxlil qilish uchun dasturlardan foydalanish -Interaktiv vositalar: Kahoot, Quizizz plarformalarida bilimni mustahkamlash uchun savollar yaratish	35	Guruhlarda ishlash, platformalardan foydalanish	2-ilova	O‘qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	10	Suhbat, muhokama, tahlil	3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	-Nima deb o`ylaysiz bugun bajargan laboratoriyangiz siz uchun qanday qiyinchilklar tug`dirdi. Bugun darsda siz uchun esda qolarli 2 ta holatga misol keltiring. - Savol berish, tinglash, fikr-mulohazalarni va harakatlarni modellashtirishni amaliy tajriba orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari		O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

3-slayd

Jalb qilish:

Savol: Tasavvur qiling-a, siz tropik tropik o'rmondagi olimsiz va to'satdan o`simlikka tegib ketdingiz. O`simlik barglarini yopib qo'ydi. Nega bunday bo`ldi? Sizning vazifangiz buni aniqlashdir! ”

Guruhlar turli manbalardan foydalanib, bu savolga javob berishadi.

4-slayd

Qiziqish- tanqidiy fikrlash va innovatsiyalar hosil bo`lishini ilhomlantiradi

Hozirgi zamon ta’lim tizimining asosiy maqsadi - o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirishdan iborat. Biologiya fanidagi laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini yaratib, ularning ilmiy qiziqishlarini rag‘batlantiradi.

5-slayd

1. Muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish

Tadqiqot qobiliyatlari orqali Tinglovchilar murakkab muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topish ko‘nikmasini o‘rganadi. Bu nafaqat akademik, balki kundalik hayotda ham foydali bo‘ladi.

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Tadqiqot jarayonida Tinglovchilar ma’lumotlarni tahlil qilish, haqiqatni tanlash va xulosalar chiqarishni o‘rganadi. Bu ularga har qanday sohada mustaqil va asoslangan fikrlash imkonini beradi.

3. Ilmiy bilimlarga hissa qo‘shish

Yangi bilimlarni kashf etish va mavjud bilimlarni rivojlantirish tadqiqotchilikning asosiy maqsadidir. Tinglovchilarning kichik ilmiy ishlari ham katta kashfiyotlarning poydevori bo‘lishi mumkin.

4. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish

Laboratoriya va amaliy tadqiqotlarda ishtirok etish orqali Tinglovchilar ilmiy usullar, asbob-uskunalar va texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganadi. Bu ularning kasbiy mahoratini oshiradi.

5. Ijodkorlikni rag‘batlantirish

Tadqiqotchilik Tinglovchilarni yangi g‘oyalar yaratishga, o‘zini qiziqtirgan savollarga javob topishga va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga undaydi.

6. Jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirish

Tadqiqot koʻpincha jamoada olib boriladi. Bu esa Tinglovchilarni muloqot qilish, maqsad sari birgalikda ishlash va oʻz hissasini qoʻshishga oʻrgatadi.

7. Kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun asos yaratish

Tadqiqot tajribasi Tinglovchilar uchun oliy ta’lim, ilmiy faoliyat yoki kasbiy hayotda muhim raqobat ustunligini ta’minlaydi.

6 slayd

Tadqiqotchilikni rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalari:

Maqsad

Laboratoriya mashgʻulotlarida tadqiqotchilik koʻnikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi:

1. Oʻquvchilarga ilmiy tadqiqot usullarini oʻrgatish.
2. Amaliy koʻnikmalarni shakllantirish.
3. Mavjud bilimlarni yangi sharoitlarda qoʻllashga oʻrgatish.
4. Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Vazifalar:

- Tadqiqot jarayonida kuzatish, ma’lumot toʻplash va tahlil qilish.
- Tajriba natijalarini tizimli ravishda qayd etish.
- Xulosalar chiqarish va ilmiy munozaralarda ishtirok etish.

7 slayd

Faoliyat va topshiriqlar

Muammoli topshiriq: Antibiotiklarni noto'g'ri ishlatish sizni va boshqalarni xavf ostiga qo'yadi.



1-ilovada to`liq berilgan

Guruhlar muhokamasi va taqdimoti:

1 guruh uchun savol: Turlarning paydo bo`lishi tushunchasidan va yuqoridagi rasmdan foydalanib, bu rasmdagi jarayon qanday sodir bo'lishini tushuntirib bering?

2-guruh savol: Antibiotiklarni noto'g'ri ishlatish yoki haddan tashqari ishlatish antibiotiklarga qarshilik ko'rsatadigan asosiy omillarmi?

3-guruh uchun savol: Aytaylik siz davolanishning 4-kunida, o'zingizni ancha yaxshi his qilganingizda, davolanishni to'xtatishga qaror qildingiz. Bunday qilish yaxshi emas.Nima uchun bu yaxshi fikr emas deb o'ylaysiz? Iltimos, batafsil tushuntirib bering.

8-9 slaydlar

Laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi bosqichlarga amal qilish zarur:

1. **Tayyorlov bosqichi:**

   - Maqsad va vazifalarni belgilash.
   - Zarur jihozlar va materiallarni tayyorlash.
   - O‘quvchilarga topshiriqlarni tushuntirish.

2. Amaliy bosqich:

   - Tadqiqot usulini tanlash va uni bajarish.

- Kuzatishlar va o‘lchovlarni amalga oshirish.
- Natijalarni qayd etish.

- **Tahlil va muhokama bosqichi:**
  - Olingan natijalarni tahlil qilish.
  - Guruh bo‘lib xulosalar chiqarish.
  - Topilgan yechimlarni taqdimot qilish.
- **Kuzatish ko‘nikmasini rivojlantirish:**
  - Misol: O‘simliklarning fotosintez jarayonini kuzatish.
  - Topshiriq: Turli yorug‘lik sharoitida o‘simlik barglarining rangi va shaklidagi o‘zgarishlarni qayd etish.
- **Eksperiment o‘tkazish ko‘nikmasi:**
  - Misol: Har xil tuproq turlarining suvni o‘tkazuvchanlik darajasini aniqlash.
  - Topshiriq: Tuproq namunasida suv miqdorini o‘lchash va natijalarni taqqoslash.
- **Ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish:**
  - Misol: Suv o‘simliklarining o‘sishiga suvning turli kimyoviy tarkibining ta’siri.
  - Topshiriq: Turli sharoitlarda o‘simlik o‘sishining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va grafiklar chizish.

Harorat suvning ismaloq poyasining ksilemasi orqali qanchalik tez harakatlanishiga

ta'sir qilishini o'lch tajribasi

9-slayd

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari nima?

Tadqiqotchilik ko‘nikmalari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- **Kuzatish:** Hodisalarni aniqlash va ularni tahlil qilish.
- **Muammo qo‘yish:** Mavjud muammoni belgilash va uni hal qilish usullarini taklif qilish.
- **Eksperiment o‘tkazish:** Tajriba orqali muammolarni hal qilish.
- **Ma’lumotlarni tahlil qilish:** Yig‘ilgan ma’lumotlarni strukturaviy va statistik jihatdan baholash.
- **Xulosa chiqarish:** Olingan natijalarni umumlashtirish va nazariy bilimlar bilan bog‘lash.

10-slayd

Kerakli jihozlar:

- Rang beruvchi bo`yoq
- Ismaloq poyasi-3 ta
- Skalpel yoki pichoq
- Rang beruvchi bo`yoq
- Ismaloq poyasi-3 ta
- Skalpel yoki pichoq
- Sekundomer
- Qog`oz salfetka
- Suv

12 slayd

Laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish usullari

1. **Muammo markazli yondashuv:** Har bir laboratoriya mashg‘uloti muammoli vaziyatni hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Misol uchun, o‘quvchilar tuproq namunasini tahlil qilib, undagi minerallar miqdorini aniqlash orqali uning qishloq xo‘jaligi uchun mosligini baholashlari mumkin.
2. **Eksperimental o‘qitish:** O‘quvchilar mustaqil ravishda eksperiment o‘tkazib, natijalarni qayd etish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Masalan, fotosintez jarayoniga yorug‘lik ta’sirini o‘rganish uchun o‘simliklarni turli yorug‘lik sharoitlarida kuzatish.
3. **Jamoaviy ish:** Guruhli faoliyatlar orqali o‘quvchilar birgalikda ishlash, o‘zaro fikr almashish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishni o‘rganadilar.
4. **Texnologiyalarni qo‘llash:** Zamonaviy laboratoriya uskunalari va dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarni ilmiy izlanishlarga yaqinlashtiradi. Masalan, mikroskop orqali hujayra tuzilishini o‘rganish.

1. Ismaloq poyasini 10 sm dan qilib kesing

2. 250 sm3li shisha idishga suv soling va suvga bir qancha tomchi boyoqli suvdan tomizing. Suv haroratini o`lchab, jadvalga qayd qiling

3. 250 sm3li shisha idishga 100 ml muzli suv soling va yana rangli bo`yoqdan bir necha tomchi tomizing.

4. 250 sm3 li shisha idishga choynakda qaynatib issiq suv soling va rangli bo`yoqdan tomizing. Haroratini o`lchab, jadvalga qayd qiling.

5. 3 ta kesilgan ismaloq poyalaridan har bittasini shisha idishlarga bir vaqtda soling.

6. 10 minutdan keyin, har bir ismaloq poyalarini idishlardan olin qog`oz salfetkaga qo`ying.

7. Skalpel yoki pichoqdan foydalanib ismaloq poyalarini kesing. Bo`yoq harakati tamom bo`lgan joygacha kesishda davom qiling.

15 slayd

Harorat (°C)	Eritmaning ksilema bo'yl harakatlanish masofasi (s	O'rtacha masofa (sm)
10	2.1, 2.0, 1.9	2.0
20-25	3.5, 3.4, 3.6	3.5
30	5, 4.8, 4.9	4.9
50	6.8, 6.7, 6.9	6.7

Natijalarni tahlil qilish:

1. Haroratning ortishi bilan eritma ksilema orqali tezroq harakat qilishini aniqlang.
2. Ma'lumotlardan foydalanib grafik chizing (x o'qi - harorat, y o'qi - masofa).
3. Grafik orqali suvning harakatlanish tezligi va harorat o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiling.

Xulosa:

- Haroratning ta'sirini tushuntiring.
- Eritmaning ksilema orqali harakatlanishi qanday fiziologik jarayonlar bilan bog'liqligini muhokama qiling (masalan, transpiratsiya va osmotik bosim).

18-SLAYD

Baholash va refleksiya

“3-2-1” metodi:

1.3 ta o‘rganilgan asosiy narsa;
2.2 ta savol;
3.1 ta qiziq bo‘lgan jihatni yozish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6.Matthew Broderic, Biology for Cambridge IGCSE practical workbook.// Cambridge University Press 2021,
7.Mary Jones & Geoff Jones, Biology for Cambridge IGCSE coursebook// Cambridge University Press 2021

8.Mary Jones and Matthew Parkin, Cambridge International AS & A level biology coursebook//Cambridge University 2016
9.Mary Jones and Matthew Parkin, Cambridge International AS & A level biology workbook//Cambridge University 2016
10.Mary Jones and Matthew Parkin, Cambridge International AS & A level biology practical//Cambridge University 2016

Elektron ta’lim resurslari

1.https://onlinedu.uz/
2.https://avloniy.uz/uz
3.https://www.oecd.org/
4.http://www.gov.uz
5.https://www.uzedu.uz/
6.https://www.bimm.uz/ru
7.Save my exam// https://www.savemyexams.com/login/
8. Eduaide AI// https://www.eduaide.ai/app/generator
9. Chat GPT AI// https://chatgpt.com/

3-Mavzu: Darslarda ta’limning raqamli amaliy dasturlari va onlayn resurslaridan foydalanish.

Trening maqsadi:

- O‘qituvchilarni raqamli vositalar va onlayn resurslardan samarali foydalanishga o‘rgatish.
- Amaliy dasturlarni darslarga integratsiya qilishni ko‘rsatish.
- Ishtirokchilarning raqamli savodxonligini oshirish.

Kutiladigan natijalar:

- Ishtirokchilar ta’limda foydalanish uchun 2-3 ta yangi raqamli platforma va resurslarni bilib oladi.
- Qanday qilib ushbu vositalarni o‘z fanlariga moslashtirishni tushunadilar.
- Raqamli vositalarni dars rejasiga kiritish amaliyotini o‘zlashtiradilar.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR
2.Ushbu hodisa qaysi ilmiy printsip asosida tushuntiriladi?

Tahlil:

- Savol ilmiy tushunchalarni real hayotda qo‘llash qobiliyatini baholaydi.
- O‘quvchilarning fizika va kimyo bo‘yicha bilimlari tahlil qilinadi.

Tabiiy savodxonlikka qaratilgan topshiriqlarga kognitiv talablar

Tabiiy savodxonlikka qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarning ilmiy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini baholash uchun yaratiladi. Ushbu topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlash uchun uch asosiy kognitiv talab hisobga olinadi:

Qo‘llash: Bu talab o‘quvchilardan nazariy bilimlarini real vaziyatlarda amaliy qo‘llashni talab qiladi. Masalan, Biologik reaksiya haqida o‘rganilgan bilimlarni atrof-muhit bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun ishlatish.
Misol: Tog‘li hududlarda suvning qaynash haroratini tushuntirish yoki suv resurslarini tejash bo‘yicha yechim taklif qilish.

Mantiqiy tahlil: Ushbu talab o‘quvchilarning berilgan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash va ilmiy dalillarni to‘g‘ri tushuntirish qobiliyatini baholaydi.
Misol: Ozon qatlamining yemirilishi va iqlim o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish.

Baholash: Bu bosqichda o‘quvchilar mavjud ma’lumot va yechimlarni tanqidiy baholaydi, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlaydi hamda asosli qarorlar qabul qiladi.

Misol: Muqobil energiya manbalarining ekologik xavfsizligini baholash yoki turli biologik moddalar inson salomatligiga ta’sirini tahlil qilish.

Kognitiv talablar tabiiy savodxonlik topshiriqlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ushbu talablar o‘quvchilarning nafaqat ilmiy bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularni hayotiy masalalarni hal qilishga qaratilgan qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ergasheva M. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 167 b.

2.Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2023-yil.

3.Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘aeva G. Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2020 yil, 14,85 bosma taboq.

4.Ergasheva M., Pardayeva M., Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022-yil.

5.Ergasheva M., Pardayeva M., Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022-yil.

6.Ismailov A., Ergasheva M., Azamatova D. O‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish metodlari. O‘quv qo‘llanma.2024-yil,183 б.

3- mavzu. Tabiiy savodxonlikni baholashga qaratilgan topshiriqlar

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Reja:

1.Blum taksonomiyasi.

2.Fikrlashga qaratilgan savollar tuzish.

3.Raqamli dunyoda o‘rganishning ahamiyati.

4.Tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va yondashuvni farqlash.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Biologiya fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**
O‘quv modul	3.5. “Biologiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash va xalqaro tadqiqotlar” modulining o‘quv dasturi
Mavzu	Tabiiy savodxonlikni baholashga qaratilgan topshiriqlar

Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	•O‘qituvchilarga Blum taksonomiyasi asosida topshiriqlar tuzishning, raqamli dunyoda o‘rganishning ahamiyatini tushuntirish; •O‘qituvchilarning tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va yondashuvni farqlash, fikrlashga qaratilgan savollar tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	-O‘qituvchilarga Blum taksonomiyasi asosida topshiriqlar tuzishning, raqamli dunyoda o‘rganishning ahamiyatini tushuntirish; - O‘qituvchilarning tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va yondashuvni farqlash, fikrlashga qaratilgan savollar tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-11-slaydlar	O‘qituvchilar Blum taksonomiyasi asosida topshiriqlar tuzishning, raqamli dunyoda o‘rganishning ahamiyatini nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga Blum taksonomiyasi asosida topshiriq tuzish vazifasi berish.	35	Guruhlarda ishlash	1-tarqatma; 12-13-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muho-kama qilish; - Mashg‘ulot	10	Suhbat, muhokama, tahlil	14-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi

	jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish				g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	15-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	16-17-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Kirish

Tabiiy savodxonlikni baholashga qaratilgan topshiriqlar o‘quvchilarning zamonaviy ilmiy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, tahlil qilish va turli qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu topshiriqlar orqali o‘quvchilar nafaqat ilmiy bilimlarga ega bo‘lishadi, balki ulardan amalda foydalanish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar.

1.Blum taksonomiyasi

Blum taksonomiyasi — ta’lim sohasida keng qo‘llaniladigan nazariy yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning turli darajalarini aniqlash va baholashga qaratilgan. Ushbu taksonomiya ta’lim jarayonini yanada samarali rejalashtirish, o‘quvchilarning fikrlash darajasini tahlil qilish va yuqori darajadagi bilimlarni shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Blum taksonomiyasi kognitiv soha uchun oltita asosiy darajani taklif etadi. Har bir daraja o‘ziga xos qobiliyat va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:

1.**Bilim (Knowledge):**

Asosiy tushunchalar, faktlar va ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tiklash qobiliyati.

Savollar: “Kim?, Qachon?, Qayerda?”

Masalan: “Suvning formulasini aytib bering.”

2.**Tushunish (Comprehension):**

Ma’lumotlarni tushunish, izohlash va o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalash.
Savollar: “Nima uchun?, Qanday qilib?”
Masalan: “Molekulalar harakati bilan haroratning o‘zgarishi orasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.”

3.**Qo‘llash (Application):**

Bilimlarni yangi vaziyatlarda yoki muammolarni yechishda qo‘llash qobiliyati.
Savollar: “Qanday qilib?, Qayerda qo‘llash mumkin?”
Misol: “Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib, moddiy energetik balansni hisoblang.”

4.**Tahlil (Analysis):**

Murakkab ma’lumotlarni qismlarga ajratish va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.
Savollar: “Nega?, Qanday qilib bog‘liq?”
Misol: “Neftning qayta ishlanish jarayonini bosqichlarga ajratib tahlil qiling.”

5.**Sintez (Synthesis):**

Turli qismlarni bir butun tizimga birlashtirish, yangi g‘oyalar yaratish.
Savollar: “Qanday yangi yechim taklif qilishingiz mumkin?”
Misol: “Atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha innovatsion loyiha yarating.”

6.**Baholash (Evaluation):**

Ma’lumotlarni tanqidiy baholash, ularning qiymati va samaradorligini aniqlash.
Savollar: “Bu g‘oya nega to‘g‘ri?, Nima uchun qabul qilinmas?”
Misol: “Issiqxona gazlarini kamaytirish strategiyalarini baholang.”

Blum taksonomiyasining ahamiyati

1.**Ta’limning maqsadini belgilash:** har bir dars yoki mavzu uchun aniq kognitiv maqsadlarni belgilash imkonini beradi.

2.**O‘quvchilarni baholash:** turli darajadagi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning bilimlarini keng qamrovli baholashga yordam beradi.

3.**Fikrni rivojlantirish:** oddiy eslab qolishdan tortib murakkab muammolarni hal qilishgacha bo‘lgan fikrlash jarayonlarini shakllantiradi.

4.**Moslashuvchanlik:** har qanday fan va ta’lim darajasi uchun mos keladi.

Darslarda qo‘llash

Biologiya darsida: O‘quvchilar molekula tuzilishini eslab qolib (bilim), uni izohlashadi (tushunish), turli moddalar uchun tuzilmani chizadilar (qo‘llash), va ular orasidagi farqlarni aniqlaydilar (tahlil). Keyinchalik ular yangi Biologiya viy birikmalar yaratishadi (sintez) va yaratilgan moddalarni baholashadi (baholash).

Tabiiy savodxonlik topshiriqlarida: O‘quvchilar ekologik masalalarni o‘rganib, muammoning sabablari va oqibatlarini aniqlashadi (tahlil), yangi yechimlar ishlab chiqadilar (sintez) va ularning amaliy ahamiyatini baholaydilar (baholash).

Blum taksonomiyasi o‘quv jarayonini optimallashtirish va o‘quvchilarning bilim darajalarini rivojlantirish uchun samarali vositadir. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarga ta’limni bosqichma-bosqich shakllantirish va o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

2. Fikrlashga qaratilgan savollar tuzish.

Savollar ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Fikrlashga qaratilgan savollar esa o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, mantiqiy tahlil, ijodkorlik va tanqidiy yondashuvni talab qiladi.

Fikrlashga qaratilgan savollarning ahamiyati

1.**Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:** O‘quvchilarni muammolarni yechishga undaydi.

2.**Ijodkorlikni rag‘batlantirish:** Yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

3.**Chuqur tahlil qobiliyati:** Ma’lumotlarni chuqur o‘rganishga yordam beradi.

4.**O‘z-o‘zini nazorat qilish:** O‘quvchilarga o‘z bilimlarini baholash va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Savollarning turlari

Fikrlashga qaratilgan savollar turli darajalar va ko‘nikmalarni shakllantirishga mo‘ljallangan bo‘lib, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1.**Bilimni tekshirishga qaratilgan savollar:**

Asosiy tushunchalar va ma’lumotlarni aniqlash: “Hujayraning tuzilishi qanday?”

2.**Tushunchani tahlil qilish savollari:**

Berilgan ma’lumotni izohlash va yangi ma’lumot bilan bog‘lash: “Nima uchun suvning tuzilishi uni yaxshi erituvchi qiladi?”

3. **Qo‘llashga qaratilgan savollar:** Bilimlarni real hayotga tatbiq etish: “Elektron qurilmalarda energiya tejash uchun qanday materiallardan foydalanish mumkin?”

4. **Tahliliy savollar:** Murakkab ma’lumotlarni qismlarga ajratish va o‘zaro bog‘liqligini aniqlash: “Iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga ta’siri qanday?”

5. **Sintez savollari:** Yangi g‘oya va yechimlarni shakllantirishga qaratilgan: “Atrof-muhitni saqlash uchun qanday yangi texnologiyalarni joriy qilish mumkin?”

6. **Baholash savollari:** Muqobil fikrlarni tanqidiy baholash va qaror qabul qilish: “Qayta tiklanadigan energiya manbalarining afzalliklari va kamchiliklarini baholang.”

Savol tuzishda blum taksonomiyasining o‘rni

Blum taksonomiyasidan foydalangan holda, savollarni yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga qarab tuzish mumkin. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarni bilimdan ijodkorlik va baholashga qadar rivojlantirish mumkin:

1.**Oddiydan murakkabga:**

Bilim → Tushunish → Qo‘llash → Tahlil → Sintez → Baholash.

2.**Muammodan boshlash:** Muammoni aniqlash va tahlil qilish uchun darhol yuqori darajadagi savollarni berish.

Darsda qo‘llash uchun misollari

1.**Tabiiy fanlarda:**

Savol: “Qanday qilib karbonat angidrid miqdorini kamaytirish mumkin?”

Kutilgan natija: O‘quvchilar atrof-muhit muammolarini tahlil qiladi va yechimlar taklif qiladi.

2.**Ijtimoiy Fanlarda:**

Savol: “Texnologiya rivojlanishi ijtimoiy hayotga qanday ta’sir qiladi?”

Kutilgan natija: O‘quvchilar jamiyat va texnologiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi.

3.**Matematika Fanida:**

Savol: “Ushbu tenglamaning yechimi real hayotda qayerda qo‘llanilishi mumkin?”

Kutilgan natija: O‘quvchilar matematik bilimlarni amaliyotga tatbiq etadi.

Savol tuzish bo‘yicha tavsiyalar

1.**Aniq va tushunarli bo‘lish:** Savol mazmuni o‘quvchilarga aniq bo‘lishi lozim.

2.**Ochiq savollar:** Javob uchun keng imkoniyat beruvchi savollarni shakllantirish.

3.**Kontekstga moslashtirish:** Savollar real vaziyatlarga mos bo‘lishi kerak.

4.**Rivojlantiruvchi savollar:** O‘quvchilarning qiziqishini oshiruvchi va ijodkorligini rag‘batlantiruvchi savollar berish.

Fikrlashga qaratilgan savollar ta’lim jarayonida chuqur o‘zlashtirish va ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘z

darslarida ushbu yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning turli fikrlash darajalarini rivojlantirishlari mumkin. Shunday qilib, mazmunli va samarali savollar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Raqamli dunyoda o‘rganishning ahamiyati.

PISA tadqiqotlarida raqamli dunyoda o‘rganish masalalari ko‘plab muhim jihatlarni qamrab oladi. Raqamli ta'lim jarayonida o‘quvchilarni baholash va ularning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bir qator masalalar mavjud. Quyida PISA tadqiqotlarida raqamli o‘rganish bilan bog‘liq muammolar va masalalar keltirilgan:

1. Raqamli ko‘nikmalarni baholash. Raqamli ko‘nikmalarning to‘g‘ri va aniq baholanmasligi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini pasaytirishi mumkin. O‘quvchilarning ma’lumotlarni tahlil qilish, ishlatish va samarali taqdim etish ko‘nikmalarini baholashning muammolari.

2. Ma’lumotlarga kirish imkoniyati. Barcha o‘quvchilarning raqamli resurslarga kirish imkoniyati bo‘lmasligi, bu esa ta’limdagi tengsizliklarga olib kelishi mumkin. Maktablar va o‘quvchilar o‘rtasida texnologik imkoniyatlarning farqlanishi.

3. Motivatsiya va ishtirok etish. Raqamli dunyoda o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini saqlash va oshirish masalalari. Interaktiv ta’lim muhitining yetishmasligi va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash qiyinchiliklari.

4. O‘qituvchilarning tayyorgarligi. O‘qituvchilarning raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakasining yetarli emasligi. Ta’lim jarayonida yangi texnologiyalar va metodlarni qo‘llashda o‘qituvchilarni tayyorlash masalalari.

5. Axborot miqdorining ko‘pligi. Internetda mavjud bo‘lgan axborotlar ko‘pligi sababli, o‘quvchilar kerakli ma’lumotni aniqlash va baholashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Noto‘g‘ri yoki ishonchli bo‘lmagan ma’lumotlar bilan ishlash xavfi.

6. Kiberxavfsizlik. Onlayn ta’lim jarayonida kiberxavfsizlik masalalari va o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish zarurati. O‘quvchilarni kiberhujumlar va nojo‘ya vaziyatlarga tayyorlash muammolari.

7. Raqamli ta’limning ijtimoiy va madaniy konteksti. Raqamli ta’lim muhitida ijtimoiy va madaniy farqlanishlar, bu esa o‘quvchilar o‘rtasida ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Turli madaniyat va ijtimoiy qatlamlarga ega bo‘lgan o‘quvchilarning raqamli ta’limdan foydalanish qiyinchiliklari.

Raqamli dunyoda o‘rganish jarayonidagi muammolarni hal qilish uchun quyidagi strategiyalarni amalga oshirish mumkin:

1. Axborotni baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘quvchilarga ishonchli manbalarni aniqlash va tahlil qilishni o‘rgatish. Ma’lumotlarni tanqidiy fikrlash orqali qayta ishlashni rag‘batlantirish.

2. Texnologik infratuzilmani yaxshilash. O‘quvchilar uchun zarur texnologik vositalar va internet ulanishini ta’minlash. Maktablarda raqamli qurilmalar va

platformalar bilan ta’minlash orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilarni qulay sharoitlarda ta’lim olishlariga imkon yaratish.

3. Motivatsiyani oshirish. O‘quvchilarni qiziqtiradigan interaktiv va ijodiy ta’lim metodlarini qo‘llash. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

4. Interaktiv va hamkorlikka asoslangan ta’lim. Onlayn muhokamalar, forumlar va guruh ishlarini rag‘batlantirish orqali o‘quvchilar orasida faol aloqani oshirish. Ta’lim jarayonida jamoaviy loyihalarni amalga oshirish orqali hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

5. O‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish. O‘qituvchilarni raqamli ta’lim metodlari va texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tayyorlash. Professional rivojlanish dasturlari orqali o‘qituvchilarni yangi strategiyalar va yondashuvlar bilan tanishtirish.

6. O‘z-o‘zini o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash. O‘quvchilarga vaqtni samarali boshqarish va o‘rganish jarayonini rejalashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarni o‘rgatish. Mustaqil o‘rganish va muammolarni hal qilishda yordam beruvchi resurslar bilan ta’minlash.

7. Kiberxavfsizlikni ta’minlash. O‘quvchilarga onlayn xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish haqida ma’lumot berish. Maktab va ta’lim muassasalarida xavfsiz onlayn muhit yaratish uchun zarur choralarni ko‘rish.

O‘quvchilarning ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari ularni zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarni analitik fikrlashga, ijodiy yondashuvga va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga undaydi. Ta’lim jarayonida bu ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar va metodlar muhimdir. Raqamli dunyoda o‘rganish jarayonidagi muammolarni hal qilish uchun ta’lim tizimlari, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Ushbu strategiyalar orqali o‘quvchilarning raqamli o‘rganish tajribasini yanada samarali va qiziqarli qilish mumkin.

4. Tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va yondashuvni farqlash.

Tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda bilim, ko‘nikma va yondashuvni farqlash uchun quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish mumkin:

Bilim — bu o‘rganilgan faktlar, nazariyalar va printsiplardir. Tabiiy-ilmiy fanlarda bu biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarga oid aniq va tizimli ma’lumotlardir.

Farqlash usuli: Bilimni o‘rganishda o‘quvchilar asosan ma’lumotlarni yod olishadi, ta’riflar, qonunlar, formulalar va hodisalar haqidagi asosiy tushunchalarni bilishlari kerak. Masalan, Biologiya darsida Biologik elementlar va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot olish — bu bilimning bir turi hisoblanadi.

Ko‘nikma— bu bilimlarni amalda qo‘llash, tajriba o‘tkazish, muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan malakalardir.

Farqlash usuli: Ko‘nikmalarni o‘rganish uchun o‘quvchilar bilimni amaliyotga aylantiradilar. Bu, masalan, laboratoriya ishlarida genetik masalalarni kuzatish, kimyoviy tajribalarni bajarish yoki matematik hisob-kitoblar orqali natijalarni tekshirishdir. Ko‘nikmalarni o‘lchashda o‘quvchilarning muammoni hal qilishda muvaffaqiyat darajasi, ma’lum bir ilmiy metodni qo‘llash qobiliyati e’tiborga olinadi.

Yondashuv— bu o‘rganishning metodologik yo‘li yoki ko‘rinishidir. Tabiiy-ilmiy fanlarda bu konstruktsionizm, tanqidiy fikrlash, ilmiy usuldan foydalanish kabi yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Farqlash usuli: Yondashuvni farqlashda o‘quvchilarning ilmiy jarayonlarga qanday yondashishini, qanday qilib bilimlarni qayta qurish va yangi holatlar uchun moslashtirishlarini baholash mumkin. Masalan, o‘quvchilar yangi tajriba o‘tkazishda oldingi bilimlarga asoslanishlari, nazariyalarni o‘zgartirish yoki yangi ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishlari kerak.

Qisqacha farqlash:

- **Bilim** — ma’lumotlar, tushunchalar va nazariyalar.
- **Ko‘nikma** — bilimlarni amalda qo‘llash va tajriba o‘tkazish.
- **Yondashuv** — ilmiy metodlar va fikrlash usullari.

Bu farqlashlar o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy fanlarni qanday o‘rganishlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

7.OECD (2021). PISA 2025: Assessment and Analytical Framework. OECD Publishing.

8.Greiff, S., & Kyllonen, P. C. (2016). The Role of Digital Competence in the Assessment of 21st Century Skills. Educational Assessment, 21(3), 162-176.

9.Schleicher, A. (2018). World Class: How to Build a 21st-Century School System. OECD Publishing.

10.Hattie, J., & Donoghue, G. (2016). Learning Strategies: A Synthesised Model of Self-Regulated Learning. Australian Education Review.

11.Bennett, R. E. (2015). Formative Assessment: A Key to Successful Learning in the 21st Century. Educational Measurement: Issues and Practice, 34(4), 46-53.

12.Mandinach, E. B., & Gummer, E. S. (2016). A Systematic Review of the Research Literature on Data-Driven Decision Making in Education. Educational Policy, 30(2), 218-249.

13.PISA (2020). PISA 2022: Framework for the Assessment of Digital Competence. OECD Publishing.

14.Leung, F. K. S. (2018). Mathematical and Digital Literacy in a Globalized World: An Overview of PISA and Its Implications. International Journal of Mathematics Education in Science and Technology, 49(2), 175-189.

15.UNESCO (2020). Education in a Digital World: Insights from PISA 2021. UNESCO Publishing.

16.Ismailov A., Ergasheva M., Azamatova D. O‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligini rivojlantirish metodlari. O‘quv qo‘llanma.2024-yil,183 б.

4-mavzu.

O‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini baholash. Refleksiya.

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchilarni baholashning samarali va adolatli usullari hamda vositalaridan foydalanish. Refleksiya. Baholash vositalari. (Feedback) -ta’lim olish samaradorligini oshirish vositasi. Turli baholash usullarini ishlab chiqish va tahlil qilish.

O‘quv bloki	**III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**				
O‘quv modul	**3.5.O‘quvchilarni biologiya sohasidagi oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish va tayyorlash**				
Mavzu	3-**mavzu. O‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini baholash. Refleksiya.**				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi va kutilayotgan natijalar	•O‘quv jarayonini samarali tashkil qilish, o`quvchilar egallashi kerak bo`lgan malaka va kunikma talablarini belgilab berish, muammoli topshiriqlar, tadqiqotchilik kunikmalarini dars jarayonida tadqiq qilish. Hayotiy ko‘nikmalarni baholash o‘quvchilarning quyidagi yo‘nalishlardagi imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan: •**Shaxsiy boshqaruv**: vaqtni samarali rejalashtirish, maqsad qo‘yish va ularga erishish. •**Ijtimoiy ko‘nikmalar**: jamoada ishlash, samarali muloqot qilish va boshqalarning fikrini hurmat qilish. •**Ijodiy fikrlash**: muammolarni hal qilish, yangicha yondashuvlar topish va qaror qabul qilish. .				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Enerdjayzer - Mavzu va reja bilan tanishtirish	10	Faollashtiruvchi mashq, Suhbat,	Slaydlar, A-3.4 format.Video lavhalar,	- O‘qituvchilarning mavzu

	- Mavzu bo‘yicha ishtirokchilarda qanday bilim va ko‘nikmalar borligini aniqlash maqsadida aniqlashtiruvchi savollar beriladi. - Maqsad va reja bilan tanishtirish		tushuntirish fikrlovchi mashq	baholash tizimidagi namunalar.	bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar aniqlaniladi - O‘qituvchilar mavzuning maqsadi va rejasi bilan tanishadilar
2. Motivatsiya	- Qiziqarli misol yoki muammoli savol beriladi, muhokama "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	O`quvshilarni kelajakda qaysi kasb egalari bo`lish extimolini shu dars jarayonida tasavvar qilish imkoniyatini yaratish . baholash jarayonini avtomatlashtiruvchi va o‘quvchilarni qiziqtiruvchi funksiyalarni taqdim etadi:	O‘qituvchilar mavzuga jalb etiladi, qiziqishini orttiriladi va ishtirok etishga rag‘batlantiriladi.
3. Nazariy qism	O‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini baholash – bu ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan innovatsion yondashuv *2. Platformaning funksionalligi* baholash jarayonini avtomatlashtiruvchi va	20	Taqdimot, suhbat	Slaydlardagi topshiriqlar bilan ishlash va tahlil qilish. Slaylardan foydalanib baholash tizimining ta`lim jarayonini avtomatlashtirish va o`quvchilarning qiziqtiruvchi funksiyalarini	O‘qituvchilar mavzui bilim va ko‘nikmalarini o‘zaro fikrlashgan holda rivojlantiradilar. **Shaxsiy boshqaruv**: vaqtni samarali rejalashtirish, maqsad

	o‘quvchilarni qiziqtiruvchi funksiyalarni taqdim etadi: • Interaktiv topshiriqlar: Haqiqiy hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan mashqlar. • Avtomatlashtirilgan tahlil: Natijalarni real vaqt rejimida tahlil qilish. • Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos baholash va rivojlantirish rejasi. *Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish: O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun batafsil hisobotlarni taqdim etish.2. Platformaning funksionalligi* **Interakt** baholash jarayonini avtomatlashtiruvchi va o‘quvchilarni qiziqtiruvchi funksiyalarni taqdim etadi: • **Test topshiriqlar**: Haqiqiy hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan mashqlar. • **Avtomatlas**			taqdim etadi.	qo‘yish va ularga erishish. **Ijtimoiy ko‘nikmalar**: jamoada ishlash, samarali muloqot qilish va boshqalarning fikrini hurmat qilish. **Ijodiy fikrlash**: muammolarni hal qilish, yangicha yondashuvlar topish va qaror qabul qilish.

	htirilgan tahlil: Natijalarni real vaqt rejimida tahlil qilish. • **Individual yondashuv**: Har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos baholash va rivojlantirish rejasi. **Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish**: O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun batafsil hisobotlarni taqdim etish				
4. Amaliy mashg‘ulot	• Har bir o‘quvchi uchun kuchli va zaif tomonlarini aniq ko‘rsatish. • Rivojlanish uchun aniq yo‘nalishlarni belgilash. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ularni bozor talablariga mos qobiliyatlar bilan ta’minlash.	20	Guruhlarda ishlash, suhbat	Slaydlar ustida mulohaza yuritish, amaliy mashg`ulotlar bajarish.	O‘qituvchilarda hamkorlikda ishlash va interfaol mashqlar orqali bilim va ko‘nikmalari rivojlantiriladi. O‘qituvchilar interfaol vositalar yordamida nazariy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Platforma har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan topshiriqlarni taqdim etadi. Platforma vazifalari o‘yin elementlari va hayotiy	15	Taqdimot, Suhbat, muhokama, tahlil	3-10-slaydlar	- O‘qituvchilarni taqdimot qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi -

	holatlarga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi Har bir o‘quvchi bo‘yicha batafsil hisobot ishlab chiqilib, ta’lim jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Jamoada ishlash, samarali muloqot qilish va boshqalarning fikrini hurmat qilish. Muammolarni hal qilish, yangicha yondashuvlar topish va qaror qabul qilish.				O‘qituvchilar o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi - O‘qituvchilar yangi mashq bilan tanishadilar O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish. Hayotiy masalalarni mustaqil hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirish. Mehnat bozori talablariga mos qobiliyatlarni shakllantirish.
6. Refleksiya va dars yakuni	- Mashq: “Men bugungi darsdan …..”		Refleksiya, suhbat	quyidagi ko‘nikmalarni baholash mumkin: **Muloqot**	O‘qituvchilar dars jarayonidan olgan taasurotlari va ma’lumotlar

				qobiliyatlari: Guruhda ishlash, fikr bildirish va tinglash mahorati. **Muammoni hal qilish qobiliyati**: Vaziyat tahlili va ijodiy yechim topish. **Qaror qabul qilish**: Mantiqiy fikrlash va oqibatlarni oldindan ko‘ra bilish. **Emosional intellekt**: O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish. **Vaqtni boshqarish**: Rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash.	i to‘g‘risidagi fikr va mulohazalari bilan o‘rtoqlashadilar

O‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini (ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot) baholashda refleksiya — o‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash orqali shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi asosiy vositadir https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/132700. Bu jarayon

o‘quvchilarga o‘z faoliyati, yutuqlari va kamchiliklarini anglashga yordam berib, mas’uliyat hissini shakllantiradi. Refleksiya orqali o‘quvchilar hayotiy muammolarni yechish va faoliyatini to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar

Hayotiy ko‘nikmalarni baholash va refleksiya usullari:

- **Refleksiya kundaligi:** O‘quvchilar o‘rganganlari, qiyinchiliklari va his-tuyg‘ulari haqida yozib boradilar.
- **O‘z-o‘zini baholash (Self-assessment):** Mezonlar asosida o‘z ishini o‘zi baholash https://ilmiyanjunganlar.uz/uploads/conferences/0073/73_i_20250822_093226_5.35.pdf.
- **O‘zaro baholash (Peer assessment):** Hamkorlikda ishlashda do‘stining faoliyatiga fikr bildirish https://ilmiyanjunganlar.uz/uploads/conferences/0073/73_i_20250822_093226_5.35.pdf.
- **"3-2-1" usuli:** 3 ta o‘rgangan narsasi, 2 ta qiziqarli fakt, 1 ta tushunarsiz savol.
- **Portfolio:** Ko‘nikmalarning rivojlanishini ko‘rsatuvchi ijodiy ishlar to‘plami https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/132700.

Refleksiya o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, shaxsiy va akademik yuksalishni ta’minlaydi

Feedback (fidbek) — inglizcha so'z bo'lib, "qayta aloqa", "sharh", "otklik" yoki "reaksiya" ma'nosini anglatadi. Bu biron bir ish, xatti-harakat, mahsulot yoki xizmat bo'yicha boshqalarning bergan fikr-mulohazasi. U ijobiy, salbiy yoki konstruktiv (o'rgatuvchi) bo'lishi mumkin va o'sish hamda kamchiliklarni tuzatish uchun xizmat qiladi.

Feedback turlari va ahamiyati:

Turlari: Ijobiy ("Zo'r ish"), Salbiy ("Yoqmadi"), Konstruktiv ("Ranglar yaxshi, lekin shrift noqulay").

Ahamiyati: Ish samaradorligini oshiradi, kamchiliklarni ko'rsatadi va professional o'sishga yordam beradi.

Qo'llanilishi: Biznesda (mijozlar fikri), ish joyida (rahbariyat-xodim), ta'limda (ustoz-shogird) va kundalik hayotda.

Har qanday feedback — bu xafa bo'lish emas, balki rivojlanish uchun imkoniyat hisoblanadi.

3.6 MODUL
TANLOV MODULI

Mavzu: Biologiya darslarida nostandart topshiriqlardan foydalanish

Mashg‘ulot maqsadi:

- "Nostandart vazifa" tushunchasini va uning biologiyani o'qitishdagi rolini aniqlash. Nostandart vazifalarning har xil turlarini ko'rib chiqing (loyihalar, tadqiqotlar, holatlar, rolli o'yinlar va boshqalar).

- Biologiya darslarida nostandart vazifalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish.

- O'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'zingizning nostandart vazifalaringizni ishlab chiqish.

Kutilayotgan natija

✓Tinglovchilarda biologiya o‘qitishda masala va mashqlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan metodik bilimlarni shakllantirish, ko‘nikmalarni tarkib toptirish;

✓O‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayonida turli mantiqiy yo‘nalishdagi masala va mashqlardan foydalanishga o‘rgatish;

✓Biologiyani o‘qitishda masala va mashqlardan foydalanish bo‘yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulot ishlanmalarini loyihalash ko‘nikmalarini tarkib toptirish orqali tinglovchilarning nostandart topshiriqlarni yaratish va yechimini bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish, chuqur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish,ilmiy tadqiqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	Biologiya darslarida Tinglovchilarni nostandart topshiriqlarning har xil turlari bilan tanishtirish.
O‘quv modul	Tinglovchilarda ijodiy qobiliyatlarni, tanqidiy fikrlashni va olingan bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish.
Mavzu	Biologiya darslarida nostandart topshiriqlardan foydalanish
Davomiyligi	80 daqiqa
Mashg‘ulotning maqsadi	- "Nostandart vazifa" tushunchasini va uning biologiyani o'qitishdagi rolini aniqlash. Nostandart vazifalarning har xil turlarini ko'rib chiqing (loyihalar, tadqiqotlar, holatlar, rolli o'yinlar va boshqalar). - Biologiya darslarida nostandart vazifalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish. - O'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'zingizning nostandart vazifalaringizni

	ishlab chiqish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Maqsad va reja bilan tanishtirish Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	Biologiya darsligi, ish kitobi.	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	Fikrlash vaqti yoki muammoli savol "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	Qog'oz varaqlari, markerlar. 3-4-slayd.	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	Turli xil nostandart vazifalarni yechimini o’rgatish va taqdim etish. Har bir savollarni ishlanish yo’llarining xilma xilligi ularning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirish. Nostandart savollarning olimpiada va milliy sertifikat savollarini ishlashda qo’lay olishini slaydlar bilan tushuntirish.	20	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	5-14-slaydlar	O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	Har bir guruh oila shajarasini tuzib chiqadi. Masalan; 1-guruh oila shajarasini istedodning irsiylanishi bo’yicha 2-guruh oila shajarasini qon guruhlari bo’yicha 3-guruh oila shajarasini kasalliklarni autosomaga birikkan holda irsiylanishi	25	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish - Misollar va vaziyatlarni muhoka	Qog'oz varaqlari, markerlar. 15-16-slaydlar 1-2-tarqat - malar	- Tinglovchilar shajara daraxtini tuzadi. vazifalarni muhokama qiladi, taqdimot tayyorlaydi.

	bo’yicha 4-guruh oila shajarasini kasalliklarni X yoki Y jinsiy xromosomaga birikkan holda irsiylanishi boyicha.		ma qilish		
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar Qiyinchiliklarni muhokama qilish Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhoka ma, tahlil	17-21-slaydlar	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	"O’zingni o’zing bahola?" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	22-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Mashg‘ulot boshlanishi:

1 Bosqich- “ Time to think ” activity Tinglovchilar mavzu va uning maqsadlari bilan tanishtiriladi (1-2 slaydlar).tinglovchilarga savol bilan murojat etiladi. Savol: sizda bitta gugurt cho’pi bor va u bilan qorong’u xonadasiz. qorong’u xonada sham, yog’ lampa va gaz plitasi siz qaysi birini birinchi bo’lib yoqasiz?

So’ngra oldindan tayorlab qo’yilgan sham, yog’ lampa va gaz plitasi rasmi tushirilgan kartochkalar ishtirokchilar tomonidan tanlanadilar (3-slayd) muxokamasi o‘tkaziladi ishtirokchilar qo’lidagi 1 dona gugurt cho’pini birinchi bo’lib qaysi moslamani yoqishni tanlaganligiga yoki qolgan ikki turdagi moslamani nima uchun tanlamaganligiga sabab va misollar keltiradi. Tinglovchilar tanlagan kartochkalari asosida 3 guruhga ajralib qoladi.

2-Bosqich – “Munozaralar va bahslar” activity; Tinglovchilardan Bahs munozara davomida nima uchun nostandart vazifalardan foydalanish muhim? Yuqorida berilgan savolga o‘quvchilar bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni himoya qiladi va mantiqiy dalillar bilan isbotlaydi.buning uchun taqdimotdagi savollardan foydalaniladi. Xar bir savoldan keyin tinglovchilarning ayrimlaridan shaxsiy fiklarini izoxlab berishlari so’raladi.Ushbu baxsli muxokama orqali tinglovchilar darsga jalb qilinadi va mavzuga kirish debochasi sifatida mavzuning muxumligi o‘rganiladi.

Tinglovchilardan ijodkorlik, tadqiqot ko'nikmalari va bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini talab qiladigan an'anaviy o'quv topshiriqlaridan tashqariga chiqadigan topshiriqlar.

"**Nostandart topshiriqlar turlari**" ? degan savolga kompyuterdan **Google** yoki **Sun'iy Intelekt** dan foydalanib javob toppish so'raladi,javobni topish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi .Javoblar o'qib eshitirilishi uchun ham 5 daqiqa beriladi.

3- **Bosqich** "**Birgalikda loyiha yaratish:**

Guruh sifatida muayyan dastur, loyiha yoki mahsulot ishlab chiqish. Masalan, Genetika va inson salomatligi mavzusida nostandart masalalar o'rganish uchun tinglovchilar guruh bo'lib genetik simvollarni,dominant va resesiv fenotipik belgilarni, qonuniyat, formulalarni hamda oila shajarasini yaratishni o'rganadi.

Tarqatma material tinglovchilarga shajara daraxtini yaratish uchun genetik simvollar va fenotipik hususiyatlari yozilgan kartochkalar taqdim etiladi, tinglovchilar guruhlarga ajralib 1-guruh oila shajarasini istedodning irsiylanishi bo'yicha 2-guruh oila shajarasini qon guruhlari bo'yicha 3-guruh oila shajarasini kasalliklarni autosomaga hamda X yoki Y jinsiy xromosomaga birikkan holda irsiylanishi boyicha. o'z guruhlari bilan plakatga joylashtiradi va o'ziga berilgan mavzu bo'yicha yangi masala shartini tuzadi va ishlashadi. 4-8-slaydlar

4-Bosqich Jarayon va muhokama (35 minut) - Mavzu o'rganiladi,buning mazmuni shundan iboratki mavzuga oid masala o'rganilgan qonuniyatlar, formullalar, simvollardan foydalanib o'qituvchi tomonidan doskada ishlab beriladi. Guruhlarga mavzusi va qiyinchilik darajasi bir xil bo'lib topshiriq beriladi. Guruhlar berilgan nostandart topshiriqlarni mavzuning qismlariga bo'lib bajaradi. Masalan guruhning bir a'zosi shajara daraxtini chizsa ikkinchi a'zosi o'rganiladigan belgining dominant yoki resesiv ekanligini aniqlaydi. Guruhning boshqa bir a'zosi topshiriqni qonuniyatlarga asoslanib bajarsa boshqa bittasi matematik formula va hisob kitoblardan foydalanib bajarishadi.Guruh a'zolari to'plagan javob orqali mavzu deyarli to'liq holatga keladi.Muhokama qilish orqali esa birlashtiriladi,to'ldiriladi mustaxkamlanadi, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.Ushbu uslubni o'qituvchilar darslarga integratsiya qilishlari darslarni qiziqarli, mazmunli va shuning bilan birga mantiqiy fikrlash va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.9-16-slaydlar

"Inquiry-based education" Tinglovchilar o'zi o'rganishni istagan, qiziqqan va yechimini topishga qiynalgan mavzular bo'yicha nostandart topshiriq mavzularini 17-slayddagi mavzular ichidan tanlaydilar.slaydda tinglovchi o'rganmoqchi bo'lgan

nostandart topshiriq mavzusi bo’lmasa u holda keyingi bosqichda qaysi mavzuda nostandart topshiriqlarini o’rganishni doskaga yopishtirilgan plakatlarga yozishi uchun tarqatma materiallar berish : A3 formatdagi qog’oz, rangli markerlar ,chizg’ich va skoch tarqatiladiva tinglovchi o’rganmoqchi bo’lgan mavzusini yozadi. **(35 minut):**17-25-slaydlar

3,6-mavzu. Biologiya darslarida nostandart topshiriqlardan foydalanish

Topshiriqlar

1. Organizmda moddalar almashinuvi natijasida hosil bo’lgan qoldiq moddlarning juda kata qismi buraklar orqali chiqariladi. Buyraklar qonni filtrlash, qon bosimini nazorat qilish, organizmdagi kislota-asos balansini normal saqlash kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Quyida buyrakning anatomik tasviri keltirilgan.



Q1 Yuqoridagi buyrak qismlari(A-G)ni ularning nomlari bilan bilan juftlang va quyidagi jadvalni to’ldiring.

	A	***B***	***C***	***D***	***E***	***F***	***G***
So’rg’ich							
Kichik kosa							
Buyrak kapsu							
Katta kosa							

Buyrak jomi							
Korteks							
Medulla							

Ma’lumki buyraklar orqali turli moddalar qondan turli darajada tozalanadi, quyidabuyraklar orqali chiqariladigan moddalarning tozalanish darajasini aniqlashda qo’llaniladigan formula keltirilgan.

$$C_s = \frac{U_s V}{P_s}$$

- C_s = S modda uchun tozalanish koeffisiyenti
- U_s = Siydik tarkibidagi S modda konsentratsiyasi
- V = ma’lum vaqt birligidagi siydik hajmi
- P_S = S moddaning plazmadagi konsentratsiyasi

Q2.1 Berilgan grafikdan foydalanib glukozaning qondagi boshqarilish mexanizmidagi noma’lum (P,Q va R) jarayonlarni aniqlang.



Q2.2 Sog’lom odamda glukoza uchun tozalanish koeffisiyenti nechaga teng ekanini aniqlang va yechimingizni izohlang.

Nefronda boradigan muhim jarayonlardan bittasi bu – filtratsiya. Ushbu jarayonning borishi bir nechta turdagi, moddalar tomonidan hosil qilingan bosimlar bilan o’lchanadi. Ular gidrostatik glomerular bosim(qon oqimi hisobiga), glomerular osmotik bosim(glomerular oqsillar hisobiga), kapsuladagi gidrostatik bosim, kapsula osmotik bosimi. Har bir turdagi bosim filtratsiya tezligiga turlicha yo’nalishda ta’sir qiladi.

Q3 Quyida glomerular filtratsiya tezligiga ta’sir qiluvchi omillar haqida berilgan fikrlarning har birini to’g’ri yoki noto’g’ri ekanligini aniqlang.

		To’g’ri	**Noto’g’ri**
A	Glomerula tarkibidagi oqsillar miqdorining oshis filtratsiyalangan siydik miqdorining kamayishiga sabab bo’ladi.		
B	Qon bosim ortganda ADG ishlab chiqarilib, siyd tarkibidan suv reabsorbsiyasini kuchaytirish orqa qon hajmini oshiradi		
C	Simpatik nerv tizimi glomerulaga kiradigan qon tomirlarni toraytirish orqali qondagi ortiqcha suyuqlik filtratsiyasini oshiradi		
D	Normada kapsula bo’shlig’idagi osmtik bosim deyarli 0 ga teng bo’lishi kerak		

Q.4. Yurak blokadasi – bu yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining bir turi bo’lib, yurak bo’ylab impuls tarqalishining buzilishi hisoblanadi. Yurak blokadasida turli xil strukturalar shikaslanishi mumkin va uning turli xil darajalari (1-3) mavjud. 1-impulsning sekin uzatilishi, 2 – impulslarning bir qismi o'tmasligi, 3-impulsning to'liq blokadasi.



4.1. Yuqoridagi shikaslanish darajalarining qaysi biri EKGning birinchi rasmiga tegishli, tanlovingizni izohlang.

4.2. Yuqoridagi shikaslanish darajalarining qaysi biri EKGning ikkinchi rasmiga tegishli, tanlovingizni izohlang.

4.3. Yuqoridagi shikaslanish darajalarining qaysi biri EKGning uchinchi rasmiga tegishli, tanlovingizni izohlang.

4.4. Sinoatrial tugunning to'liq blokadasi yurak urishining to'xtashiga olib keladi. Bu fikir to'g'rimi yoki xatomi, javobingizni izohlang.

4.5. Quyidagi rasm-grafik asosida ma'lum bir odamning yurak urish tezligini (zarb/daqiqada) aniqlang.



Q4. YURAK BLOKADSI SAVOL JAVOBI

2.1. 1-rasmda impulslarning bir qismi o'tmasligi ko’rsatilgan chunki sinoatrial tugundan chiqgan impuls bo’lmachagacha boryabti ammo qorinchagacha bormayabti, buni EKGdag P tishchadan so’ng QRS kompleks hosil bo’lmaganidan bilsag bo’ladi.

2.2. 2- rasmda impulsning to'liq blokadasi kuzatilgan, buni EKGdagi P bilan QRS kompleksning to’liq hosil bo’lmaganidan bilsag boladi.

2.3. 3-rasmda impulsning sekin uzatilishi kuzatilgan chunki EKG dagi rasmda P bilan QRS kompleksi orasidagi masofa uzaygan

2.4. Sinoatrial tugunning to'liq blokadasi yurak urishining to'xtashiga olib keladi. Bu xato fikr chunki agar sinoatrial tugunda to’liq blokada bo’ladigan bo’lsa ritm yurutuvchi sifatida atroventrikulyar tugun faoliyat yuritishni boshlaydi va yurak urishda davom etadi

Refleksiya (5 **minut)**
Stiker qog‘ozni oling:
Stikerlarga yozing va yopishtiring: 26-slayd
1.Biologiya darslarida nostandart topshiriqlar dan foydalanish

2.Oila daraxtini yaratish uchun kerakli genetic simvollar
3. genetic kasalik bilan bog’liq haqiqiy klinik holatni tahlil qila olish

4. Keying safar nimani yaxshi qila olaman?

2-Mavzu: Biologiya fanidan murakkab mavzularga oid masalalar yechish

Reja:

- Muammoli vaziyat yaratish (masalan, savol berish, javobi chuqur tahlil talab qiladigan)..
- Murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan nazariy asoslarni tushuntirish.
- Turli qiyinlikdagi masalalarni yechish misollarini ko‘rsatish.
- O‘quvchilarning mustaqil ravishda (yakka tartibda yoki guruhlarda) masalalarni yechishi.

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. FANNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**				
O‘quv modul	3.6. 1. “Biologiya fanidan sinf va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish orqali o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish” modulining o‘quv mavzu rejasi				
Mavzu	Biologiya fanidan murakkab mavzularga oid masalalar yechish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• Muammoli vaziyat yaratish (masalan, savol berish, javobi chuqur tahlil talab qiladigan).. • Murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan nazariy asoslarni tushuntirish. • Turli qiyinlikdagi masalalarni yechish misollarini ko‘rsatish. • O‘quvchilarning mustaqil ravishda (yakka tartibda yoki guruhlarda) masalalarni yechishi. • Yechimlarni muhokama qilish, tipik xatolarni aniqlash va tuzatish. • O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash:				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy	Salomlashish	5	Suhbat,	Biologiya	O‘qituvchilar

qism	Maqsad va reja bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish		tushuntirish	darsligi, ish kitobi.	mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	“Juftingni top” O‘rganilayotgan mavzuning ochib berish uchun terminologiyadan foydalanish "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	Qog‘oz varaqlari, markerlar. 2-4-slayd. 2-tarqatmalar	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	Biologiya fanidan turli xil murakkab mavzularga oid masalalar yechish vazifalarni yechimini o‘rgatish va taqdim etish. Har bir savollarni ishlanish yo‘llarining xilma - xilligi ularning afzalliklari va kamchiliklarini tushuntirish. murakkab mavzularga oid masalalar va savollarning olimpiada va milliy sertifikat savollarini ishlashda qo‘lay olishini - slaydlar bilan tushuntirish.	20	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	5-22- slaydlar	O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	Har bir guruh turli xil murakkab mavzularga oid masalalar yechish Masalan; 1-guruh Qo‘sh krossingoverga oid masalalar yechish 2-guruh Xardi-Vaynberg Populatsiya genetikasi mavzusiga oid masalalar yechish 3-guruh Molekulyar biologiya mavzusiga oid	25	- “**Think-pair-share**” metod Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish, misollar va	Qog‘oz varaqlari, markerlar. 7-17-19-20-21-slaydlar 2-3tarqatmalar	- Tinglovchilar shajara daraxtini tuzadi. vazifalarni muhokama qiladi, taqdimot tayyorlaydi.

	masalalar yechish		vaziyatlarni muhokama qilish		
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar - Qiyinchiliklarni muhokama qilish - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil	17-21-slaydlar 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish - “Olimpiada” refleksiyasi	5	Refleksiya usullari	25-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	16-17-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

O‘rganilgan mavzuni mustahkamlash:**1-2-slaydlar**

Kutilayotgan natija

✓Biologiya fanidan murakkab mavzularga oid masala va mashqlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan metodik bilimlarni shakllantirish, ko‘nikmalarni tarkib toptirish;

✓O‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ta ‘lim-tarbiya jarayonida turli mantiqiy yo‘nalishdagi masala va mashqlardan foydalanishga o‘rgatish;

✓Biologiyani o‘qitishda masala va mashqlardan foydalanish bo‘yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulot ishlanmalarini loyihalash ko‘nikmalarini tarkib toptirish orqali tinglovchilarning biologiya fanidan murakkab mavzularga oid masalalar yaratish va yechimini bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish, chuqur bilim va ko ‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko ‘nikmalarini rivojlantirish,ilmiy tadqiqot qilish ko ‘nikmalarini shakllantirish.

4-slayd

Biologiya fanidan murakkab mavzularga oid masalalar turlari

Zamonaviy yondashuvlar asosida masalalarni ishlash murakkab mavzularni o ‘zlashtirish jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Quyida murakkab mavzularga oid masalalar turlari:

- **Molekulyar biologiya va genetika bo‘yicha murakkab masalalar**

- **Qo ‘sh krossingover**
- **Qo ‘sh urug ‘lanishga doir masalalar**
- **Genetik kod, mutasiyalar va ularning oqibatlari.**
- **DNK replikasiyasi, jarayoniga oid masalalar.**
- **Transkripsiya va translyasiya jarayonlariga oid masalalar.**
- **Xardi-Vaynberg qonuni**
- **Metobalitik jarayonlar. Assimilyatsiya va dissimilyatsiyaga doir masalalar**

5-11-slaydlar

QO ‘SH KROSSINGOVER VA UNGA DOIR MASALALAR ISHLASHNI O ‘RGANISH UCHUN TINGLOVCHI NIMALARNI BILISH KERAK?

Krossingover ikkita gomologik xromosomalar o ‘rtasida bir xil gen allellarining almashinuvi bilan boradigan sitogenetik jarayon. Bunda hosil bo ‘lgan xromosomlardagi belgilar izchilligi dastlabki ota-onanikidan farq qiladi. Krossingoverning qaysi va nechta genlar o ‘rtasida sodir bo ‘lganiga qarab biz uni ikkita shartli guruhga bo ‘lishimiz mumkin: xromosomlardagi belgilar izchilligi dastlabki ota-onanikidan farq qiladi. Krossingoverning qaysi va nechta genlar o ‘rtasida sodir bo ‘lganiga qarab biz uni ikkita shartli guruhga bo ‘lishimiz mumkin:

• Yakka krossingover(single cross)
• Qo‘sh krossingover(double cross)

Qo‘sh krossingover kuzatilishi uchun organizmlar bitta xromosomada joylashgan uchta geni bo‘yicha tahlil qilinishi kerak. Ularning meyoz jarayonida sodir bo‘ladigan
yakka va qo‘sh krossingoverlar kombinatsiyasiga qarab hosil bo‘lgan 8 xil gametaga
mos ravishda(ota-onalardan biri trigeterozigota) tahliliy chatishtirishda bir-biridan soni va geneotipi bilan farqq qiladigan 8 xil avlod hosil bo‘ladi. Keling, quyidagi misol bilan ko‘rib chiqamiz:

Mustaqil yechish uchun masalalar:

2-masala; Makkajo‘xori o ‘simligi trigeterozigota organizm trigomozigota retsessiv organism bilan chatishtirildi. Genlar bir xomosomada joylashgan.

Chatishtirishdan
quyidagicha natija olindi:
ABD – 3200 abd – 3050

Abd – 800	abD – 540
AbD – 90	aBd – 101
aBD – 830	ABd – 451

Jami: 962
Olingan natijaga qarab quyidagilarni aniqlang:
a) xromosomada genlarning joylashish tartibini;
b) genlar orasidagi masofani;
c) ota-ona organizmlarining genotipini aniqlang.
d) agar interferensiya kuzatilsa, uni toping.
2. Trigeterozigota AaBbCc organizmning tahliliy chatishtirishdan quyidagicha natija olingan :
abc-2 Abc – 136

abC – 4	AbC – 92
aBc – 96	ABc - 6
aBC – 144	ABC - 2

Jami: 482
Olingan natijaga qarab quyidagilarni aniqlang:
a) xromosomada genlarning joylashish tartibini;
b) genlar orasidagi masofani;
c) ota-ona organizmlarining genotipini aniqlang.
d) agar interferensiya kuzatilsa, uni toping.
3. Trigeterozigota AaBbCc organizmning tahliliy chatishtirishdan quyidagicha natija olingan :
AbC – 344 *abc* – 2

ABc - *6*	*abC* – 4
ABC – 4	*aBc* – 328
Jami: 688	

4.Bir tajribada drozofila pashshasidagi birikkan holda irsiyalanadigan
genlar o ‘rganish uchun tahliliy chatishtirish o‘tkazilib quyidagi natija olindi:
ABC 2
ABc 37
AbC 28
Abc 171
aBC 196
aBc 26
abC 42
abc 4
Jami: 500
Olingan natijaga qarab quyidagilarni aniqlang:
a) xromosomada genlarning joylashish tartibini;
b) genlar orasidagi masofani;

c) ota-ona organizmlarining genotipini aniqlang.
e) agar interferensiya kuzatilsa, uni toping.
5. Makkajo ‘xori o ‘simligi trigeterozigota organizm trigomozigota retsessiv organizm
bilan chatishtirildi. Genlar bir xomosomada joylashgan. Chatishtirishdan quyidagicha natija olindi:
ABC – *522* aBC – *12*
ABc – *53* aBc – *112*
AbC – *113* abC – *57*
Abc – *17* abc – *530*
Jami: 2584
Olingan natijaga qarab quyidagilarni aniqlang:
a) xromosomada genlarning joylashish tartibini;
b) genlar orasidagi masofani;
c) ota-ona organizmlarining genotipini aniqlang.
d) agar interferensiya kuzatilsa, uni toping.
6. Quyida ikkita tahliliy chatishtirish natijalari ko‘rsatilgan.
1-chatishtirish 2-chatishtirish

+++	669	bcd	8
ab+	139	b++	441
a++	3	b+d	90
++c	121	+cd	376
+bc	2	+++	14
a+c	2280	++d	153
abc	653	+c+	64
+b+	2215	bc+	141

Kichik harflar retsessiv fenotipni, plus belgisi dominant fenotipni ifodalaydi.
a) Ko ‘rsatilgan to ‘rtta genning (a,b,c va d) xromosomada joylashish ketma - ketligini va ular oarsidagi masofani aniqlang.
b) Birinchi va ikkinchi chatishtirishda qatnashgan ota-onalar genotipini toping

12-15-slaydlar

Xardi-Vaynberg Populatsiya genetikasi mavzusiga oid masalalar yechishni o ‘rganish uchun tinglovchi nimalarni bilish kerak?
1908-yil ingliz matematigi Godfri Xarold Xardi va nemis vrach - genetigi VilgelmVaynberg bir-biridan mustaqil ravishdan qonun yaratishdi. Bu qonunga binoan populatsiyada gomozigota va geterozigota organizmlarni tarqalishini algebraik formula bo ‘yicha hisoblab topish mumkin. Dominnant allel (A) uchrash chastotasi ***p*** bilan, retsessiv allel(a)ning uchrash chastotasi esa ***q*** bilan belgilanadi. Populatsiyada bu allellarning uchrash chastotasini quyidagi formula

bilan aniqlanadi:
p + q = 1 (yoki 100%).
Panmiksiya yuz beradigan populatsiyalarda bu gametalarning uchrash ehtimolligini
genotiplar nisbatiga qarab aniq hisoblash mumkin.
Xardi va Vaynberg bu ma ‘lumotlar asosida quyidagi formulani ishlab chiqdi:
AA + 2Aa + aa = 1 yoki p2 + 2pq + q2 = 1
Bu formula yordamida populatsiyada uchrovchi har qanday belgini uchrash chastotasini hisoblab topish mumkin.

♂ ♀	**A** **(p)**	**a** **(q)**
A **(p)**	AA (p2)	Aa (pq)
a **(q)**	Aa (pq)	aa (q2)

Lekin bu formulani quyidagi vaziyatlardagina ishlatish mumkin bo ‘ladi :
1. Populatsiya tarkibidagi individlar soni ko‘p bo ‘lib, unda panmiksiya (erkin chatishish) yuz bersa;
2. Hamma genotiplar yashovchan deb hisoblansa, nasl bersa va tabiiy tanlanish yuz
bermasa;
3. Mutatsiyalar uchramasa, yoki juda kam uchrasa;
4. Populatsiya genotipida o ‘zgarish yuz bermasa.
Tabiatda bunday populatsiya uchramasligini hisobga olib shuni aytish mumkinki, Xardi-Vaynberg qonuni ideal populatsiya uchun qo‘l keladi.
Shunday bo‘lsada bu qonun tabiiy populatsiyalarda uchrovchi bir qancha genetik hodisalarni tahlili uchun ishlatiladi.
Masalan, agar fenilketonuriya kasalligi yangi tug ‘ilgan chaqaloqlarda 1:10000 nisbatda uchrasa va autosom-retsessiv irsiylansa, dominat belgi bo ‘yicha gomozigota va geterozigotalarning qanchaligini hisoblab topish mumkin.
Fenilketonuriya bilan og ‘rigan bolaning genotipi *q2*(aa) = 0,0001.
Bu yerdan *q* = 0,01.
Yechish: p = 1-0,01 = 0,99.
Geterozigota organizmlarni uchrash chastotasi *2pq*
2 × 0,99 × 0,01 ≈ 0,02 yoki ≈ 2 %
Endi dominant va retsessiv belgilar uchrash chastotasini hisoblab topamiz
AA = p2 = 0,992 = 0,9801 ≈ 98 %
Aa = q2 = 0,012 = 0,0001 ≈0,01 % .

1-Masala: Ma ‘lum belgi bo ‘yicha geterozigotali organizmlar o‘zaro chatishtirildi. Agar ushbu populatsiyada shu belgi retsessiv allel(**aa**)ining uchrash chastotasi 75 % ga yoki ¾ ga teng bo‘lsa, bu chatishtirishdan hosil bo‘lgan avlod genotipik nisbat qanday bo‘ladi?

Ishlanishi: Oddiy monoduragay chatishtirish o‘tkazganimizda Aa x Aa chatishtirishdan olinadigan genotipik nisbat 1 : 2 : 1 bo ‘lar edi. Bu yerda esa masala quyidagicha ishlanadi:

Aa x Aa

♀ ♂	***A*** ¼	***a*** ¾
A ¼	*AA* 1/16	*Aa* 3/16
a ¾	*Aa* 3/16	*aa* 9/16

Demak, bu yerda: *AA* - 1; *Aa* - 6; *aa* - 9, ya ‘ni 1 : 6 : 9 nisbat.

2-Masala: Populatsiyada ***A*** va ***a*** genlarining nisbati mos ravishda 0,8 va 0,2 ga teng.
Shu populatsiyada ikki geterozigotali organizm chatishtirildi va 1800 ta organizm olindi. Gomozigota va geterozigta organizmlarning o ‘zaro nisbatini toping.
Ishlanishi : Genlarning uchrash chastotasi Xardi-Vaynberg qonuni tenglamasi bo ‘yicha topiladi:
p2 + 2pq + q2 = 1
Bu yerda ***p*** dominant gen chastotasi; ***q*** retsessiv gen chastotasi.
Berilgan masalada A = 0,8; a = 0,2 ga.
Yuqoridagi tenglama bo ‘yicha :
p2 + 2pq + q2 = 0,82 + 2 × 0,8 × 0,2 + 0,22 = 0,64 + 0,32 + 0,04 = 1
Demak AA = 0,64 (64%); Aa = 0,32(32 %); aa = 0,04 (4 %).
1800 ta avlodning 100% deb oladigan bo ‘lsak, quyidagi nisbat chiqadi:
1800 — 100%
x — 64% x = 64 x 1800
100= 1152(*AA*)
1800 — 100%
x — 32% x = 32 x 1800
100= 576(*Aa*)
1800 — 100%
x — 32% x = 4 x 1800
100= 72(*aa*)
Javob: AA - 1152; Aa - 576; aa – 72

16-21-slaydlar

Kirish
Assalomu alaykum, hurmatli tinglovchilar! Bugungi ma’ruzamiz biologiyaning eng muhim bo‘limlaridan biri – molekulyar biologiyaga bag‘ishlanadi. Xususan, barcha tirik organizmlarning asosini tashkil etuvchi ikkita muhim biomolekula –

dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) va ribonuklein kislotasi (RNK) haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.
DNK – hayotning kodi
DNK – bu barcha tirik organizmlarning genetik ma’lumotini saqlovchi uzun zanjirsimon molekula. Uning tuzilishi juda murakkab bo‘lib, ikkita parallel zanjirdan iborat. Bu zanjirlar bir-biriga vodorod bog‘lari orqali mahkam bog‘langan. DNKning asosiy funksiyasi – genetik ma’lumotni saqlash va keyingi avlodlarga o‘tkazishdir.
DNKning tuzilishi: DNK molekulasi nukleotidlar deb ataluvchi kichik birliklardan tashkil topgan. Har bir nukleotid azotli asos (adenin, guanin, timin yoki sitozin), dezoksiriboza shakari va fosfat guruhidan iborat.
DNKning replikasiyasi: Hujayra bo‘linishdan oldin DNK molekulasi o‘ziga o‘xshash ikkita nusxaga ko‘payadi. Bu jarayon replikasiya deb ataladi.
DNKning funksiyalari:
Genetik ma’lumotni saqlash
Oqsil sintezi uchun shablon bo‘lib xizmat qilish
Organizmning rivojlanishi va ishlashini boshqarish
RNK – bu DNKdagi genetik ma’lumotni o‘qib, uni amaldagi oqsillarga aylantirishda ishtirok etuvchi molekula. RNKning bir nechta turlari mavjud:
mRNK (matriks RNK): DNKdagi genning nusxasini yaratib, ribosomaga olib boradi.
tRNK (transport RNK): aminokislotalarni ribosomaga olib keladi va ularni o‘z o‘rniga qo‘yadi.
rRNK (ribosomal RNK): ribosomaning asosiy qismini tashkil etib, oqsil sintezi jarayonini ta ‘minlaydi.
RNKning funksiyalari:
DNKdagi genetik ma ‘lumotni o‘qish
Oqsil sintezini ta ‘minlash
Genetik ekspressiyani boshqarish

Mustaqil ishlash uchun masalalar;
1-masala: DNK molekulasini ikki ipida 3200 ta nukleotid bor. Umumiy nukleoitlarni 25 % i S. 1-ipda timin nukleolidini 70 % i, guaninlarni esa 30 % i joylashgan. DNK ning 1-ipidan sintezlangan i-RNK dagi purin asoslari sonini toping
A) 1600 **B) 1120** C) 480 D)560
Ishlanishi:
1) 3200 --- 100%
x(S) --- 25% x=(3200*25)/100 x=800
S-800-25%=25%-800-G ikkalasi 50% ni tashkil etadi.
2) 100%-50%=50% Demak, 50% i G va S ni tashkil etishi kerak va ular:
A-800-25%=25%-800-T ni tashkil qiladi => A=T=G=S
3) Jami G dan 1-ipdagi G ni topamiz:
800 --- 100%

x --- 30%	x=(800*30)/100 x=240 G=240
Jami T dan 1-ipdagi T ni topamiz:	
800 --- 100% x --- 70%	x=(800*70)/100 x=560 T=560

4) Bu ipdagi T=560 bo ‘lsa, A=240 ga; G=240 bo ‘lsa, S=560 ga teng bo ‘ladi.
DNK da AG**ST**
i-RNK da US**GA** U=240; S=240; **G=560; A=560**
5) i-RNK da Purin=A+G bo ‘ladi: 560+560=1120 **Javob: B**
2-masala: DNK fragmentida 222 ta A nukleotidi mavjud bo ‘lib, u umumiy nukleotidlarning 10 % ni tashkil qilishi ma ‘lum. Shu fragmentga restriktaza fermenti yordamida ishlov berilgandan so ‘ng, A-T juftligi 9,91 % ga; G-S juftligi esa 25 % ga kamaydi. Dastlabki va ishlov berilgandan so ‘ng DNK fragmentining uzunligini toping (nm).
A) 377,4; 181,22 B) 377,4; 806
C) 377,4; 294,44 D) 754,8; 588,88
Ishlanishi:
1) A-222-10%=10%-222-T 10%+10%=20%
100%-20%=80% G-40%=40%-S
2) 222---10%
x---40% x=(222*40)/10=888
3) 222+888=1110 –bu 1ta zanjirdagi nukleotidlar
4) L=N*0,34nm L=1110*0,34=377,4nm
5) 222---100% 100-9,91=90,09%
x---90,09% x=(222*90,09)/100=200
6) 888---100% 100-25=75%
x---75% x=(888*75)/100=666
7) 200+666=866 L=N*0,34=866*0,34=294,44nm J:C

22-slayd

1-masala Ma`lum sharoitda 105,4 nm uzunlikdagi DNK malekulasi BamHI restiriktaza fermenti ta`sirida ABCD bo`laklarga bo`lindi Hosil bo`lgan barcha DNK malekulasidagi vodorod bog`lar soni dastlabki vodorod bog`lar sonidan 3,75% ga kam bo`lsa dastlabki DNK malekulasidagi A-T orasidagi vodorod bog`lar sonini toping.
A)260 B)248 C)522 D)540
Ishlanishi:
1) N=L/0,34 N=105,4/0,34=310 310*2=620
2) BamHI har bir kesgan joyda GATC orasidagi H bog‘larni uzadi. 3+2+2+3=10 G-S=2*3=6 ta A-T=2*2=4 ta
3 joydan kesilgan va ABCD bo ‘laklarga bo ‘lingan: 10*3=30
3) 30---3,75%

x---100% x=(30*100)/3,75=800
4) 2A+3G=800
2A+2G=620
G=180
2A+3*180=800
2A=360
A=130
5) H=2A H=2*130=**260 Javob: A**
2-masala; Ma`lum sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK malekulasi Eco.RI restiriktaza fermenti ta`sirida ABC bo`lakka bo`lindi.Hosil bo`lgan barcha DNK malekulasidagi vodorod bog`lar soni dastlabki vodorod bog`lar sonidan 2% ga kam bo`lsa dastlabki DNK malekulasidagi G-S orasidagi vodorod bog`lar sonini toping.
A)450 B)350 C)334 D)434
Ishlanishi:
1) N=L/0,34 N=110,5/0,34=325 325*2=650
2) Eco.RI har bir kesgan joyda AATT orasidagi H bog‘larni uzadi.
2+2+2+2=10 A-T=2*4=8 ta
2 joydan kesilgan va ABC bo‘laklarga bo‘lingan:
8*2=16
3) 16---2%
x---100% x=(30*100)/2=800
4) 2A+3G=800
2A+2G=650
G=150
2A+3*150=800
2A=350
A=175
5) H=3G H=3*150=**450 Javob: A**
3-masala: Ma`lum sharoitda 45,9 nm uzunlikdagi DNK malekulasi Eco.RI restiriktaza fermenti ta`sirida ABC bo`lakka bo`lindi.Hosil bo`lgan barcha DNK malekulasidagi vodorod bog`lar soni dastlabki vodorod bog`lar sonidan 5% ga kam bo`lsa, hosil bo`lgan DNK malekulasidagi G-S orasidagi vodorod bog`lar sonini toping.
A)170 **B)150** C)250 D)154
Ishlanishi:
1) N=L/0,34 N=45,9/0,34=135 135*2=270
2) Eco.RI har bir kesgan joyda AATT orasidagi H bog‘larni uzadi.
2+2+2+2=10 A-T=2*4=8 ta
2 joydan kesilgan va ABC bo‘laklarga bo‘lingan: 8*2=16
3) 16---5%
x---100% x=(16*100)/2=320
4) 2A+3G=320
2A+2G=270
G=50

2A+3*50=320
2A=170
A=65
5) H=3G H=3*50=**150 Javob: B**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ofurov A.T., Fayzullayev S.S., Xolmatov X.X. Genetikadan masala va mashqlar. Oliy va o‘rta maktab Tinglovchilari va o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. Toshkent. O‘qituvchi. 1991. 140 bet.
2. Ostonaqulov T.E. va boshqalar. Genetika asoslari. Qishloq xo‘jalik oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining Tinglovchilari uchun darslik. Toshkent. 2005. 168 bet.
3. G‘ofurov A.T. Fayzullayev S.S., Saidov J. Genetika. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari biologiya ixtisosligi Tinglovchilari uchun darslik. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2010.
4. Eshonqulov O., Nishonboyev K., Bosimov M. Genetika. Akademik litsey o‘quvchilari uchun darslik. T.: «Sharq», — 2010. — 176 b.
5. Musayev D.A. va b. Genetika va seleksiya asoslari. Biologiya yo‘nalishi Tinglovchilari uchun darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. 2011. 488 bet.
6. D. Biologiya-genetika. Biologiyadan mavzulashtirilgan masalalar to‘plami. FDU. 2015. 100 bet.
7. Sheraliyev B. Biologiya va genetikadan masalalar. Farg‘ona. 2015. 76 bet.
8. “Abituriyent” gazetasi. 2014. 2015. 2016.
9. Biologiya variantlar. 2010. 2011. 2012. 2013. 2014. 2015. 2016.
10. G‘ofurov A. va boshqalar. Biologiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik: 1-nashr. 2017.
11. @KhanAcademyUzbek

MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR

“SWOT-TAHLIL” METOD

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlash, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Namuna: Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvlarining tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvlarining kuchli tomonlari	
W	Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvlarining kuchsiz tomonlari	
O	Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuv-larining imkoniyatlari (ichki)	
T	Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvlarini amalda qo‘llashdagi to‘siqlar (tashqi)	

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda vaziyat sifatida ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan tahlil uchun foydalanish mumkin.

Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi

“Keys stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓axborotni umumlashtirish; ✓axborot tahlili; ✓muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ini belgilash	✓individual va guruhda ishlash; ✓muammolarning dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓individual va guruhda ishlash; ✓muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓yakka va guruhda ishlash; ✓muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Keys-stadi” metodining o‘ziga xos xususiyatlari:

izlanishga doir faoliyatning mavjud bo‘lishi;

jamoaviy va guruhlarda o‘qitish;

individul, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi; xilma-xil o‘quv loyihalarini ishlab chiqish;

muvaffaqiyatga erishish uchun ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish; keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilar savollar bo‘yicha faoliyatni

qamrab oladi: kim? (who?), qachon? (when?), qaerda? (where?), nima uchun? (why?), qanday? G‘ qanaqa? (how?), nima? (natija) (what?).

Keys. 10-sinf darsligining sizga taqdim etilgan bitta mavzusi materiallari bo‘yicha keys topshirig‘ini tuzing. Bu keys asosida o‘tiladigan dars loyihasini yarating, taqdimot tayyorlang va uni namoyish eting. «FSMU» metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan mavzuni mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi; har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

“FSMU” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan mavzuni mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

-qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

F	**Fikringizni bayon eting**
S	**Fikringizni bayoniga sabab ko`rsating**
M	**Ko`rsatgan sababingizni isbotlab, misol keltiring**
U	**Fikringizni umumlashtiring**

Ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: PISA xalqaro tadqiqotlar natijalari mamlakatimizda tabiiy fanlarni o‘qitish tizimini tahlil qilish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod o‘quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi; ta’lim oluvchilarga mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda); ta’lim oluvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’noni anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar; belgilangan vaqt yakuniga etgach, o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot

Izoh: Ikkinchi ustunga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.
Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metod biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklda berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalariga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga imkon yaratiladi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish mumkin bo‘ladi, jumladan, ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ularda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan:

muammoli savol beriladi; fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi; fikr va g‘oyalar guruhlanadi; aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi;

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi;

2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari rangli qog‘ozlarga yoki doskaga to‘planadi;

4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-

g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi; ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi; fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish

imkoniyati mavjud; ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘onadi. “Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik; ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Mazkur metod ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etishi, boshlovchi rolida bo‘lish, bir-biridan o‘rganish va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi, chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi;

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 nafardan bo‘linishlari mumkin;

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar;

4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi;

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar;

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi;

7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi: o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirilishiga olib keladi; muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi; vaqtni tejash imkoniyati mavjud; barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi; o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi. «Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari: ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor; barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi; guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin; guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Bahs-munozara” metodi

Mazkur metod biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuvi ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilganda ushbu metoddan foydalanish mumkin. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilardan biriga topshirish yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod qo‘llanilgan vaqtda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;

“o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruxsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish; fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati; bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi; bir-birlariga o‘zaro hurmat.

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Muammoli vaziyat” metodi

Mazkur metod ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgandir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritish, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotlardan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Loyiha” metodi

Bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish, natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyihani ishlab chiqish yakka

tartibda yoki guruh bilan bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlarni yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketlikni, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017- yil 14-yanvar // Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020-yil 29-dekabr).

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2020 y. 14-son, 213-modda, 22-son, 406-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi 637-son Qonuni – 2020 y., 23 sentyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ–3160-son Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y. 06/17/5194/0032-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi»gi PQ−3907-son Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–60-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi «2022 - 2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-134-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-sonli Qarori

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida” 2017-yil 2-iyundagi 345-son qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Begimkulov U. Pedagogik Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. P.f.d. disser. –T., 2007.

2. Ismailov A., Axmedov X., Karimberdiyev Q. “PISA 2018 xalqaro dasturning o‘qish savodxonligi qamrov doirasi”. “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi matbaa bo‘limi”, Qo‘llanma, Toshkent, 2021 yil. 90 b.

3. Ismailov A., Axmedov X. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda xalqaro PIRLS dasturining ahamiyati. “PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari, Toshkent, 2020 yil 13 mart, 131-137 b.

4. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G. Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnoma 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent, 2020 yil, 14,85 bosma taboq.

5. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” “Nihol” nashryoti, -T.2013 y.

6. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2008. – 68 b.

7. Ergasheva M., Pardayeva M. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022-yil. 6 b.t.

8. Eshqobilov S. Ta’lim muassasalarini boshqarishda axborot tizimlarini joriy qilish. Metodik qo‘llanma - A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI, 2018 y.

9. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili. - T.: YuNISEF, 2005 y.

10. Yevropa Komissiyasi (2020): Ta’lim va O‘qitish 2020 Dasturi, “O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish” Mavzuiy Ishchi Guruhi, Limassoldagi Tenghuquqli ta’lim olish to‘g‘risidagi hisoboti, Kipr, 17-21 oktyabr, 2010.

11. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti(OECD) (2015): Samarali o‘qituvchilarni ishga yollash, ularni rivojlantirish va ushlab qolish – Yakuniy hisobot: O‘qituvchilar ahamiyatga egadir.

12. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti (OECD) (2019): Maktabdagi rahbarlikni takomillashtirish – Vositalar to‘plami.

13. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti (OECD) (2018): PISA 2018-natijalari: Muvaffaqiyatga erishish uchun maktablar uchun strategiya va amaliyotlar (II Bob).

14. Mintzberg Henry On Change Harvard Business School Press, 1998.

15. Pratov O‘, To‘xtayev A. va boshqalar. (Botanika). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent – 2017-yil.

16. Zikiryayev A., To‘xtayev A., Azimov I., Sonin N. Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari). 9-sinf uchun darslik. T:“Yangi yo‘l poligraf service”, 2019-yil.

17. G‘ofurov A. va boshqalar. Biologiya. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘qituvchilari uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017-yil.

18. G‘ofurova va boshqalar. Biologiya. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2018-yil.

19. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo‘janazarov O‘., Tog‘ayeva G. “Biologiya fanini o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’lim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, Toshkent, 2018-yil.

20. Xasanova Sh. B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun biologiya fanidan o‘quv qo‘llanma. “Navro‘z nashriyoti”, 2019-yil.

IV.Elektron ta’lim resurslari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
2. www.my.gov.uz - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. www.uzedu.uz - Xalq ta’limi vazirligining rasmiy veb sayti.
4. www.eduportal.uz - Xalq ta’limi vazirligi axborot ta’lim portali.
5. www.infocom.uz – O‘zbekiston axborot kommunikatsiya texnologiyalari.
6. www.uza.uz/-O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi sahifasi.
7. www.kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi.
8. www.ziyonet.uz - Axborot ta’lim portali.
9. www.cict.uz/ - Xalq ta’limi sohasida AKTni rivojlantirish markazi.
10. http://akt.uzedu.uz - Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish tizimi.
11. http://tanlov.uzedu.uz - Xalq ta’limi tizimidagi ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish dasturi.
12. http://xt.uzedu.uz -Maktab ta’lim jarayonini boshqaruv tizimi
13. http://www.lex.uz/- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ma’lumotlar bazasi.
14. http://www.google.com/- ommabop axborot-qidiruv tizimi.
15. http://www.rambler.ru/ - qidiruv tizimi.
16. http://kopilkaurokov.ru O‘qituvchilar uchun sayt.
17. www.yaklass.ru – Maktab o‘quvchilari uchun ta’limiy internet resursi.
18. www.intuit.ru – Milliy ochiq universitet, Rossiya.
19. www.dnevnik.ru – Raqamli ta’lim platformasi, Rossiya.